ai.lex.uz LexAI SIZNING HUQUQIY MASLAHATCHINGIZ – 24/7 TEZKOR JAVOBLAR!

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.02.2024 yildagi PF-37-son

Кучга кириш санаси 23.02.2024

Қўшимча ахборот

Улашиш

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

# “OʻZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI “YOSHLAR VA BIZNESNI QOʻLLAB-QUVVATLASH YILI”DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TOʻGʻRISIDA

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan keng koʻlamli islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy oʻzgarishlarga erishish boʻyicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy oʻsish sur'atlarini ta'minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yoʻnaltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. 2024-yil 1-martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste'dodli va iqtidorli yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish boʻyicha respublika komissiyasi qarori bilan “Yoshlar balansi” asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxona va tashkilotlar hamda oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlariga biriktirilsin. Bunda mazkur rahbarlar:

har oyda kamida bir marotaba oʻzlariga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori boʻlgan kasb-hunarga oʻqitish orqali bandligini ta'minlash, hayotda oʻz oʻrnini topishi, shuningdek, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga har tomonlama koʻmaklashib borsin;

oʻzlariga biriktirilgan yoshlar muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun tegishli tashkilotning budjetdan tashqari mablagʻlari va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan zarur mablagʻlarni Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib asosida yoʻnaltirishga ruxsat etilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish boʻyicha respublika komissiyasi, Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev) hamda yoshlar biriktirilgan vazirlik va idoralar belgilansin.

2. Yoshlarning salohiyati, iste'dodi va tashabbuslarini toʻlaqonli roʻyobga chiqarish maqsadida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida:

2024-yil 1-martdan boshlab mahalla, ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlar tizimida mukofot jamgʻarmasi 600 million soʻm miqdorida xorijiy tillar (“Ibrat farzandlari”) boʻyicha tanlovlar, kibersport musobaqalari va “Zakovat” intellektual oʻyinlari yuqori saviyada tashkil etilsin;

Yoshlar ishlari agentligi va mahalliy hokimliklar tomonidan kasblar tanlovida gʻolib boʻlgan yoshlarni oʻz hududlarida jihozlangan ustaxonalar bilan “Yoshlar daftari” jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan ta'minlash amaliyoti yoʻlga qoʻyilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ul etib Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev) belgilansin.

3. Yoshlar ishlari agentligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining ekologiya, sogʻlom turmushni targʻib qilish kabi ijtimoiy ahamiyatga molik 100 ta volontyorlik loyihalari boʻyicha birinchi bosqichda bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravarigacha mablagʻni tanlov asosida ajratish tartibini joriy etish toʻgʻrisidagi taklifiga rozilik berilsin.

4. Yoshlar oʻrtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shugʻullanishga qoʻshimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida:

a) oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yoʻnaltirilsin;

b) 2024-yil 1-iyundan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi “Yosh tadbirkor” tanlovlarini oʻtkazish amaliyoti yoʻlga qoʻyilsin:

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tanlov asosida “mahalla — tuman — viloyat — respublika” bosqichlarida yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va gʻoyalari saralanadi. Bunda, nogironligi boʻlgan yosh tadbirkorlarning loyiha va gʻoyalariga alohida e'tibor qaratiladi;

respublika bosqichida saralashdan oʻtgan har bir loyihaga bazaviy hisoblash miqdorining 1 000 baravarigacha miqdordagi imtiyozli kreditlar ajratiladi;

gʻolib boʻlgan biznes loyiha va gʻoyalar egalari Yosh tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi hisobidan xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuboriladi.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev), Savdo-sanoat palatasi (D. Vaxabov) va Oʻzbekiston nogironlar uyushmasi belgilansin.

5. 2024-yil 1-martdan boshlab “Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi” dasturi joriy etilsin.

Bunda, ushbu dastur doirasida:

mahallalarda yoshlar yetakchilari tomonidan mahalla faollari ishtirokida axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasiga qiziquvchi yoshlar aniqlanib, ularni ingliz va boshqa xorijiy tillarga oʻqitish hamda sertifikatlar olishini tashkil etish, sertifikat olgan yoshlar toʻgʻrisida ma'lumotlarni Raqamli texnologiyalar vazirligining maxsus axborot tizimiga kiritib borish amaliyoti joriy qilinishi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan maxsus axborot tizimiga kiritilgan yoshlarni IT sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga yoʻnaltirish va ishga joylashtirishga koʻmaklashish choralari koʻrilishi belgilansin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi (K. Kuranbayev), Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev), Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov) hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari belgilansin.

6. 2024-yil 1-martdan boshlab:

“Yoshlar daftari” jamgʻarmasi mablagʻlarini yoshlarni chet tillari va kasb-hunarga oʻqitish maqsadlariga yoʻnaltirish amaliyoti yoʻlga qoʻyilsin;

yoshlarni zamonaviy kasblarga oʻqitish boʻyicha “Ustoz” maxsus platformasi ishga tushirilsin va dastlabki bosqichda mazkur platforma orqali 250 ming nafar yoshlar qamrab olinishi ta'minlansin;

yosh xotin-qizlarni tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblarga oʻrgatish uchun “Qizlar akademiyasi” platformasi ishga tushirilsin va bu orqali yosh xotin-qizlar uchun turli tanlov, loyihalar, oʻquv oromgohlari, stajirovkalar tashkil etilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev), Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi (O. Parpiboyeva) va Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev) belgilansin.

7. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili sifatida biznes uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish maqsadida “Biznesni qoʻllab-quvvatlash dasturi” doirasida 2024-yil yakuniga qadar:

kompleks qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali 2 million aholini biznesga jalb qilish;

yangi ish oʻrinlarini yaratish orqali 5 million aholining bandligini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ul etib Bosh vazir oʻrinbosari — J. Qoʻchqorov belgilansin.

8. 2024-yil 1-iyuldan boshlab nufuzli xalqaro brendlar bilan ishlab chiqarishni boshlayotgan korxonalarga:

xalqaro standartlarni joriy etish va ekologik sertifikatlash xarajatlarini qoplab berish tartibi joriy qilinsin;

uch yil davomida nufuzli xalqaro brendlar ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun zarur boʻlgan barcha xomashyolar mahalliylashtirish darajasini kamida 60 foizga yetkazish sharti bilan bojxona bojidan ozod etilsin;

nufuzli xalqaro brendlardan jalb qilingan texnolog, dizayner, marketolog kabi mutaxassislardan Oʻzbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma berilganligi uchun toʻlovlar undirilishi bekor qilinsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ul etib Savdo-sanoat palatasi (D. Vaxobov) hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Qudratov) belgilansin.

9. 2024-yil 1-maydan boshlab fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun yangi majburiy toʻlovlar va yigʻimlarni faqatgina qonunda belgilash amaliyoti kiritilsin.

10. Keng jamoatchilik bilan muhokamalarda bildirilgan takliflar asosida ishlab chiqilgan “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi oʻrinlarda — Davlat dasturi) doirasida quyidagilar:

2024-yilga moʻljallangan yoʻnalishlar kesimidagi amaliy tadbirlar rejalari 1 — 5-ilovalarga muvofiq;

2024-yilda yoʻnalishlar kesimida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari roʻyxatlari 6 — 10-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, yoʻnalishlar kesimida 2024-yilga moʻljallangan maqsadli koʻrsatkichlar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va oʻz vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-300-son qarori bilan tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

11. Har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yoʻnalishi doirasida 2024-yilda:

Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning bilimlarni baholash tizimi qoʻshimcha 1 000 ta umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida joriy qilinib, fanlardagi amaliy mashgʻulotlar ulushi 60 foizgacha oshirilsin;

6,7 million nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida yurak-qon tomir, qandli diabet, oʻpkaning surunkali obstruktiv kasalliklari xavfini aniqlash boʻyicha profilaktik koʻriklar tashkil etilsin;

7,5 ming nafar yoshlar zamonaviy kasblarga oʻqitilishi, xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari boʻyicha yuqori ball olgan 6 ming nafar yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilishi ta'minlansin;

10 million nafar aholini yugurish, futbol, voleybol, stol tennisi, shaxmat, milliy va belbogʻli kurash kabi sport turlari boʻyicha marafon va musobaqalarni tashkil etish orqali ommaviy sportga jalb qilish choralari koʻrilsin;

2024-yilda Parij shahrida oʻtkaziladigan Olimpiya va Paralimpiya oʻyinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun kamida 140 ta litsenziyani qoʻlga kiritish maqsadida 15 ta olimpiya va paraolimpiya markazida hamda Toshkent shahri, Andijon va Toshkent viloyatlaridagi 14 ta sport bazasida barcha zarur sharoitlar yaratilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib tegishincha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Sogʻliqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov), Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev), Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev), Sport vazirligi (A. Ikramov), Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi (O. Kasimov), Oʻzbekiston Milliy paralimpiya qoʻmitasi (M. Tashxodjayev) belgilansin.

12. Quyidagilar:

a) 2024/2025 oʻquv yilidan boshlab:

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining 1 tadan tumanida (shahrida) sinov tariqasida “Mening maktabim” loyihasi amalga oshirilsin hamda buning doirasida Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan maktablarga bazaviy hisoblash miqdorining 150 barobarida mablagʻ ajratilib, ushbu mablagʻ 5 — 11-sinf oʻquvchilari tanloviga koʻra, elektron doska, kompyuter, sport jihozlari, kitoblar kabi maktablar uchun zarur tovarlarga sarflanishi belgilansin;

umumiy oʻrta ta'lim muassasalari direktorlarini menejerlik boʻyicha sertifikatsiyalash tizimi joriy etilsin. Bunda, direktorlarga malakaviy talablar aniq belgilanib, ular har besh yilda bir marotaba attestatsiyadan oʻtkazilsin.

b) 2025-yil 1-yanvardan boshlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida ona tili va adabiyot hamda tarix fanlari boʻyicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan tegishli darajadagi sertifikatga ega boʻlgan va ushbu fanlardan dars beruvchi pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida har oylik qoʻshimcha ustama toʻlanishi belgilansin;

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ul etib Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) belgilansin.

13. 2024-yil 1-sentabrdan boshlab Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida umumiy oʻrta ta'lim maktablariga olis hududlardan qatnaydigan oʻquvchilar uchun autsorsing asosida bepul avtobuslar qatnovi yoʻlga qoʻyilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Qashqadaryo viloyati hokimligi (M. Azimov) va Surxondaryo viloyati hokimligi (U. Qosimov) belgilansin.

14. 2024-yil yakuniga qadar ehtiyojdan kelib chiqib, viloyatlar markazlari, shuningdek, Toshkent va Nukus shaharlarida kamida bittadan ogʻir gematologik, onkologik va klinik immunologik kasalliklari bor bemorlarga palliativ yordam koʻrsatuvchi xospislar tashkil etilsin.

Bunda, xospislarni tashkil etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va faoliyatiga doimiy koʻmaklashish loyihalari uchun Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan grantlar e'lon qilib borish amaliyoti yoʻlga qoʻyilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

15. Sogʻliqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov):

a) 2024-yil 1-mayga qadar:

2025-yildan boshlab katta yoshdagi aholi orasida yuqumli boʻlmagan kasalliklar xavfli omillarining tarqalganligini oʻrganish;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) bilan birgalikda 2026-yildan boshlab oʻtkaziladigan maktab oʻquvchilari orasida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning tarqalganlik hamda ularning psixologik holatini oʻrganish boʻyicha rejani belgilasin;

b) 2024-yil 1-dekabrga qadar Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov) bilan birgalikda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali sogʻliqni saqlash sohasida koʻrsatiladigan davlat xizmatlari sonini 17 tadan 24 taga yetkazsin va buning doirasida fuqarolarning onkologik, kardiologik va endokrinologik skriningdan oʻtishi natijasi, ularni davolash uchun ajratiladigan pullar toʻgʻrisida ma'lumot olish imkoniyatini yaratsin.

16. Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

2024-yilda nogironligi boʻlgan shaxslarni zamonaviy protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilish texnik vositalari bilan ta'minlashning yangi tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinsin;

2024-yil 1-sentabrdan boshlab pensiya tayinlashda bir vaqtning oʻzida shaxsiy jamgʻarib boriladigan pensiya hisobvaragʻidagi pulni olish bilan bogʻliq harakatlarni proaktiv tarzda amalga oshirish, nogironlikni belgilashda esa, nogironligi boʻlgan shaxslarga beriladigan imtiyozlar toʻgʻrisida xabardor qilish tartibi joriy etilsin;

2024-yil 1-dekabrdan boshlab yolgʻiz yashayotgan hamda yolgʻiz keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslarga Toshkent shahrida eksperiment tariqasida tegishli yoʻnalishdagi nodavlat tashkilotlar orqali Ijtimoiy himoya milliy agentligi mablagʻlari hisobidan ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish amaliyoti yoʻlga qoʻyilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M. Olloyorov) hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O. Fozilkarimov) belgilansin.

17. Ogʻir atletika boʻyicha milliy sport maktabining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida 2024-yilda ogʻir atletika boʻyicha barcha yosh toifasidagi sportchilar bilan individual ishlash tizimini yaratish hamda ularni professional tayyorgarligini tashkil etish uchun Chirchiq shahrida Ogʻir atletika markazi tashkil etilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Sport vazirligi (A. Ikramov), Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi (O. Kasimov) belgilansin.

18. Barqaror iqtisodiy oʻsish orqali aholi farovonligini ta'minlash yoʻnalishi doirasida:

yalpi ichki mahsulot oʻsish sur'ati 6 foizdan kam boʻlmagan darajada boʻlishini, investitsiyalar esa yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan kamida 30 foiz boʻlishini ta'minlash choralari koʻrilsin;

iqtisodiyot tarmoqlarida qiymati 18 milliard dollar boʻlgan 309 ta yirik loyihalar ishga tushirilsin;

yillik inflyatsiya darajasi 9 foizgacha va fiskal taqchillik 4 foizgacha boʻlishi ta'minlansin, keyinchalik inflyatsiya va Davlat budjeti taqchilligi koʻrsatkichlarini pasaytirish choralari koʻrilsin;

iqtisodiyot tarmoqlariga 275 trillion soʻm kredit resurslarini yoʻnaltirish, shu jumladan 41 trillion soʻmlik mikromoliya xizmatlari koʻrsatilishi ta'minlansin;

banklar tomonidan taqdim etiladigan kredit stavkalarini bozor mexanizmlari asosida 2-3 foiz bandga pasaytirish uchun zarur sharoitlar yaratilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Bosh vazir oʻrinbosari — J. Qoʻchqorov va Markaziy bank (M. Nurmuratov) belgilansin.

19. 2024-yil 1-apreldan boshlab davlat investitsiya dasturlari doirasida markazlashgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan yirik loyihalarga sanoat kooperatsiyasi talablari joriy etilsin.

Bunda, loyihalar doirasida mahalliy korxonalarda zarur mahsulotlarni oʻzlashtirish va xarid qilish tavsiya etiladigan mahsulotlar roʻyxati, mahalliy mutaxassislarni jalb qilish rejasi va ularga qoʻyiladigan talablar nazarda tutilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Qudratov) va Iqtisodiyot va moliya vazirligi (B. Xodjayev) belgilansin.

20. Respublikada “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish uchun qulay sharoitlarni yaratish va “yashil energiya” manbalari salmogʻini oshirish maqsadida:

a) 2024-yil 1-aprelga qadar:

“yashil energiya” sertifikatlari aylanmasi bozor tamoyillari asosida yoʻlga qoʻyilishi ta'minlansin;

xalqaro issiqxona gazi savdosi boʻyicha loyihalarni amalga oshirish tartibi tasdiqlansin;

b) 2024-yil 1-apreldan boshlab iqlim oʻzgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi (MRV) va ma'lumotlar bazasi bosqichma-bosqich yoʻlga qoʻyilsin;

v) 2024-yil yakuniga qadar xorijiy investorlar ishtirokida Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Namangan va Navoiy viloyatlarida umumiy quvvati 2 700 MVt boʻlgan 6 ta yirik quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirish ta'minlansin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov) va Energetika vazirligi (J. Mirzamaxmudov) belgilansin.

21. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A. Ortiqov) bir oy muddatda:

uch oydan ortiq muddat mobaynida ochiq savdolarda sotilmagan davlat aktivlarining boshlangʻich bahosini 50 foizgacha bosqichma-bosqich pasaytirish;

yer uchastkalari olti oy davomida sotilmaganda toʻlovning 15 foizini uch oy muddatda, qolgan qismini 10 yil muddatda boʻlib toʻlash imkoniyatini yaratish boʻyicha amaliy choralarni koʻrsin.

22. 2024-yil 1-apreldan boshlab chegara bojxona postlarida meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini rasmiylashtirish boʻyicha karantin, sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va veterinariya sohalaridagi nazorat funksiyalari bojxona xizmati organlariga oʻtkazilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ul etib Bojxona qoʻmitasi (A. Mavlonov) belgilansin.

23. Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatida ochiqlik darajasini keskin oshirish va korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish maqsadida 2024-yil 1-iyuldan boshlab davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori boʻlgan yirik soliq toʻlovchilar korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) holati toʻgʻrisida har yili 1-iyulga qadar hisobotni jamoatchilikka oshkor etish amaliyoti yoʻlga qoʻyilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Iqtisodiyot va moliya vazirligi (B. Xodjayev) va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A. Ortiqov) belgilansin.

24. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qoʻllab-quvvatlash, eksport hajmini koʻpaytirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-oktabrdagi “Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-5262-son qarorida nazarda tutilgan mahsulotlarga import bojxona bojining nol stavkasini qoʻllash muddati 2027-yil 1-yanvarga qadar uzaytirilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Iqtisodiyot va moliya vazirligi (A.Ya. Xaydarov) va Bojxona qoʻmitasi (A. Mavlonov) belgilansin.

25. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yoʻnalishi doirasida:

2024-yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar koʻchatlarini, qalamchalarini ekish, respublikada 444 ta yashil bogʻlar barpo etish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

2024-yil 31-dekabrga qadar suv kanallarini rekonstruksiya qilish ishlariga Davlat budjetidan qoʻshimcha ajratilgan 500 milliard soʻm hisobiga 1,5 ming kilometr sugʻorish tarmoqlarini betonlash ishlarini yakunlash choralari koʻrilsin.

*(25-bandning uchinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-74-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.05.2024-y., 06/24/74/0332-son)*

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib tegishincha Bosh vazir oʻrinbosari — A. Ramatov, Suv xoʻjaligi vazirligi (Sh. Xamrayev), Hisob palatasi (A. Boboyev) va Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov) belgilansin.

26. Mamlakatimizda chang boʻronlariga qarshi kurashish va ularning salbiy oqibatlarini yumshatish doirasida:

a) 2024-yil 1-martdan boshlab:

hududlarda chang boʻroni sodir boʻlayotganda va atmosfera havosida mayda dispers zarrachalari belgilangan normadan yuqori boʻlgani aniqlanganda aholini ogohlantirish, yurak-qon tomir va nafas yoʻllari kasalliklariga chalingan hamda sogʻligʻi havoning ifloslanishiga ta'sirchanligi yuqori boʻlgan boshqa fuqarolarni zarur profilaktik choralar toʻgʻrisida doimiy xabardor qilish amaliyoti yoʻlga qoʻyilsin;

oʻlchami 500 metr kvadrat va undan ortiq boʻlgan qurilish maydonlarida, unga kirib-chiqish yoʻllarida chang va qum zarrachalarining havoga koʻtarilishini bartaraf etish boʻyicha majburiy talablar joriy etilsin;

Toshkent shahrida yuk tashish uchun moʻljallangan, ruxsat etilgan toʻla vazni 10 tonnadan yuqori boʻlgan N2, N3, O4 toifaga kiruvchi avtotransport vositalarining harakati tigʻiz vaqt oraliqlarida taqiqlansin. Bunda, ushbu cheklovlar maxsus xizmat shu jumladan, kommunal xoʻjaligi, obodonlashtirish va Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yuk transporti vositalariga tatbiq etilmasligi belgilansin;

b) 2030-yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida “YEVRO — 5” va undan yuqori standartlariga muvofiq boʻlmagan avtomashinalar ekspluatatsiyasi bosqichma-bosqich cheklansin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib tegishincha Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov), Sogʻliqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov), Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi (B. Zakirov), Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov) va Transport vazirligi (I. Maxkamov) belgilansin.

27. Keng jamoatchilik vakillari va ekofaollarning ekologiyaga avtomobillar chiqindi gazlarining zararli ta'sirini kamaytirish uchun Toshkent shahrida har oyning bir ish kuni davomida avtomobillar harakatlanishini (jamoat transportlari, maxsus va shoshilinch yordam xizmatlaridan tashqari) qisqartirishga qaratilgan “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasini amalga oshirish toʻgʻrisidagi taklifi ma'qullansin.

Bunda, binosi Toshkent shahrida joylashgan barcha respublika va hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rahbar va boshqa xodimlari jamoat transportida ish joyiga kelishi orqali namuna koʻrsatib borsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov), Transport vazirligi (I. Maxkamov) va Toshkent shahar hokimligi (Sh. Umurzakov) belgilansin.

28. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yoʻnalishi doirasida 2024-yil 1-mayga qadar:

adashgan yoshlarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning hayotda oʻz oʻrnini topishiga koʻmaklashish maqsadida Yoshlar ittifoqi kafilligi asosida jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoshlarni probatsiya hisobidan chiqarish amaliyoti joriy etilsin va ularni profilaktik hisobga olish asoslari keskin qisqartirilsin;

yoʻl harakati qoidalari buzilishi holati yuzasidan yuboriladigan qaror va xabarnomalar boʻyicha Yoʻl harakati xavfsizligi xizmatiga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron murojaat qilish imkoniyati yaratilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev) va Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov) belgilansin.

29. Mahallani jamoatchilik va davlat organlari oʻrtasidagi tayanch boʻgʻinga aylantirish maqsadida:

2024-yil 1-apreldan boshlab “Tashabbusli budjet” doirasidagi loyihalarni tashabbuskorlar, mahalla raisi va faollarining ish sifati yuzasidan roziligi olinganidan keyingina foydalanishga qabul qilish tartibi joriy etilsin;

2024-yil 1-avgustga qadar fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga “Tashabbusli budjet” doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlaridan ma'lumotlar olish, mablagʻlarning oʻz vaqtida va toʻliq ajratilishini talab qilish hamda loyihalar amalga oshirilishini jamoatchilik tomonidan monitoring qilish imkoniyati yaratilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Iqtisodiyot va moliya vazirligi (A.Ya. Xaydarov) va Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi (K. Kuranbayev) belgilansin.

30. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari hamda amalga oshirilgan va rejalashtirilayotgan xarajatlar boʻyicha moliyaviy hujjatlarga asoslangan yillik va yarim yillik hisobotlarni aholi e'tiboriga tushunish uchun oson usulda oʻz rasmiy veb-saytida e'lon qilib borish amaliyotini yoʻlga qoʻysin.

31. “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yoʻnalishi boʻyicha Qurolli Kuchlar, sohaga mas'ul boshqa vazirlik va idoralarning kiberxavfsizlik hamda epidemiologik barqarorlikni ta'minlash boʻyicha salohiyatini keskin oshirish maqsadida:

kiberxavfsizlik infratuzilmasining muhim elementlari hisoblanuvchi axborot tizimlari attestatsiyasi va ekspertizasi uchun har bir vazirlik va idorada mas'ul shaxslar javobgarligi belgilansin;

mazkur yoʻnalishlarda kadrlar tayyorlash boʻyicha oʻquv dasturlari va oʻqitish metodikalarini zamonaviy tahdid va tajribadan kelib chiqqan holda takomillashtirish choralari koʻrib borilsin;

mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirish, mas'ul idoralarni zamonaviy texnika va tibbiyot apparaturalari bilan bosqichma-bosqich ta'minlash dasturi amalga oshirilsin;

fuqarolar shaxsiy ma'lumotlarining himoyasini kafolatli ta'minlash boʻyicha, shuningdek bank va toʻlov tizimlari uchun firibgarlikka qarshi va zamonaviy biometrik tizimlar joriy etilsin.

Mazkur bandning toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Mudofaa vazirligi (B. Kurbanov), Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov) va Markaziy bank (N. Sa'dullayev) belgilansin.

32. Quyidagilar:

Strategik islohotlar agentligi Adliya vazirligi, Hisob palatasi bilan birgalikda “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi doirasida yoʻnalishlar boʻyicha amaliy tadbirlar rejalari bajarilishini, maqsadli koʻrsatkichlarga erishilishini va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilishini tizimli monitoring qilib borsin;

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakati Davlat dasturining amalga oshirilishini, shu jumladan joylarga chiqib, jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda tanqidiy oʻrganib borsin va natijalari boʻyicha har oyda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritsin.

Davlat hokimiyati organlari, vazirlik va idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlari “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakatining mazkur band ijrosi boʻyicha faoliyatiga har tomonlama koʻmaklashib borsin.

33. Vazirlar Mahkamasi:

har oy yakuni boʻyicha Davlat dasturi ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritib borsin;

har chorak yakuni boʻyicha Davlat dasturida yuklatilgan vazifalarning oʻz vaqtida, toʻliq va sifatli bajarilishini Vazirlar Mahkamasining Rayosati yigʻilishida muhokama qilib borsin;

har yarim yilda Davlat dasturi ijrosi yuzasidan hisobotlarni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritib borsin.

34. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A. Djurabayev) va Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi (A. Koʻchimov) ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda muntazam ravishda:

"Oʻzbekiston — 2030" strategiyasini 2024-yilda amalga oshirish natijalari ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Internet tarmogʻida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishini;

"Oʻzbekiston — 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning borishi va natijalari toʻgʻrisidagi xolis va toʻliq ma'lumotlar aholiga tezkorlik bilan yetkazilishini ta'minlasin.

35. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Mazkur Farmon ijrosini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish boʻyicha Respublika komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida har chorakda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borilsin.

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2024-yil 21-fevral,
PF-37-son

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi
PF-37-son Farmoniga
1-ILOVA

## "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasining Har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yoʻnalishi boʻyicha 2024-yilga moʻljallangan

AMALIY TADBIRLAR REJASI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Vazifalar | Amaliy chora-tadbirlar | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. HAR BIR INSONGA OʻZ SALOHIYATINI ROʻYOBGA CHIQARISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH** | | | | | |
| **1-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning toʻliq qamrovini ta'minlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)* | | | | | |
| 1. | Maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 76 foizga yetkazish. | 1. 1 400 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi, shu jumladan oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.<br><br>2. Investitsiya dasturi doirasida 43 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish va 133 ta rekonstruksiya qilish orqali 5570 ta qoʻshimcha yangi quvvatlar yaratish.<br><br>3. 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi bilan qamrov darajasini 96 foizga yetkazish. | 2024-yil yakuniga qadar | Davlat budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>O. Fozilkarimov |
| 2. | Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuter guruhlarini tashkil etish. | 170 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida zamonaviy ta'lim planshetlari va sensorli ekranli interaktiv doskalardan iborat kompyuter guruhlarini tashkil etish uchun texnikalar xarid qilish. | 2024-yil yakuniga qadar | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga respublika budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>O. Fozilkarimov |
| **2-maqsad: Umumiy oʻrta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3. | Yangi maktablarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish hamda ularda zarur shart-sharoitlarni yaratish. | 518 ta maktabni rekonstruksiya qilish va 30 ta maktabni yangidan barpo etish orqali 175 ming o‘quvchi o‘rnini yaratish. | 2024-yil yakuniga qadar | Respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov,<br><br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br><br>X. Umarova |
| *Ijro uchun asosiy mas’ullar — Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova), “O‘quvta’limta’minot” DUK* | | | | | |
| 4. | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini mebel, o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari, sport anjomlari va texnik vositalar bilan ta’minlash. | 1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini birlamchi sport jihozlari va milliy musiqa cholg‘u asboblari bilan ta’minlash bo‘yicha manzilli dasturni ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2024-yil aprel | Respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |
| | | 2. Tasdiqlangan dasturga asosan birlamchi sport jihozlari va milliy musiqa cholg‘u asboblarini belgilangan tartibda xarid qilish. | 2024-yil yakuniga qadar | | |
| | | 3. Umumta’lim maktablaridagi 2 200 ta ma’nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash. | 2024-yil avgust | Respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — “O‘zsuvta’minot” AJ (D. Azimov)* | | | | | |
| 5. | Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi umumta’lim maktablarni toza ichimlik suvi bilan ta’minlash hamda umumta’lim maktablarining sanitariya-gigiyena infratuzilmasini bosqichma-bosqich ta’mirlash. | 1. Mahalliy hokimliklar tomonidan toza ichimlik suvi bilan ta’minlanmagan hamda ta’mirtalab sanitariya-gigiyena infratuzilmasi mavjud umumta’lim maktablarini qayta xatlovdan o‘tkazish. | 2024-yil mart | Respublika va mahalliy budjet mablag‘lari | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Qurilish va uy-joy kommunal vazirligi<br><br>B. Zokirov,<br><br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br><br>X. Umarova,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |
| | | 2. Xatlov natijasi asosida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va unga asosan zarur bo‘lgan mablag‘larni ajratish. | 2024-yil aprel | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ullar — Qashqadaryo viloyati hokimligi (M. Azimov) va Surxondaryo viloyati hokimligi (U. Qosimov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 6. | Olis va chekka hududlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish. | Olis va chekka hududlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun eksperiment tariqasida bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish.<br><br>1. Bunda:<br><br>tajriba-sinov tariqasida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida 100 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida olis hududlardan qatnaydigan o‘quvchilarni avtobuslar bilan maktabga qatnovini autsorsing asosida tashkil etish;<br><br>xalqaro tajribani o‘rgangan holda olis hududlardan o‘quvchilarning xavfsiz va qulay qatnovini autsorsing asosida tashkil etish tartibini ishlab chiqish;<br><br>autsorsing tizimi asosida bepul avtobus qatnovini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar uchun zarur mablag‘larni ajratish;<br><br>mazkur jarayonlar ustidan nazoratni olib borishga keng jamoatchilik vakillarini faol jalb qilish.<br><br>*Ijro uchun asosiy mas’ul — Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova)*<br><br>2. Eksperiment natijalari bo‘yicha ushbu amaliyotni boshqa hududlarda ham joriy etish yuzasidan asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqish. | 2024-yil sentabrdan boshlab | Mahalliy budjet mablag‘lari | Transport vazirligi<br><br>I. Maxkamov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| *Ijro uchun asosiy mas’ullar — Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova), “O‘quvta’limta’minot” DUK* | | | | | |
| 7. | Maktablarda o‘quv-laboratoriya xonalarini zarur o‘quv jihozlari bilan ta’minlash darajasini oshirish. | 1. Davlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining o‘quv-laboratoriya xonalarini o‘quv jihozlari bilan ta’minlanganlik holatini xatlovdan o‘tkazish.<br><br>2. O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, ularni zarur o‘quv jihozlari bilan to‘liq ta’minlash yuzasidan takliflarni shakllantirish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil may<br><br>2024-yil iyul | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>O. Fozilkarimov,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **3-maqsad: Umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova)* | | | | | |
| 8. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini amaliyotga kiritish. | 1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 131 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblarini yaratish.<br><br>2. O‘qituvchilarning yangi metodikalar bo‘yicha malakasini oshirib borish. | 2024-yil yakuniga qadar | Respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi |
| | | 3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarida kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan “soft skilz” ko‘nikmalariga bag‘ishlangan mavzular o‘tilishini yo‘lga qo‘yish yuzasidan takliflarni kiritish. | 2024-yil may | - | - |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 9. | Umumiy o'rta ta'lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish hamda ikkinchi xorijiy til va kasbni o'rgatishni kengaytirish. | 1. 2023-2024 o'quv yili yakunida respublika miqyosida 500 ta umumta'lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibi bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish.<br>2. Tahlillar natijasida yangi tartibni takomillashtirish va 2024-2025 o'quv yilidan boshlab yangi baholash tizimi joriy etiladigan maktablar sonini 1500 taga yetkazish. | 2024-yil iyun<br>2024/2025 o'quv yilidan boshlab | Respublika va mahalliy budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov,<br>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **4-maqsad: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)* | | | | | |
| 10. | Pedagoglarni xorijiy davlatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish. | 1. Tasdiqlangan reja asosida 100 nafar davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining pedagoglarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish yoki stajirovkaga yuborish uchun hududlar kesimida teng taqsimlangan holda saralab olish.<br>2. "El-yurt umidi" jamg'armasi ko'magida saralab olingan pedagoglarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish. | 2024-yil iyun<br>2024-yil yakuniga qadar | Vazirlikning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan | "El-yurt umidi" jamg'armasi<br>A. Bekmurodov,<br>Tashqi ishlar vazirligi<br>B. Saidov |
| 11. | Pedagoglarni ishga qabul qilish jarayonini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish, ularning darslarni o'z vaqtida va sifatli o'tishini qat'iy ta'minlash. | 1.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagog kadrlarni psixologik metodika va testlar orqali saralash mexanizmlarini ishlab chiqib, ularni joriy etish yuzasidan takliflar kiritish.<br>2. Maktablarda darslarni o'z vaqtida va yuqori saviyada o'tkazilishi, darslarning asossiz qoldirilishi holatlarining oldini olish choralarini ko'rish va dars jadvallariga amal qilinishini qat'iy ta'minlash. | 2024-yil 1-iyun<br>Doimiy | - | - |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)* | | | | | |
| 12. | Oliy ta'lim tashkilotlari pedagoglari faoliyati samaradorligini oshirish. | Ilg'or xorijiy tajriba asosida oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining reytingini yuritish tartibi yuzasidan takliflarni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil iyun | - | - |
| **5-maqsad: Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)* | | | | | |
| 13. | Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari qamrovini kengaytirish. | 1. Nodavlat umumta'lim tashkilotlari sonini 470 taga yetkazish.<br>2. Nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyatini tahlil qilib borish. | 2024-yil yakuniga qadar | Respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari |
| **6-maqsad: Professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 14. | Professional ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari tarkibiy sifatini yaxshilash, ularning malakasini ilg'or xorijiy tajriba asosida oshirish. | 1. Xorijiy tajribalar asosida malaka oshirish dasturlarini to'liq yangilash va masofaviy yoki aralash shakllardagi malaka oshirish kurslariga moslashtirish hamda elektron platformaga joylashtirish.<br><br>2. Pedagog kadrlarning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlari asosida pedagog kadrlarni malaka oshirish kurslari va metodik seminarlarga jalb etish.<br><br>3. Professional ta'limni rivojlantirish instituti malaka oshirish kurslariga kamida 5 nafar xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.<br><br>4. Buxoro, Samarqand, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida ishlab chiqarish ta'limi ustalarini malaka oshirish hududiy kurslarini tashkil etish.<br><br>5. Pedagog kadrlar faoliyatini baholash va yuqori natijalarni qayd etgan pedagoglar malaka toifasini oshirish hamda pedagoglar sifat tarkibini 30 foizga yetkazish. | 2024-yil noyabr | - | - |
| **7-Maqsad: Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ullar — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O. Fozilkarimov)* | | | | | |
| 15. | Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish. | 1. Oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlarini hisobga olgan holda kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish parametrlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish.<br><br>2. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil may | Davlat budjeti mablag'lari,<br><br>to'lov-kontrakt asosidagi mablag'lar | Tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar |
| 16. | Nodavlat va respublikada faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlariga kunduzgi ta'lim shaklida davlat buyurtmasi qabul parametrlarini oshirish. | 1. Respublikada faoliyat yuritayotgan nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va filiallarining qabul parametrlarini tahlil etish.<br><br>2. Nodavlat va respublikada faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida davlat grantlari bo'yicha kadrlar tayyorlash o'rnini 1200 taga yetkazish (20% ga oshirish) yuzasidan takliflarni shakllantirish.<br><br>3. Respublikada faoliyat olib borayotgan nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida davlat granti asosida o'qitishni faqat kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshirish bo'yicha taklif kiritish. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil may<br><br>2024-yil may | Davlat budjeti mablag'lari doirasida | Tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 17. | Oliy ta’lim muassasalarini dunyoning eng nufuzli “TOP-1 000” oliy ta’lim tashkilotlari reytingiga kiritish. | 1. Oliy ta’lim tashkilotlari ilmiy pedagogik faoliyat ko‘rsatkichlarini xalqaro nufuzli reyting agentliklari talablariga muvofiqligini tahlil qilish.<br><br>2. Xalqaro nufuzli reyting agentliklari ekspertlari ishtirokida respublika oliy ta’lim tashkilotlari reyting ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha master-klass, seminar-treninglar tashkil etish. | 2024-yil yakuniga qadar | Tegishli oliy ta’lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan | Oliy ta’lim tashkilotlari |
| 18. | Oliy ta’lim tashkilotlarining ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish. | 1. Xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari bilan ta’lim dasturlarini baholash maqsadida shartnomalar tuzish.<br><br>2. Oliy ta’lim tashkilotlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish, akkreditatsiya xulosalari asosida ular faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish. | 2024-yil dekabr | Tegishli oliy ta’lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan | Oliy ta’lim tashkilotlari |
| 19. | Ta’lim tizimini xalqaro mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, texnologik jarayonlarga mos tashkil etish, oliygohlardagi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. | 1.Oliygohlarda amaliyotga yo‘naltirilgan mutaxassislarni tayyorlash muddatlari va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni qayta ko‘rib chiqish, ta’lim dasturlarini dunyoning nufuzli universitetlari andozasi asosida takomillashtirish. Bunda:<br><br>bakalavriatdagi ta’lim tiziminito‘liq qayta ko‘rib chiqish va mazmun jihatidan yaqin bo‘lgan yo‘nalishlar birlashtirilib, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish;<br><br>buxgalteriya, logistika, marketing, IT, dizayn, turizm kabi bakalavriat yo‘nalishlarida o‘qish muddatini qayta ko‘rib chiqish;<br><br>bio-muhandislik, nano-texnologiya, IT injiniring, urbanistika, yashil energetika kabi istiqbolli yangi mutaxassisliklargao‘qitishni yo‘lga qo‘yish.<br><br>2. Bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanganligini maxsus platforma orqali doimiy onlayn monitoring qilish amaliyotini takomillashtirish. | 2024-yil iyul | - | - |
| 20. | “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish. | 1. “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish.<br><br>2. Qo‘shma ta’lim dasturi (ikki diplomli tizim) asosida kadrlar tayyorlash bo‘yicha xorijiy universitetlar bilan kelishuvlarga erishish.<br><br>3. Hamkor universitetlar bilan 10 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil aprel<br><br>2024-yil oktabr | - | Oliy ta’lim tashkilotlari |
| **8-maqsad: Oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 21. | Muhandislik sohasida kadrlar tayyorlaydigan salohiyatli oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash. | 1. Muhandislik-texnik sohasidagi 33 ta davlat oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini kompleks tahlil qilish.<br><br>2. Muhandislik-texnik sohasidagi oliy ta’lim muassasalarida:<br><br>kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari va qabul parametrlarining soha tarmoqlarining kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojlariga muvofiqligini;<br><br>moddiy-texnika bazasi (zamonaviy laboratoriyalar va asbob-uskunalarning mavjudligi) holatini;<br><br>amaldagi o‘quv dasturlarining ishlab chiqarish texnologiyalari va ish beruvchilarning talablariga muvofiqligini;<br><br>talabalarning sohadagi ishlab-chiqarish tashkilotlarida amaliy bilim olishini baholash.<br><br>3. O‘rganish natijalari bo‘yicha asoslangan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil aprel — iyun<br><br>2024-yil sentabr | Tegishli oliy ta’lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari,<br><br>tarmoq ishlab chiqarish korxonalari mablag‘lari hisobidan | Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamaxmudov,<br><br>Transport vazirligi<br><br>I. Maxkamov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>tarmoq ishlab chiqarish korxonalari |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)* | | | | | |
| 22. | Talabalarga qulay shart-sharoitlar yaratish uchun oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash. | Oliy ta’lim muassasalarida talabalar turar joylarini qurish bo‘yicha loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish.<br><br>2024-yil yakuniga qadar oliy ta’lim muassasalarida talabalar turar joylarini yaratish. | 2024-yil dekabr | Tadbirkorlar mablag‘lari hisobidan<br><br>(davlat-xususiy sheriklik),<br><br>Davlat budjetida mazkur maqsadlarga ajratilgan mablag‘lar,<br><br>oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **9-maqsad: Fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo‘nalishlar bilan boyitish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)* | | | | | |
| 23. | Dunyoda tan olingan ilmiy maktablar bilan hamkorlikda matematika, biologiya, kimyo, geologiya, fizika, epidemiologiya, seysmologiya, bioxilma-xillik kabi yo‘nalishlarda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirish. | Fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ilmiy loyihalar tanlovini o‘tkazish tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil iyun | Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari uchun ajratiladigan mablag‘lar | Fanlar akademiyasi<br><br>B. Yuldashev,<br><br>Sog‘liqni saqlash vazirligi<br><br>A. Xudayarov,<br><br>Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi<br><br>B. Islomov |
| | | Dunyoda tan olingan ilmiy maktablar bilan hamkorlikda matematika, biologiya, kimyo, geologiya, fizika, epidemiologiya, seysmologiya, bioxilma-xillik kabi yo‘nalishlarda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun kompleks ilmiy-tadqiqot loyihalarini saralab olishni tashkil etish. | 2024-yil dekabr | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 24. | Fundamental tadqiqotlar kompleks ilmiy dasturlar doirasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ilmiy-tadqiqot loyihalar yo‘nalishiga mos yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. | Fundamental tadqiqotlar kompleks ilmiy dasturlar doirasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ilmiy-tadqiqot loyihalar yo‘nalishiga mos yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan muzokaralar olib borish. | 2024-yil mart | - | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>K. Sharipov,<br>Sog‘liqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov,<br>Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi<br>B. Islomov |
| | | Muzokaralar natijasiga ko‘ra fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasiga yetakchi xorijiy ilmiy tashkilot, ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasasidan (shu jumladan u yerda faoliyat yurituvchi vatandosh olim) hamrahbar tayinlash. | 2024-yil mart | - | Sog‘liqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov,<br>Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi<br>B. Islomov |
| | | Xorijiy xamrahbar bilan birgalikda fundamental ilmiy-tadqiqot loyiha talabnomasini shakllantirish. | 2024-yil avgust | - | Sog‘liqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov,<br>Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi<br>B. Islomov |
| | | Shakllantirilgan ilmiy-tadqiqot loyiha talabnomasini ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida amalga oshirish choralarini ko‘rish. | 2024-yil dekabr | - | Sog‘liqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov,<br>Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi<br>B. Islomov |
| 25. | O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi bo‘yicha birlamchi yozma manbalar asosida ta’lim berish hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish. | 1. Ishchi guruh tuzgan holda manbashunoslik yo‘nalishida kadrlar tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalari dasturlarini o‘rganish va tahlil qilish.<br>2. Manbashunoslik yo‘nalishida kadrlar tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalari talabalarining Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida amaliyotlarini tashkil etish, talabalarni institutning yetakchi mutaxassislariga biriktirish.<br>3. Manbashunoslik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida xorijdagi fondlarda hamda aholidagi mavjud qadimiy va nodir qo‘lyozmalarni o‘rganish. | 2024-yil yakuniga qadar | Respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>K. Sharipov,<br>Fanlar akademiyasi<br>B. Yuldashev |
| **10-maqsad: Iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh. Rajabbayev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 26. | Joriy yilda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlariga ajratilgan mablag‘larga nisbatan sotilgan innovatsion mahsulotlar hajmini 10 foizga yetkazish. | 1. Tarmoq tashkilotlarining innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talabini tahlil qilish.<br><br>2. Tahlil natijalariga ko‘ra innovatsion ishlanmalar taqdimotlarini tashkil etish.<br><br>3. Tayyor innovatsion mahsulotlar ko‘rgazmalarini tashkil etish hamda sotuv shartnomalarini imzolash. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil avgust<br><br>2024-yil noyabr | Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 27. | Innovatsion faoliyat infratuzilma subyektlari (texnologik parklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlar, biznes-inkubatorlar va akselerator) sonini jami 55 taga yetkazish. | 1. Hududlarda tashkil etilgan yoshlar texnoparklari faoliyatini takomillashtirish uchun xorijiy tajribani o‘rganish.<br><br>2. Yoshlar texnoparklarida biznes akselerator dasturlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish.<br><br>3. Yoshlar texnoparklarida InnoX biznes inkubatorlarini tashkil qilish. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil iyun<br><br>2024-yil noyabr | tashabbuskorlar mablag‘lari | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)* | | | | | |
| 28. | Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish loyihalari asosida ilmiy tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlari o‘rasida tuzilgan shartnomalarni 280 taga yetkazish. | 1. Tijoratlashtirish loyihalarini moliyalashtirish tartibini belgilovchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br><br>2. Innovatsion hududlarda ilmiy ishlanmalarni joriy etishda istiqbolli tadbirkorlik subyektlarining bazasini shakllantirish.<br><br>3. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan ilmiy tashkilotlar bilan o‘zaro shartnomalarning tuzilishiga erishish. | 2024-yil iyun<br><br>2024-yil avgust<br><br>2024-yil dekabr | - | Innovatsion rivojlanish agentligi<br><br>Sh.Rajabbayev,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **11-maqsad: Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh. Rajabbayev)* | | | | | |
| 29. | Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar uchun ajratiladigan oliy ta’limdan keyingi ta’lim kvotalari sonini bosqichma-bosqich oshirib borish. | 1. Davlat budjeti hisobidan doktorantura uchun qabul kvotalariga talabnomalarni qabul qilish.<br><br>2. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda (doktorantura, magistratura) xorijiy tilni bilish darajasini sohalarning xususiyatidan kelib chiqib, tabaqalashtirish yuzasidan asoslangan takliflar ishlab chiqish.<br><br>3. Kelib tushgan talabnomalarni umumlashtirib, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish.<br><br>4. Davlat budjeti hisobidan doktorantura uchun qabul kvotalarini ilmiy va ta’lim tashkilotlari kesimida tasdiqlash. | 2024-yil iyun<br><br>2024-yil iyun<br><br>2024-yil iyul<br><br>2024-yil sentabr | Respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Tasarrufida ilmiy va ta’lim tashkilotla�i mavjud vazirlik idoralar,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Fanlar akademiyasi<br><br>B. Yuldashev |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 30. | Xorijiy tashkilotlarga qisqa muddatli stajirovkalarga yuboriladigan yosh tadqiqotchilarning ulushini 47 foizga yetkazish. | 1. OTM va ITMlar tomonidan xorijiy tashkilotlar bilan qisqa muddatli stajirovkalar bo‘yicha hamkorlik kelishuvlarini yo‘lga qo‘yish.<br><br>2. Yosh olimlarni qisqa muddatli stajirovkaga yuborish bo‘yicha maqsadli tanlovlar e’lon qilish.<br><br>3. Yosh olimlarni saralash va yetakchi xorijiy tashkilotlarga qisqa muddatli stajirovkaga yuborish. | 2024-yil may<br><br>2024-yil iyul<br><br>2024-yil davomida | Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari | Tegishli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari |
| 31. | Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga qabul qilish tartibini takomillashtirish. | 1.Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga qabul qilish tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br><br>2. Oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi orqali barcha izlanuvchilar va ilmiy rahbarlarni qamrab olish.<br><br>3. Ilmiy faoliyatni amalga oshiruvchilarni indentifikatsiya qilishning yagona tizimini joriy qilish asosida ularning ilmiy faoliyatiga doir ma’lumotlarni to‘plab borish imkoniyatini yaratish. | 2024-yil iyul<br><br>2024-yil sentabr<br><br>2024-yil davomida | Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi | Tegishli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari |
| 32. | Innovatsion faoliyat sohasidagi startaplarni akseleratsiya dasturidan o‘tkazish orqali moliyalashtirishning yangi tizimini joriy etish. | 1. Innovatsion faoliyat sohasidagi startap loyihalarini moliyalashtirish tartibini belgilovchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br><br>2. Maxsus platforma orqali kelib tushgan startaplarni akseleratsiyadan o‘tkazish hamda saralash.<br><br>3. Akseleratsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan startap loyihalarni moliyalashtirish. | 2024-yil iyul<br><br>2024-yil oktabr<br><br>2024-yil dekabr | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi,<br><br>Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari |
| **12-maqsad: Barcha yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Fanlar akademiyasi (B. Abduxalimov)* | | | | | |
| 33. | Vatanimizning yaqin tarixi, xususan, jadidchilik harakati, Turkiston muxtoriyati haqida ishonchli ma’lumotlar yetkazilishini ta’minlash. | “Jadidlar, Turkiston muxtoriyati va milliy matbuot” tahliliy-hujjatli to‘plamini tayyorlash.<br><br>Bunda, jadidlarning milliy davlatchilikni tiklash yo‘lidagi qarashlari va kurashlari, Turkiston muxtoriyatining paydo bo‘lishi, faoliyati, tugatilishiga oid tarixiy jarayon birlamchi davriy manba — milliy matbuot negizida tahlil etib beriladi hamda tegishli hujjatlar izohlari bilan e’lon qilinadi. | 2024-yil dekabr | Tarix institutiga Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar | FA Tarix instituti<br><br>Azamat Ziyo |
| **13-maqsad: Aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 34. | Aholi o'rtasida surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlash va ular bilan kasallanish holatlarini keskin kamaytirish. | 1. 18 — 40 yoshli 12,6 mln nafar aholini profilaktik ko'rikdan o'tkazish va natijalariga ko'ra fuqarolarni sog'lomlashtirish.<br><br>2. Xavf guruhiga mansub aholini reja asosida flyuorografiya tekshiruvlaridan o'tkazish. | 2024-yil dekabr | - | - |
| 35. | Aholining yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olish, ularning xavf omillari, erta aniqlash va davolash bo'yicha xabardorligini oshirish. | Aholining yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olish bo'yicha xabardorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda:<br><br>aholi uchun yuqori reytingli telekanallar orqali TV ko'rsatuvlarini va boshqa OAVda munozaralarni haftasiga kamida 1-marta muntazam ravishda namoyish etish va ularning natijalarini tahlil qilish;<br><br>aholi uchun qisqa ijtimoiy video roliklar yaratish va ularni yuqori reytingli ko'rsatuv, seriallar namoyishi vaqtida efirga uzatish;<br><br>sog'lom turmush tarzi haqida alohida teleko'rsatuv tayyorlash va doimiy ravishda efirga uzatish;<br><br>aholiga sog'lom turmush tarzi olib borish bo'yicha doimiy ma'lumot berish uchun (interaktiv) elektron platforma (mobil ilova) ishlab chiqish va SSV veb-saytida alohida sahifa ishga tushirish | 2024-yil mart | Hisob-kitoblarga ko'ra | Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi<br><br>A. Xodjayev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)* | | | | | |
| 36. | Onkologik kasalliklar keltirib chiqaruvchi mahalliy omillarni tahlil qilish. | Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan pestitsid va gerbitsidlarning, ichimlik suvi va onkologik kasalliklar kelib chiqishiga bog'liqligini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot o'tkazish. | 2024-yil iyul | Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari uchun ajratiladigan mablag'lar | Qishloq xo'jaligi vazirligi<br><br>I. Abduraxmonov |
| **14-maqsad: Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)* | | | | | |
| 37. | Budjet tashkilotlari tomonidan fuqarolarga xizmatlarni ko'rsatishda elektron to'lov tizimlaridan keng foydalanishni ta'minlash. | Sog'liqni saqlash va sog'lomlashtirish muassasalarini elektron to'lov tizimlariga ulash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.<br><br>Bunda, ko'rsatilgan xizmatlar uchun naqd pul shaklida amalga oshirilgan to'lovlar belgilangan muddatda bank hisobraqamiga topshirilmaslik holatlari aniqlangan taqdirda, muassasa rahbari, bosh hisobchisi va kassirlar mas'uliyatini oshirish bo'yicha javobgarlik choralarini kuchaytirishni nazarda tutish. | 2024-yil aprelga qadar | Vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>O. Fozilkarimov,<br><br>Soliq qo'mitasi<br><br>Sh. Kudbiyev |
| **15-maqsad: Bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 38. | Bolalar orasida ommaviy va selektiv skrining turlarini 36 taga yetkazish.<br><br>Irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalarni dori vositalari, tibbiy buyumlar va shifobaxsh ozuqalar bilan 100 foiz ta'minlash.<br><br>Bolalarda irsiy kasalliklar bo'yicha selektiv skrining tekshiruvlar turlarini 4 taga yetkazish. | 1. 3 — 18 yoshli 9,8 mln nafar bolalarni onkogematologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha ommaviy va selektiv skriningdan o'tkazish.<br><br>2. 900 ming nafar chaqaloqlarni tug'ma gipotireoz, fenilketonuriya kasalliklarini aniqlash bo'yicha neonatal skriningdan o'tkazish.<br><br>3. 6 ta lizosomal (Goshe, Pompe, Fabri, Krabbe, A va V turdagi Nimmana-Pika kasalliklari hamda I tipi) kasalliklarga ko'rsatma asosida xavf guruhiga kiruvchi 15 ming nafar chaqaloq va bolalarda har yili selektiv skrining o'tkazish.<br><br>4. 229 ta tug'ruq muassasalarida yangi tug'ilgan chaqaloqlarni eshitish qobiliyatini aniqlash bo'yicha audioskriningdan o'tkazish. | Tarmoq rejasiga muvofiq | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida | - |
| **16-maqsad: Onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)* | | | | | |
| 39. | Tug'ish yoshidagi va homilador ayollarga hamda bolalarga 7 turdagi vitaminlar, yod va foliy kislotasini bepul tarqatish ishlari samaradorligini oshirish.<br><br>Tug'ish yoshidagi ayollarni temir va foliy kislotasi bilan 100 foiz ta'minlash. | Quyidagilar:<br><br>1 mln nafar homilador va 1,5 mln nafar bola emizuvchi ayollarni yod preparati bilan;<br><br>5,9 mln nafar 35 yoshgacha tug'ish yoshidagi ayollarni temir va foliy kislotasi preparati bilan bepul ta'minlash. | 2024-yil dekabr | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida va xalqaro moliya institutlari mablag'lari | - |
| 40. | Bolalarning sog'lom ovqatlanishini ta'minlash orqali ratsional o'sishi va rivojlanishi, aqlan barkamol bo'lib shakllanishini ta'minlash. | 1. 6 — 23 oylik bo'lgan jami 1,2 mln nafar bolani mikronutriyent kukuni bilan bepul ta'minlash.<br><br>2. 6,5 mln nafar 2 — 10 yoshdagi bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo'yicha maxsus preparatlar bilan bepul ta'minlash.<br><br>3. Mazkur maxsus preparatlarning yaroqlilik muddati va sifat sertifikatlarini ularni qabul qiluvchi bolalar ota-onalariga havola etib borish. | Doimiy | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida | - |
| 41. | Koxlear implantatsiya operatsiyasi o'tkazgan bolalarda nutq protsessorlarini almashtirish. | 125 nafar bolalarda nutq protsessorlarini almashtirish. | 2024-yil dekabr | Sog'liqni saqlash vazirligining rivojlantirish dasturlariga ajratilgan mablag'lar,<br><br>Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari | - |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 42. | Boshqariluvchi yuqumli kasalliklar bo'yicha epidemiologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida profilaktik emlash tadbirlarini izchil amalga oshirish. | 12 mln nafar bolani 13 turdagi vaksinalar bilan boshqariluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash. | 2024-yil yakuniga qadar | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar | - |
| **17-maqsad: Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va o'lim ko'rsatkichini kamaytirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)* | | | | | |
| 43. | Xavf guruhiga mansub bo'lgan aholini onkologik kasalliklar bo'yicha skrining tekshiruvlaridan o'tkazish, xavfli o'sma kasalliklaridan 1 yilgacha o'lim ko'rsatkichini 13,8 foizdan yuqori bo'lmasligiga erishish. | 1. 35 — 55 yoshdagi ayollarni har 3 yilda 1-marta bachadon bo'yni saratoniga hamda 45 — 65 yoshdagi ayollarni 2 yilda 1-marta ko'krak bezi saratonini erta aniqlash bo'yicha 3 mln nafar aholini skriningdan o'tkazish hamda ommaviy onkoskrining tekshiruvini joriy etish.<br>2. Onkologik kasalliklarni erta bosqichlarda aniqlash maqsadida birlamchi tizim shifokorlarni "Onkoogohlik" bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirish.<br>3. Xavfli o'sma kasalligi aniqlangan bemorlarni davolash samaradorligini oshirish. | 2024-yil dekabr | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar | - |
| 44. | Maqsadli guruhdagi ayollarni bachadon bo'yni saratoni va ko'krak bezi saratoni skrining dasturlari bilan qamrov darajasini oshirish. | 1. Skrining registr va kanser registrlarni amaliyotga tatbiq etish.<br>2. Bachadon bo'yni saratoni skriningi va ko'krak bezi saratoni skriningi klinik standartini tasdiqlash.<br>3. Ko'krak bezi saratonini erta aniqlash tizimini joriy qilish.<br>Bunda:<br>tuman tibbiyot birlashmalarini 14 ta mammograf uskunasi bilan jihozlash va ularni respublika yagona riding tizimiga integratsiya qilish;<br>mobil va statsionar mammograflar 2 ta smenada ishini tashkil etish uchun 4 ta vrach radiolog va 175 ta rentgen-laborantlar uchun shtat birliklar ajratish choralarini ko'rish.<br>4. Yirik shaharlarda saraton bilan kasallangan ayollar uchun o'zaro yordam guruhlarini tashkil etish. Saraton bilan kasallangan ayollar uchun ijtimoiy xodimlar tomonidan keys menejment va onkopsixologlar xizmati loyihalarini tajriba sinovini viloyat onkologik markazlari (Toshkent) bazasida o'tkazish.<br>5. Xususiy klinikalar tomonidan mammografiya tekshiruvi bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligiga hisobot berishni yo'lga qo'yish. | 2024-yil davomida | Hisob-kitoblarga ko'ra, Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | Strategik islohotlar agentligi<br>B. Raxmatov,<br>Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br>S. Abdullayev,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>O. Fozilkarimov,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov |
| **18-maqsad: Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 45. | Profilaktik ko‘rik va skrining tekshiruvlari natijasida aniqlangan kasalliklar bo‘yicha sog‘lomlashtirish choralarini ko‘rish, yuqumli bo‘lmagan kasalliklarni erta aniqlash darajasini 55 foizga yetkazish. | 1. 6,7 mln. nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida eng ko‘p uchraydigan yurak qon-tomir, qandli diabet, o‘pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari xavfini aniqlash maqsadida profilaktik ko‘riklarni o‘tkazish.<br><br>2.Kasallik aniqlangan fuqarolarni individual sog‘lomlashtirish choralarini ko‘rish. | Tarmoq rejasi asosida | - | - |
| **19-maqsad: Sog‘lom va faol keksalikni ta’minlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — O‘zbekiston mahallalari uyushmasi (K.Kuranbayev)* | | | | | |
| 46. | Katta yoshdagi aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi bo‘yicha individual va ommaviy targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish. | 1. Keksa yoshdagi aholining kun tartibini to‘g‘ri tashkillashtirish, jismoniy faolligi va kasalliklar profilaktikasi bo‘yicha targ‘ibot materiallarini tarqatish va ommaviy axborot vositalarida yoritish.<br><br>2.Katta yoshdagi aholi orasida skandinavcha yurish va ularga mos boshqa sport turlarini joriy qilish, “Keksalik gashti” shiori ostida yengil sport musobaqalarini o‘tkazib borish. | 2024-yil fevral-mart<br><br>2024-yil aprel-noyabr | “Nuroniy” jamg‘armasi mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi<br><br>A. Xudayarov,<br><br>Sport vazirligi<br><br>A. Ikramov |
| **20-maqsad: Aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)* | | | | | |
| 47. | Aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali ortiqcha vaznga ega va semizligi mavjud aholi ulushini kamaytirib borish, shuningdek, anemiya va ichak infeksiyalari bilan kasallanish darajasini kamaytirish. | 1. Aholiga o‘z sog‘lig‘i va ovqatlanishini nazorat qilish va to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha mobil ilova yaratish.<br><br>2. Har bir xavf guruhi va kasallik turlari uchun parhez ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.<br><br>3. Yoshi, tana tuzilishi, turmush tarzi va kasalliklarga moyilligidan kelib chiqib, kattalar va keksalar uchun to‘g‘ri ovqatlanish, sog‘lomlashtirish mashqlari va gigiyena qoidalari to‘plamini yaratish. | 2024-yil dekabr<br><br>2024-yil iyul<br><br>2024-yil dekabr | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida | Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi<br><br>B. Yusupaliyev,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 48. | Xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo‘yicha tahlillar o‘tkazadigan laboratoriyalar sonini 20 taga yetkazish. | 1. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tarkibiga kiruvchi muassasalardagi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo‘yicha 9 ta laboratoriyani xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazishga tayyorlash.<br><br>2. Akkreditatsiya talablariga javob beradigan laboratoriyalar tomonidan ariza berilishini va akkreditatsiyadan o‘tishini ta’minlash. | 2024-yil fevral — iyun<br><br>2024-yil iyul — dekabr | - | Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi<br><br>B. Yusupaliyev |
| **21-maqsad: Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 49. | Yagona elektron tibbiyot tarmogʻini shakllantirishni davom ettirish, raqamli texnologiyalar joriy etilgan tibbiyot muassasalari ulushini 70 foizga yetkazish. | 1. Tizimda mavjud tarmoqlarni xatlovdan oʻtkazish.<br><br>2. Xatlov ma’lumotlari asosida tizimning yagona tarmoq infratuzilmasini yaratish boʻyicha loyiha hujjatlarni ishlab chiqish.<br><br>3. Loyiha hujjatlarni oʻrnatilgan tartibda vakolatli organlardan ekspertizadan oʻtkazish.<br><br>4. Loyiha xarajat manbalarini aniqlash, 3 600 dan ortiq texnik qurilma va litsenziyalar xarid qilish.<br><br>5. Qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishni boshlash. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil aprel<br><br>2024-yil iyun<br><br>2024-yil iyul<br><br>2024-yil oktabr | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablagʻlar,<br><br>grant va kredit mablagʻlar | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |
| | | 6. Hududlar darajasidagi shifoxonalarni elektron yoʻllanma tizimiga ulash hamda bu tizimda xususiy shifoxonalar ishtirokini kengaytirish boʻyicha choralar koʻrish. | 2024-yil iyun | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablagʻlar | - |
| **22-maqsad: Professional ijtimoiy xizmatlarni koʻrsatish tizimini tubdan takomillashtirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M. Olloyorov)* | | | | | |
| 50. | Oʻzgalar parvarishiga muhtoj boʻlgan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish tizimini takomillashtirish. | 1. Ijtimoiy himoya qilish strategiyasiga parvarishlash iqtisodiyoti boʻyicha ustuvor maqsad kiritish.<br><br>2. Parvarishlash iqtisodiyotining alternativ modellar konsepsiyasini ishlab chiqish. | 2024-yil oktabr | - | Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| 51. | Yolgʻiz yashayotgan hamda yolgʻiz keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslarga nodavlat tashkilotlar orqali ijtimoiy xizmatlarni (kunduzgi qatnov, transport xizmati, uyda koʻrsatiladigan ijtimoiy xizmatlar, boshpana (shelter) va boshqa) koʻrsatish. | Yolgʻiz yashayotgan hamda yolgʻiz keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslarga Toshkent shahrida eksperiment tariqasida nodavlat tashkilotlar orqali ijtimoiy xizmatlarni koʻrsatish loyihasini amalga oshirish. | 2024-yil noyabr | - | Toshkent shahar hokimligi<br><br>Sh. Umurzakov,<br><br>Transport vazirligi<br><br>I. Maxkamov |
| 52. | Ijtimoiy himoya qilish tizimi orqali har bir mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini toʻliq qamrab olish. | 1. Har bir mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini toʻliq qamrab olish maqsadida, sinov tariqasida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va professional ijtimoiy xodimlar faoliyati yoʻlga qoʻyilayotgan 180 ta tuman (shaharlar)da oila soni, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlariga asosan ijtimoiy xodimlarni “hudud — uchastka — mahalla” tamoyili asosida biriktirilishini ta’minlash.<br><br>2. Ogʻir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarga kompleks ijtimoiy yordamlarni koʻrsatishni keys-menejment tizimi orqali bosqichma-bosqich yoʻlga qoʻyish. | 2024-yil iyun | - | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov,<br><br>Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>B. Musayev |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 53. | Ijtimoiy himoya tizimi xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash orqali inson kapitalini rivojlantirish hamda professional ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish. | 1. Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha onlayn ta’lim platformasini ishga tushirish.<br><br>2. Yolg‘iz yashaydigan hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni parvarish qilish bo‘yicha ijtimoiy himoya tizimi xodimlari uchun o‘qitishni tashkil etish. | 2024-yil iyun | - | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov,<br><br>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>B. Musayev |
| **23-maqsad: Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Bilim va malakalarni baholash agentligi (M. Karimov)* | | | | | |
| 54. | Ko‘zi ojiz shaxslarga xorijiy tillarni o‘rganishda qulay va maqbul muhitni yaratish. | 1. Chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovlari bo‘yicha ko‘zi ojiz (I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek, nogironligi bo‘lgan bolalar) shaxslar uchun alohida format ishlab chiqish.<br><br>2. Ko‘zi ojiz shaxslar uchun ishlab chiqilgan format asosida test topshiriqlarini shakllantirish va aprobatsiyadan o‘tkazish.<br><br>3. Ko‘zi ojiz shaxslar uchun ishlab chiqilgan format asosida chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovlarini amaliyotga joriy etish. | 2024-yil may<br><br>2024-yil noyabr<br><br>2024-yil dekabr | - | - |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M. Olloyorov)* | | | | | |
| 55. | Nogironligi bo‘lgan shaxslarni sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish. | 1. "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalariga muhtoj shaxslar, ularning mazkur vositalarga bo‘lgan ehtiyojlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar reyestrini yuritish.<br><br>2. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga davlat tomonidan kafolatlangan sifatli, zamonaviy protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalarining ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish.<br><br>3. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga sifatli va zamonaviy protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalarini erkin xarid qilish imkoniyatini beruvchi elektron vaucher tizimini joriy qilish. | 2024-yil iyun<br><br>2024-yil aprel<br><br>2024-yil avgust | Ijtimoiy himoya milliy agentligi mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi<br><br>A. Xudayarov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>O. Fozilkarimov,<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |
| 56. | Ijtimoiy xizmat va yordamlarni ko‘rsatuvchi reabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish. | 1.Aholining yashash joyiga yaqin hududlarda muqobil shakldagi ko‘p funksiyali va keng qamrovli reabilitatsiya markazi faoliyati konsepsiyasini ishlab chiqish.<br><br>2.Davlat-xususiy sheriklik asosida nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish konsepsiyasini ishlab chiqish. | 2024-yil noyabr | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>O. Fozilkarimov |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 57. | Nogironligi bo‘lgan shaxslarga munosib ish o‘rinlari yaratish orqali ular bandligini ta’minlashni 2 barobarga oshirish. | Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat bozorida ishtirokini tahlil qilish asosida ularning bandligini ta’minlashga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish uchun ijtimoiy buyurtma loyihalarini amalga oshirish. | 2024-yil sentabr | Ijtimoiy himoya milliy agentligi mablag‘lari va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari | Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br>M. Olloyorov,<br>Sog‘liqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov,<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>K. Sharipov |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | | |
| 58. | Jamiyatda nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan iliq ijtimoiy muhitni shakllantirish. | 1. Ijtimoiy media-strategiyani ishlab chiqish.<br>2. Televideniye, radio, filmlar va ko‘ngilochar dasturlarga nogironligi bo‘lgan shaxslarni keng jalb qilish.<br>3. Nogironligi bo‘lgan iqtidorli shaxslar timsolida media mahsulotlar tayyorlash hamda OAV va Internet tarmog‘ida keng ko‘lamda yoritish. | 2024-yil may<br>doimiy<br>2024-yil avgust | Hisob-kitoblarga asosan respublika budjetidan Ijtimoiy himoya milliy agentligiga ajratilgan mablag‘lar va mahalliy budjet mablag‘lari | Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi<br>A. Xodjayev,<br>Milliy teleradiokompaniya<br>A. Djurabayev,<br>Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br>M. Olloyorov,<br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br>X. Umarova,<br>Oliy ta’lim, fan<br>va innovatsiyalar vazirligi<br>K. Sharipov |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (X. Kutpiddinov)* | | | | | |
| 59. | Nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat organlari va tashkilotlariga murojaat qilish huquqlari kafolatini kuchaytirish. | 1. Davlat organlari va tashkilotlariga nogironligi bo‘lgan shaxslarning murojaatlar bilan kirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish.<br>2. Eshitishi va nutqi bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslarning surdotarjimon xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. | 2024-yil davomida | Hisob-kitoblarga asosan davlat organlari va tashkilotlarining mablag‘lari | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi<br>B. Zakirov,<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **24-maqsad: Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | | |
| 60. | Xalqaro hujjatlar va xorijiy mamlakatlar amaliyotini kompleks tahlil qilish asosida bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik o‘tkazishning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish. | Bolalarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishda davlat organlarining vakolatlarini aniq belgilash, bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash, tazyiqlarga chek qo‘yish mexanizmini takomillashtirish, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan bolalarga kompleks yordam ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha xalqaro hujjatlar va xorijiy mamlakatlar amaliyotini kompleks tahlil qilish, natijasi bo‘yicha asoslantirilgan takliflar tayyorlash. | 2024-yil oktabr | - | Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br>M. Olloyorov,<br>Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili<br>S. Raxmonova<br>*(kelishuv asosida)*,<br>Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M. Olloyorov)* | | | | | |
| 61. | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish. | 1. Xalqaro tajriba asosida ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya maktablar, maktab-internatlar, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash.<br>2. Nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlash bo'yicha ota-onalarni o'qitish dasturlarini ishlab chiqish. | 2024-yil avgust<br>2024-yil dekabr | - | Sog'liqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov,<br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>X. Umarova,<br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>K.Sharipov |
| 62. | Farzand asrab olishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish. | 1. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va yetim bolalarni oilaga tarbiyaga berishda nomzod tutingan ota-onalarni tayyorlash, ularning ota-onalik ko'nikmalarini oshirish, oila — foster institutini joriy etish.<br>2. Vasiylik va homiylik organlarini tamomlagan va balog'atga yetgan shaxslarni ijtimoiy integratsiya qilish tizimini takomillashtirish.<br>3. Vasiylik va homiylik tizimini takomillashtirish, oilaga asoslangan bolalarni parvarish qilishning muqobil shakllarini rivojlantirish.<br>4. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni davolash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. | 2024-yil iyul | - | Sog'liqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov,<br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>X. Umarova,<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>B. Musayev,<br>Milliy gvardiya<br>R. Djurayev |
| **25-maqsad: Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oila va xotin-qizlar qo'mitasi (O. Parpiboyeva)* | | | | | |
| 63. | "Sog'lom oila — sog'lom jamiyat" shiori ostida oilalar farovonligi va barqarorligini ta'minlash, oilalarni mustahkamlash, mas'uliyatli ota-onalik g'oyasini singdirish, nizoli oilalardagi muhitni sog'lomlashtirish. | 1. Ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va targ'ibot tadbirlarini o'tkazish bo'yicha namunaviy tartib ishlab chiqish.<br>2. Tadbirga qamrab olinadigan xotin-qizlar (profilaktika hisobidagi hamda uzoq muddatga chiqib ketgan va qaytgan) tarkibini aniqlash.<br>3. Aniqlangan tarkibdagi oilalar bilan manzilli ishlashni tashkil etish.<br>4. Mas'uliyatli ota-onalik mezonlarini ishlab chiqish va tatbiq etish. | 2024-yil mart<br>2024-yil mart<br>Hamkorlik dasturi asosida<br>Yil davomida | Ijrochilar mablag'lari | Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti<br>N. Egamberdiyeva,<br>Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov,<br>Sog'liqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 64. | Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va ularning farzandlarini qo‘llab-quvvatlash. | 2 ming nafar jarrohlik operatsiyasiga muhtoj xotin-qizlarni sog‘lom hayotga qaytarish choralarini ko‘rish. | 2024-yil davomida reja asosida | Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lar,<br><br>Ijtimoiy himoya milliy agentligi jamg‘armasi,<br><br>Sog‘liqni saqlashni rivojlantirish jamg‘armasi,<br><br>Bolalar fondi, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi<br><br>A. Xudayarov,<br><br>Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br><br>J. Abruyev,<br><br>Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 65. | 15-may — Xalqaro oila kuni munosabati bilan “Yangi O‘zbekistonning ibratli oilasi” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish. | 1. Ko‘rik-tanlov konsepsiyasi va nizomini ishlab chiqish.<br><br>2. Hududlarda o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlar rejalarini ishlab chiqish va tashkil qilish.<br><br>3. Respublika tanlovini yuqori saviyada o‘tkazish dasturini ishlab chiqish.<br><br>4. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rik-tanlovga bag‘ishlangan tadbirlarni keng yoritish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil aprel<br><br>2024-yil may<br><br>Reja asosida | Homiylik mablag‘lari | Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti<br><br>N. Egamberdiyeva,<br><br>Yoshlar ishlari agentligi<br><br>A. Sa’dullayev,<br><br>Ma’naviyat va ma’rifat markazi<br><br>O. Xasanov,<br><br>Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi,<br><br>O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi<br><br>A. Djurabayev |
| 66. | Xotin-qizlar bandligini ta’minlashga ko‘maklashish, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunarga o‘qitish va o‘zini o‘zi band qilish. | 1. Xotin-qizlar bandlik dasturini tasdiqlash.<br><br>2. Dastur doirasida xotin-qizlarning kichik biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratish.<br><br>3. Har bir hududda xotin-qizlar hunarmandchilik markazlari va klasterlarini tashkil qilish. | 2024-yil mart<br><br>aniqlangan loyihalar asosida<br><br>Hamkorlik dasturi asosida | - | Savdo-sanoat palatasi<br><br>D. Vaxobov,<br><br>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>B. Musayev,<br><br>“Hunarmand” uyushmasi,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 67. | Aholi o‘rtasida oilaviy zo‘ravonliklarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlari to‘g‘risida “Biz oilaviy zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida ijtimoiy roliklar tanlovini tashkil qilish. | 1.Yozuvchi-shoirlar, san’atkorlar hamda madaniyat va teatr jamoalari a’zolari, blogerlar ishtirokida ijodiy guruhni shakllantirish.<br><br>2. Tadbir ssenariysi va tanlov nizomi loyihasini ishlab chiqish.<br><br>3. Tadbir va tanlovni tashkil etish hamda ishtirokchilarni taqdirlash. | 2024-yil sentabr<br><br>2024-yil oktabr<br><br>2024-yil noyabr-dekabr | Ijrochilar mablag‘lari | Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br>O. Parpibayeva,<br>Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti<br>N. E�amberdiyeva,<br>Ma’naviyat va ma’rifat markazi<br>O. Xasanov,<br>Madaniyat vazirligi<br>O. Nazarbekov,<br>Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov,<br>O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi<br>S. Sayidov |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M. Olloyorov)* | | | | | |
| 68. | Ayollarni tazyiq hamda zo‘ravonlikning turli shakllaridan himoyalash. | 1. Ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik bo‘yicha xalqaro hujjatlar va xorijiy mamlakatlar amaliyotini o‘rganib, professional yordam ko‘rsatish yuzasidan takliflarni tayyorlash.<br><br>2. Zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda professional yordam ko‘rsatishning yagona tizimini tashkil qilish reglamentini tasdiqlash.<br><br>3. Zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollarni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan boshpana (shelter) va reabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.<br><br>4. Reabilitatsiyadan o‘tgan xotin-qizlar to‘g‘risidagi yagona elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish. | 2024-yil may — sentabr | - | Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov,<br>Sog‘liqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov,<br>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>B. Musayev,<br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br>X. Umarova |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev)* | | | | | |
| 69. | Xorijiy mamlakatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqib ketgan xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish. | Chet el mamlakatlarida vaqtincha ishlayotgan hamda huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga muhtoj bo‘lgan xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. | 2024-yil har oyda | Ijrochilar mablag‘lari | Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br>O. Parpiboyeva,<br>Tashqi ishlar vazirligi<br>B. Saidov |
| 70. | Xotin-qizlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlarga o‘qitish orqali bandligini ta’minlashga ko‘maklashish hamda ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish. | 1. 85 ming nafar xotin-qizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.<br><br>2. 90 ming nafar xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish. | 2024-yil davomida | Ijrochilar mablag‘lari | Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br>O. Parpiboyeva,<br>Savdo-sanoat palatasi<br>D. Vaxobov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 71. | Xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish. | 1. Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish.<br><br>2. Ba’zi yo‘nalishlar bo‘yicha ikki oygacha bo‘lgan o‘quv kurslarini tashkil qilish.<br><br>3. Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida xotin-qizlarni bepul va pullik o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish. | 2024-yil may<br><br>2024-yil iyul<br><br>2024-yil avgust | Hisob-kitoblar asosida,<br><br>ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari | Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br><br>O. Parpiboyeva,<br><br>Savdo-sanoat palatasi<br><br>D. Vaxobov,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi* | | | | | |
| 72. | Xorijiy mamlakatlarda og‘ir vaziyatga tushib qolayotgan o‘zbekistonlik ayollarga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatish, xorijiy diplomatik tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlash va sayyor qabullar tashkil etish hamda muammolarni bartaraf etish. | 1. Xorijiy mamlakatlarda yurgan xotin-qizlar mehnat muhojirlari geografiyasi va ro‘yxatlarini aniqlash.<br><br>2. Ular bilan onlayn davra suhbatlarini o‘tkazib, muammolarini aniqlash.<br><br>3. Ularga xorijda ishlashning qonuniy asoslari hamda odam savdosiga qarshi kurashishning mazmun-mohiyatini tushuntirish.<br><br>4. Uzoq muddatga yashash joyidan chiqib ketgan ayollarning oilalarini, xususan voyaga yetmagan farzandlarini ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash.<br><br>5. Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash. | 2024-yil mart<br><br>Reja asosida<br><br>Muntazam<br><br>Aniqlangan holatda<br><br>Har chorak | - | Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br><br>O. Parpiboyeva,<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>“Vatandoshlar” jamoat fondi,<br><br>Yoshlar ishlari agentligi<br><br>A. Sa’dullayev |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi (N.Xolmurodov)* | | | | | |
| 73. | Joylarda xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni sotishga ko‘maklashish. | 1. Mahalliy yirik ishlab chiqaruvchilar bilan aloqa o‘rnatish.<br><br>2. Xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni mahalliy va jahon logistika kompaniyalari tomonidan xaridorlarga yetkazib berish tizimini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish.<br><br>3. O‘rganish natijalari bo‘yicha elektron portallar orqali xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni realizatsiya qilinishini tashkil etish.<br><br>4. Xotin-qizlarni ushbu portallar orqali o‘z mahsulotlarini taklif etish ko‘nikmalariga o‘rgatish. | 2024-yil<br><br>2024-yil mart<br><br>Muntazam<br><br>Reja asosida | - | Savdo-sanoat palatasi<br><br>D. Vaxobov,<br><br>Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br><br>O. Parpiboyeva,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **26-maqsad. Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — “Nuroniy” jamg‘armasi (S. Turdiyev)* | | | | | |
| 74. | Keksa avlodning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini o‘rganish, tizimli tahlil qilish va muammolarni hal etish masalalari doirasida 10 ta amaliy va fundamental loyihani amaliyotga tatbiq etish. | 1. Ilmiy tadqiqot mavzularining bazasini yaratish.<br><br>2. Reja asosida ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish.<br><br>3. Tadqiqotlar natijalari asosida takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil davomida | Hisob-kitoblarga asosan | “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti<br><br>N. Egamberdiyeva |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **27-maqsad: Mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev)* | | | | | |
| 75. | Kambag‘al oilalar muammolarini hal etish orqali mamlakatda kambag‘allik darajasini kamaytirish. | Oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan “Individual dasturlar” doirasida kambag‘allik darajasini 2024-yil yakuni bilan 10 foizga kamaytirish.<br>Bunda kambag‘al oilalar a’zolarining:<br>180 ming nafarini doimiy ish o‘rinlariga ishga joylashtirish;<br>320 ming nafariga imtiyozli kredit va subsidiya ajratish;<br>100 ming nafarini kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish;<br>1,5 ming nafariga oliy ta’lim o‘quv-kontrakt to‘lovlarini qoplab berish (“Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg‘armalari). | 2024-yil davomida | Hisob-kitoblarga asosan | Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi<br>M. Ubaydullayev,<br>Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br>O. Parpiboyeva,<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 76. | Mamlakatimizda hududlar kesimida kambag‘al aholining balansini shakllantirish. | Xorijiy tajriba asosida hududlar kesimida kambag‘al aholining balansini shakllantirish, monitoring qilish va manzilli ishlash uchun dasturiy ta’minot yaratish. | 2024-yil davomida | Xususiy sektor mablag‘lari hisobidan | Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br>S. Abdullayev,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov |
| **28-maqsad: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev)* | | | | | |
| 77. | Aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ishsiz aholini ishga joylashtirishga ko‘maklashish. | Bandlik organlarida ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini va natijadorligini osh�rish orqali 423 ming nafar aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish. | 2024-yil davomida | Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi,<br>Jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari,<br>xususiy sektor mablag‘lari | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>K. Sharipov,<br>Savdo-sanoat palatasi<br>D. Vaxobov,<br>Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br>O. Parpiboyeva,<br>Yoshlar ishlari agentligi<br>A. Sa’dullayev,<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 78. | Aholi bandligi dasturini shakllantirish va ijrosini elektron axborot tizimi orqali onlayn monitoring qilishni yo‘lga qo‘yish. | “Yangiish.mehnat.uz” axborot tizimini takomillashtirish orqali aholi bandligi dasturini ijrosi bilan bog‘liq jarayonlarni onlayn kuzatib borish imkoniyatini yaratish. | 2024-yil iyul | Xalqaro moliya institutlari grantlari | Statistika agentligi<br>B. Begalov,<br>Soliq qo‘mitasi<br>Sh. Kudbiyev,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 79. | Samarqand viloyati Samarqand tumani misolida ishsiz aholini aniqlashning yangi mexanizmini ishlab chiqish. | 1. Vazirliklar, idoralar va ilmiy tadqiqot institutlarining ekspertlarini jalb qilgan holda Samarqand tumani misolida ishsiz aholining manzilli ro‘yxatini shakllantirish uslubiyotini ishlab chiqish.<br><br>2. Ishsiz aholining manzilli ro‘yxatini shakllantirish uslubiyotini tajriba sifatida Samarqand tumanida amalga oshirish.<br><br>3. Mazkur tajribani respublikani boshqa hududlarida joriy etish bo‘yicha takliflarni tayyorlash. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil may-iyun<br><br>2024-yil iyul | Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi | Statistika agentligi<br><br>B. Begalov,<br><br>Soliq qo‘mitasi<br><br>Sh. Kudbiyev |
| **29-maqsad: Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev)* | | | | | |
| 80. | Band bo‘lmagan shaxslar, kambag‘al oilalarning ishsiz a’zolari va yoshlarni amaliy monomarkaz, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarida kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish orqali ularning bandligiga ko‘maklashish. | 1. Ish bilan band bo‘lmagan kamida 200 ming nafar, shu jumladan, 110 ming nafar ishsiz xotin-qizlar hamda 90 ming nafar ishsiz yoshlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish.<br><br>2. Xalqaro standartlar asosida 100 nafar kasbga o‘qitish markazlari o‘qituvchilarining malakasini oshirish.<br><br>3. Kasb-hunarga o‘qitishda xususiy sektor va “usta-shogird” maktablari ulushini 20 foizga yetkazish choralarini ko‘rish. | 2024-yil davomida | Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi,<br><br>Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi,<br><br>Kasb-hunarga o‘qitish xarajatlarini moliyalashtirish belgilangan barcha davlat mablag‘lari | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>K. Sharipov,<br><br>Savdo-sanoat palatasi<br><br>D. Vaxobov,<br><br>Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br><br>O. Parpiboyeva,<br><br>Yoshlar ishlari agentligi<br><br>A. Sa’dullayev,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Ken�ashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **30-maqsad: Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa’dullayev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 81. | Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish. | 7,5 ming nafar yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish. Bunda:<br><br>yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish maqsadida “Kelajak kasblari” loyihasini tashkil qilish;<br><br>o‘quv markazlari bilan hamkorlikda yoshlarni 3D modellashtirish, robototexnika, mobilografiya, marketing, grafik-dizayn, animatsiya kabi zamonaviy yo‘nalishlarda o‘qitish;<br><br>“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning zamonaviy kasblar va axborot texnologiyalarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv kurslarida o‘qish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish;<br><br>“Kreativ park”larda iqtidorli yoshlarning eng yaxshi g‘oya va loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga ko‘maklashish;<br><br>turli soha, ilm-fan va kasblarni o‘rgatishga ixtisoslashgan onlayn “Ustoz” loyihasini yo‘lga qo‘yish. | 2024-yil davomida | Yoshlar ishlari agentligi jamg‘armasi mablag‘lari hamda ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>B. Musayev,<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |
| 82. | Xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori ball olgan yoshlarning imtihon xarajatlarini qoplab berish. | 1.Xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori ball olgan 6 ming nafar yoshlarning imtihon xarajatlarini qoplab berish.<br><br>Bunda, chet tillarini o‘qitishga ixtisoslashgan nodavlat ta’lim muassasalarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud nodavlat ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.<br><br>2.Xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori ball olgan yoshlarga respublika hududida faoliyat yuritayotgan xorijiy tashkilotlarda stajirovka o‘tashni tashkil etish bo‘yicha ko‘maklashish. | 2024-yil davomida | Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>K. Sharipov,<br><br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br><br>X. Umarova |
| **31-maqsad: Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa’dullayev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 83. | Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o‘yinlar hamda chet tillarini o‘rganishga jalb etish orqali yoshlarning iqtidorini rivojlantirish. | Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o‘yinlar hamda chet tillarini o‘rganishga jalb etish orqali 800 ming nafar yoshlarning iqtidorini rivojlantirish.<br><br>Bunda:<br><br>“Zakovat”, “Shaxmat”, “Munozara” va boshqa shu kabi intellektual o‘yinlarga yoshlarni jalb etish;<br><br>chet tillarini ommalashtirishga ko‘maklashuvchi “Ibrat farzandlari” loyihasini rivojlantirish va uning doirasida “Ibrat academy” mobil ilovasini takomillashtirish, “Ibrat — tillar oromgohi”, “Xorijiy tillar marafoni”larini o‘tkazish;<br><br>yangicha yondashuv asosida kitobxonlikni keng targ‘ib qilishga qaratilgan “Mutolaa” loyihasini amalga oshirish;<br><br>yoshlarning innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ularning ilm-fan, ta’lim va innovatsiya bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratish. | 2024-yil davomida | Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>K. Sharipov,<br><br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br><br>X. Umarova |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — “El-yurt umidi” jamg‘armasi (A.Bekmurodov)* | | | | | |
| 84. | Iste’dodli yoshlarshi xorijning eng nufuzli oliygohlariga o‘qishga yuborish. | Iste’dodli 500 nafar yoshlarni xorijning eng nufuzli oliygohlariga o‘qishga yuborish bo‘yicha tanlov o‘tkazish. Bunda:<br><br>xorijiy oliy ta’lim muassasalarining ta’lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg‘arma tomonidan ochiq stipendiya tanlovlarini e’lon qilish va o‘tkazish;<br><br>“El-yurt umidi” jamg‘armasining ochiq stipendiya tanlovlari tartibi bilan bog‘liq yangiliklarni yoshlar orasida keng targ‘ib etishga qaratilgan seminarlar tashkil etish;<br><br>stipendiya tanlovi g‘oliblarini xorijiy davlatlarga ta’lim olishga yuborishni tashkil etish. | 2024-yil davomida | “El-yurt umidi” jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lar doirasida | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>O. Fozilkarimov,<br><br>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi,<br><br>A. Musayev,<br><br>Yoshlar ishlari agentligi<br><br>A. Sa’dullayev,<br><br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>K. Sharipov,<br><br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br><br>X. Umarova,<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa’dullayev)* | | | | | |
| 85. | Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish. | Davlat organlari rahbarlari va yoshlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq muloqotini yo‘lga qo‘yish maqsadida “Rahbar va yosh xodimlar”, “Deputat va yoshlar”, “Tadbirkorlar va yoshlar” uchrashuvlarini tashkil etish. | 2024-yil iyundan boshlab aniq reja-grafik asosida | | vazirlik va idoralar,<br><br>Oliy Majlis palatalari<br><br>*(kelishuv asosida),*<br><br>Savdo-sanoat palatasi<br><br>D. Vaxobov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **32-maqsad: Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa’dullayev)* | | | | | |
| 86. | Yoshlarning bandligini ta’minlash. | 300 ming nafar yoshlarning bandligini ta’minlash. Bunda:<br><br>ijtimoiy himoyaga muhtoj va "og‘ir" toifadagi yoshlarni "Yoshlar daftari"ga kiritish va ularning muammolarini hal etish;<br><br>ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlar ko‘rsatish, jumladan, subsidiya, kompensatsiya va moddiy yordam ajratish choralarini ko‘rish. | 2024-yil davomida<br><br>2024-yil fevral — aprel<br><br>2024-yil davomida | Ijrochilar mablag‘lari | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari,<br><br>Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br><br>J. Abruyev |
| **33-maqsad: Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov)* | | | | | |
| 87. | "Bir million dasturchi" loyihasini amalga oshirish orqali 15 ming nafar iqtidorli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash. | 1. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida platformaning professional kurslarida yoshlarni ta’lim olishini yo‘lga qo‘yish.<br><br>2. Platformada ta’lim oladigan yoshlar qamrovi bo‘yicha Hududlar kesimida samaradorlik ko‘rsatkichlarini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br><br>3. Platforma imkoniyatlari va undan samarali foydalanish bo‘yicha hududlardagi ta’lim tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda keng targ‘ibot ishlarini amalga oshirish.<br><br>4. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida eng yaxshi natija ko‘rsatgan yoshlar va ishtirokchilarni munosib rag‘batlantirib borish. | 2024-yil davomida<br><br>2024-yil mart<br><br>2024-yil mart<br><br>2024-yil dekabr | Ijrochilar mablag‘lari | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br><br>X. Umarova,<br><br>Yoshlar ishlari agentligi<br><br>A. Sa’dullayev,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklari |
| **34-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Sport vazirligi (A. Ikramov)* | | | | | |
| 88. | Yoshlarni ommaviy sport tadbirlariga jalb qilish. | Mahallalar va ta’lim muassasalarida sport turlari bo‘yicha ommaviy sport musobaqalari qamrovini 10 mln nafarga yetkazish. Bunda:<br><br>mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar o‘rtasida;<br><br>umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari o‘rtasida;<br><br>professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida;<br><br>oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish.<br><br>Aholining yosh toifalari bo‘yicha barcha hududlarida har yili jismoniy tayyorgarlik sinovlarini o‘tkazish. | 2024-yil aprel — dekabr<br><br>2024-yil davomida | Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag‘lar hamda ijrochilar mablag‘lari | Yoshlar ishlari agentligi<br><br>A. Sa’dullayev,<br><br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>K. Sharipov,<br><br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br><br>X. Umarova,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 89. | Sport bilan shug‘ullanishga jalb qilingan aholi ulushini oshirish. | Aholini sport turlariga jalb qilish orqali jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar qamrovini 26 foizdan 28 foizga yetkazish. Bunda:<br>hududlarda aholining jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;<br>mahallalarda aholining ommaviy sport bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;<br>sport inshootlarini zamonaviy sport jihozlari bilan ta’minlash. | 2024-yil davomida | Ijrochilar mablag‘lari | Yoshlar ishlari agentligi<br>A. Sa’dullayev,<br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br>X. Umarova,<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklari |
| 90. | Mahallalarda sport maydonchalarini barpo etish. | Mahallalarda 400 ta sport maydonchalarinibarpo etish. Bunda:<br>“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida g‘olib va sovrindor bo‘lgan hamda hududida sport infratuzilmasi mavjud bo‘lmagan mahallalar ro‘yxatini shakllantirish hamda qurish ishlarini boshlash;<br>olis va chekka hududdagi mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan sport maydonchalarini bosqichma-bosqich barpo etish hamda bu orqali aholining sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish. | 2024-yil davomida | Sport vazirligi mablag‘lari | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi<br>B. Zakirov,<br>Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov,<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklari |
| 91. | Sportning milliy turlari, xususan, milliy kurash va belbog‘li kurashni aholi o‘rtasida yanada ommalashtirish. | Milliy kurash va belbog‘li kurash bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari o‘rtasida, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida, oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida umummilliy musobaqalarni tashkil qilish. | 2024-yil davomida | Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag‘lar hamda ijrochilar mablag‘lari | Yoshlar ishlari agentligi<br>A. Sa’dullayev,<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>K. Sharipov,<br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br>X. Umarova |
| **35-maqsad: Respublikada sport bilan professional va doimiy shug‘ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Sport vazirligi (A. Ikramov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 92. | Mavjud sport maktablarida aholi soni va ixtisoslashuviga ko‘ra olimpiya sport turlari bo‘yicha sport seksiyalarini tashkil etish. | Mavjud sport maktablarida aholi soni va ixtisoslashuviga ko‘ra olimpiya sport turlari bo‘yicha 450 ta sport seksiyalarini tashkil etish. Bunda:<br><br>oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport ta’limi yo‘nalishida ta’lim olayotgan 3-4 kurs talabalari hamda “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalaridasportchilarni munosib tayyorlagan umumta’lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari bazasini shakllantirish;<br><br>sport maktablarida shug‘ullanish uchun davlat xizmatlari markazi orqali hujjat topshirgan fuqarolarning murojaatlari asosida sport guruhlarini shakllantirish;<br><br>sport guruhlarini trener lavozimiga ishga qabul qilingan talabalar va jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga biriktirish. | 2024-yil davomida | - | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| **36-maqsad: Milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Sport vazirligi (A. Ikramov)* | | | | | |
| 93. | Razryadli va unvonli sportchilar sonini oshirish. | Razryadli va unvonli sportchilar sonini 30 ming nafarga yetkazish. Bunda:<br><br>“ERP-Sport” yagona elektron boshqaruv tizimini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga integratsiya qilish;<br><br>sportchilarga sport unvonlari va sport razryadlarini berish bo‘yicha davlat xizmatlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatilishini ta’minlash;<br><br>sportchilarga sport unvonlari va sport razryadlarini berish bo‘yicha davlat xizmatlaridan foydalanish uchun davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ariza berish hamda 16 yoshga to‘lmagan ariza beruvchilar uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ularning ota-onasi yoki qonuniy vakili tomonidan ariza berish imkoniyatini yaratish. | 2024-yil mart | Ijrochilar mablag‘lari | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |
| 94. | Sport sohasida oliy ma’lumotli xodimlar ulushini oshirish. | Bunda:<br><br>Jismoniy tarbiya va sport universiteti bitiruvchilarini tizim tashkilotlariga ishga yo‘naltirish;<br><br>jismoniy tarbiya va sport sohasida oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashning zamonaviy tizimini joriy qilish;<br><br>sport ta’limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibini bosqichma-bosqich oshirish. | 2024-yil davomida | - | Jismoniy tarbiya va sport universiteti<br><br>R. Matkarimov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 95. | Sport sohasida ilmiy tadqiqot va izlanishlarni rivojlantirish. | Sport sohasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot va izlanishlar sonini 60 taga yetkazish. Bunda:<br><br>xorijiy sport ilmiy tashkilotlari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borishni kengaytirish;<br><br>sport sohasida, jumladan sport biomexanikasi, fiziologiyasi hamda farmakologiyasi bo‘yicha 3 ta fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalarini amaliyotga joriy etish;<br><br>aholining yosh xususiyatidan kelib chiqib, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini ilmiy asosda o‘rganish va tavsiyalar ishlab chiqish;<br><br>sport sohasidagi xalqaro va mahalliy tashkilotlarning olimlari, mutaxassislari ishtirokida mahorat darslari, seminar-treninglar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalar va anjumanlar, tanlovlar o‘tkazish. | 2024-yil dekabr | Tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag‘lari, homiylik xayriya va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari | Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti<br><br>M. Mirjamolov |
| **37-maqsad: Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Sport vazirligi (A. Ikramov)* | | | | | |
| 96. | Parij-2024 Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga litsenziyalar va ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritish uchun zarur sharoitlarni yaratish. | 140 ta litsenziyalarni qo‘lga kiritish choralarini ko‘rish. Bunda:<br><br>Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo‘yicha milliy terma jamoa a’zolarinio‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari va musobaqalarda ishtirokini ta’minlash;<br><br>mamlakatimizda xalqaro darajada sport musobaqalarini o‘tkazish bo‘yicha aniq choralarni belgilash;<br><br>milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlashda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining respublika kalendar rejasini “ERP-Sport” elektron platformasida shakllantirishni yo‘lga qo‘yish. | 2024-yil sentabr | Ijrochilarning budjet va budjetdan tashqari mablag‘lari,<br><br>homiylik va xayriya mablag‘lari | O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi<br><br>O. Kasimov,<br><br>O‘zbekiston Milliy Paralimpiya qo‘mitasi<br><br>M. Tashxodjayev |
| **38-maqsad: Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi (U. G‘afurov)* | | | | | |
| 97. | Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish hamda buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlari tarjimasini amalga oshirish, ular asosida risolalar yaratish. | 1. Malakali islomshunos olimlardan iborat tarjimonlar guruhini tuzish.<br><br>2. Tarjima qilinadigan a�arlar ro‘yxatini shakllantirish va tarjimasini amalga oshirish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil avgust | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari | Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi,<br><br>Imom Termizi� xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi,<br><br>Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (O. Xasanov)* | | | | | |
| 98. | O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish. | Jamiyatda zamonaviy bilimlarni oshirishga qaratilgan qiziqarli test savollarini *(tarixiy, ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va h.k.)* o'z ichiga olgan yutuqli o'yin va viktorinalarning maxsus platformasini, ularning mobil ilovasini yaratish. | 2024-yil davomida | Ijrochilarning budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari va homiylik mablag'lari doirasida | Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi<br>A. Xodjayev,<br>Madaniyat vazirligi<br>O. Nazarbekov,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (O. Xasanov)* | | | | | |
| 99. | Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish. | Bunda, har bir ta'lim muassasasi va mahallalarda vatanparvarlik, xalq birdamligi, Vatanga muhabbat tuyg'usini oshirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazib borish. | 2024-yil davomida reja-grafikka asosan | Tashkilotlarga ajratilgan mablag'lar doirasida | O'zbekiston mahallalari uyushmasi<br>K. Kuranbayev,<br>Mudofaa vazirligi<br>B. Kurbanov,<br>Yoshlar ishlari agentligi<br>A. Sa'dullayev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (O. Xasanov)* | | | | | |
| 100. | Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda sotsiologik tadqiqotlar rolini oshirish. | 1. Ma'naviy-mafkuraviy ishlarni tashkil etishda xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish.<br>2. Xorijiy ilmiy safarlar, stajirovkalar tashkil qilish.<br>3. Sotsiologik tadqiqotlar o'tkaziladigan hududlarni tanlash hamda tadqiqotlar dasturi va reja-jadvalini ishlab chiqish.<br>4. To'plangan tajriba asosida hududlarda sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish.<br>5. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish. | 2024-yil mart — iyul<br>Alohida reja asosida<br>2024-yil aprel-may<br>2024-yil may-oktabr<br>2024-yil iyul-dekabr | Ijrochilar mablag'lari | - |
| 101. | O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish. | Yoshlarda milliy musiqa san'atiga qiziqishlarini yanada kuchaytirish, milliy mumtoz musiqaning boy mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish maqsadida mahallalarda "Ma'naviyat sadosi" nomli milliy maqom va mumtoz musiqa kechalarini uyushtirib borish. | 2024-yil davomida | - | O'zbekiston mahallalari uyushmasi<br>K. Kuranbayev,<br>Madaniyat vazirligi<br>O. Nazarbekov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X.Umarova)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 102. | Xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilarining masofaviy shaklda malakasini oshirish, ularga uslubiy yordam berish tizimini yo‘lga qo‘yish. | 1. Xorijda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilari malakasini oshirishga mo‘ljallangan o‘quv-dasturini ishlab chiqish.<br><br>2. Xorijda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilarining ro‘yxatini shakllantirish.<br><br>3. Xorijda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilarining masofaviy shaklda malakasini oshirish ishlarini yo‘lga qo‘yish. | 2024-yil sentabr<br><br>2024-yil oktabr<br><br>2024-yil noyabr | Hisob-kitobga asosan O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>K. Sharipov,<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa’dullayev)* | | | | | |
| 103. | Yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish. | 1. Yoshlarning bilim olishga va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish maqsadida “Kitob — ko‘ngil bulog‘i” tanlovlarini o‘tkazish.<br><br>2. “Kitob — kamolot kaliti” Respublika kitob ko‘rgazmasini tashkil etish. | 2024-yil davomida | Tashabbuskorlarning o‘z mablag‘lari | - |
| **39-maqsad: O‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | | |
| 104. | Buxoro shahrida Turkiy tilli davlatlar yosh ijodkorlari anjumanini o‘tkazish. | 1.Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlardan 2-3 nafardan yosh ijodkorlarini anjumanga taklif etish.<br><br>2. Buxoro shahridagi madaniyat maskanlari, ta’lim muassasalari, shuningdek, tarixiy obidalar hududida turli ijodiy uchrashuv va muloqotlar, davra suhbatlari tashkil qilish. | 2024-yil aprel | Ijrochilar mablag‘lari | O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi<br><br>S. Saidov,<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Buxoro viloyati hokimligi<br><br>B. Zaripov |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi (S. Saidov)* | | | | | |
| 105. | O‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni rivojlantirish. | Har yili dunyoda eng ko‘p mutolaa qilingan, shuningdek davlatimiz tadrijiy rivojlanishiga taalluqli 100 ta eng yaxshi badiiy asarlarni tarjima qilish va kutubxonalarga yetkazish. | 2024-yil davomida | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida va homiylik mablag‘laridan | Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi<br><br>A. Xodjayev |
| **40-maqsad: Zamonaviy teatr va sirk san’atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 106. | Zamonaviy teatr va sirk san’ati yo‘nalishida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish. | 1. Davlat teatrlari va sirk jamoalarini xalqaro festival va gastrollarga yuborilishini tashkil etish.<br><br>2. Davlat teatrlarida va sirkda faoliyat yuritayotgan ijodiy va yordamchi xodimlarning xorijiy davlatlarning nufuzli teatr va sirklarida mahoratini oshirish. | 2024-yil davomida | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida va homiylar mablag‘lari | - |
| | | 3. Davlat buyurtmasi asosida davlat teatrlarida yangi spektakllarni sahnalashtirish.<br><br>4. Davlat teatrlari tomonidan namoyish etiladigan spektakllarga 3,6 mln nafar tomoshabinni jalb qilish.<br><br>5. Joylarda o‘tkaziladigan sirk tomoshalari sonini 550 taga oshirish. | 2024-yil davomida | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida va homiylar mablag‘lari | - |
| **41-maqsad: O‘zbek milliy san’atini jahon sahnalarida keng targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | | |
| 107. | O‘zbek milliy san’atini jahon sahnalarida keng targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish. | 1. Respublikada xalqaro festivallar, anjumanlar, forumlar va boshqa tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazish.<br><br>2. Davlat konsert-tomosha muassasalari tomonidan namoyish etiladigan madaniy tadbirlar va festivallarga 10 mln nafar tomoshabinlarni jalb etish choralarini ko‘rish. | 2024-yil davomida reja asosida | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar,<br><br>homiylar mablag‘lari | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi<br><br>A.Djurabayev |
| | | 1. Madaniyat va san’at tizimidagi oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, xususan ilmiy darajali va unvonli kadrlar sonini 10 nafarga ko‘paytirish choralarini ko‘rish.<br><br>2. Madaniyat va san’at sohasida iste’dodli va yuqori malakali ijodkorlarning mahorat maktablarini tashkil etish. | 2024-yil davomida | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar,<br><br>homiylar mablag‘lari | - |
| 108. | Madaniyat va san’at sohasida faoliyat yuritayotgan ijodkor yoshlarni saralash, ular uchun ijodiy maydon yaratish hamda yangi iste’dodlarni kashf etish. | 1. Hududlarda ijodkor yoshlar uchun madaniyat va san’at yo‘nalishida “Yangi O‘zbekiston iste’dodlari” tanlovining Nizomini ishlab chiqish.<br><br>2. Yangi O‘zbekiston iste’dodlari” tanlovini o‘tkazish.<br><br>3. Tanlov orqali saralab olingan ijodkor yoshlarni davlat tadbirlariga jalb qilish hamda ularning ijodini ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib qilish. | 2024-yil davomida | Madaniyat vazirligiga ajratilgan mablag‘ doirasida | O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi<br><br>A. Djurabayev,<br><br>O‘zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi<br><br>Sh. Qudratxo‘ja,<br><br>Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **42-maqsad: Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — Madaniy meros agentligi (B. Abdikarimov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 109. | Arxeologiya yodgorliklarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va muzeylashtirish. | 1. 110 ta arxeologiya yodgorliklarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.<br><br>2. 3 ta arxeologiya yodgorliklarini konservatsiya va muzeylashtirish choralarini ko'rish. | 2024-yil davomida | Respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida,<br><br>qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | - |
| 110. | Madaniy meros obyektlarida restavratsiya va ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish hamda muzeylarning moddiy-texnika bazasi va infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish, ekspozitsiyalarini yangilash choralarini ko'rish. | 1.Respublikadagi 123 ta madaniy meros obyektlarida restavratsiya va ta'mirlash tiklash ishlarini amalga oshirish.<br><br>2. Davlat muzeylaridagi elektron identifikatsiya qilinadigan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari sonini 500 ming donaga oshirish.<br><br>3. Davlat muzeylariga tashrif buyuradigan mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini 4 mln nafarga oshirish.<br><br>4. Davlat muzeylari rahbar va xodimlarining 80 nafarining malakasini oshirish. | 2024-yil davomida | Respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida,<br><br>qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | - |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev)* | | | | | |
| 111. | Yoshlar orasida ilmiy-ratsional dunyoqarashning sayozlashganligi, ular orasida ilmiy tadqiqot va ilmiy izlanishlarga qiziqishni oshirish maqsadida ilmiy-ommabop nashrlar soni va sifatini oshirish. | 1. Ilmiy qarashlar va bilimlarni sodda tilda ilmiy-ommabop formatda internet nashr, kitob, jurnal, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, kanallarda chop etish va e'lon qilishga jalb etishga imtiyozlar tizimini yaratish masalasini ko'rib chiqish.<br><br>2. Har bir aniq, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi doirasida yoshlar va keng aholi uchun mo'ljallangan elektron jurnallari va ularning barcha mashhur ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini tashkil etish.<br><br>3. Ilmiy-ommabop formatda nashrlar soni va sifatini oshirish, mazkur yo'nalishda tashkiliy-moliyaviy rag'batlantirish tizimini joriy etish. | 2024-yil may<br><br>2024-yil iyun<br><br>2024-yil noyabr | Respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida | Fanlar akademiyasi<br><br>B. Yuldashev,<br><br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>K. Sharipov |
| **43-maqsad: Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlarini rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ullar — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari* | | | | | |
| 112. | Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish. | Nukus shahri va viloyatlar markazida joylashgan madaniyat va istirohat bog'larida 1 tadan zamonaviy yozgi kinoteatr va book-kafelar faoliyatini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida yo'lga qo'yish. | 2024-yil davomida | Homiylik va xayriya mablag'lari, loyiha tashabbuskorlari mablag'lari | - |
| *Ijro uchun asosiy mas'ullar — Badiiy akademiya (A. Nuriddinov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 113. | Tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish. | 1. Nukus shahri, viloyatlar va Toshkent shahri markazlarida ijodkorlarning 250 ta doimiy ko‘rgazmalarini tashkil qilish.<br><br>2. Haykaltaroshlik san’atini rivojlantirish hamda ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida “O‘zbekiston Xalqaro haykaltaroshlik simpoziumi”ni o‘tkazish. | 2024-yil davomida<br><br>2024-yil avgust | Respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida,<br><br>homiylik xayriya mablag‘lari va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari,<br><br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi |
| **44-maqsad: Milliy kinematografiyani rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ullar — Kinematografiya agentligi (F. Abduxalikov)* | | | | | |
| 114. | Milliy kinematografiyani keng targ‘ib qilish hamda dunyodagi eng ommabop Internet platformalariga milliy filmlarni joylashtirish. | 1. 2024-yil davomida nufuzli va reytingi baland xalqaro onlayn platformalarining talablariga mos ravishda davlat buyurtmasi asosida kamida 5 ta filmlarni ishlab chiqish yoki mavjud filmlarni moslashtirish.<br><br>2. Onlayn platforma ishlab chiqaruvchilar bilan muzokaralar olib borish va filmlarni joylashtirish choralarini ko‘rish hamda uning keng targ‘ibotini amalga oshirish.<br><br>3. 2024-yil davomida jahonning eng nufuzli 5 ta xalqaro kinobozor va kinofestivallarida ishtirok etish.<br><br>4. Ta’lim tashkilotlari uchun 10 dona o‘quv-uslubiy filmlar yaratish. | 2024-yil davomida | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida | - |
| 115. | Milliy qahramonlar haqida multiplikatsion film va seriallar ishlab chiqarish. | 1. Multiplikatsion film va seriallarning ssenariysini ishlab chiqish.<br><br>2. Multiplikatsion film va seriallarning namoyishini tashkil etish. | 2024-yil davomida | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘la� doirasida | - |

*(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-75-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2024-y., 06/24/75/0335-son)*

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi
PF-37-son Farmoniga
2-ILOVA

## “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan

AMALIY TADBIRLAR REJASI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r. | Vazifa | Amaliy chora-tadbir | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASH** | | | | | |
| **45-maqsad: 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirib, “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri — J. Qo‘chqorov* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. | 2024-yilda yalpi ichki mahsulot oʻsish sur'atlarini 6 foizdan kam boʻlmagan darajada ta'minlash.<br><br>Bunda, sanoat mahsulotlari oʻsishini 7 foiz, bozor xizmatlari — 14,9 foiz, qishloq xoʻjaligi — 4 foiz, qurilish — 6,3 foiz darajasida ta'minlash.<br><br>Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy shartlar:<br><br>konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining YAIMga nisbatini 4 foizdan yuqori boʻlmasligini ta'minlash;<br><br>eksport hajmi oʻsishini 25 foiz darajasida ta'minlash. | 2024-yil davomida | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov,<br><br>Markaziy bank<br><br>M. Nurmuratov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Markaziy bank (M. Nurmuratov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 2. | Tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlash orqali 2024-yilda yillik inflyatsiya darajasining 9 foizdan oshmasligini ta'minlash. | 2024-yilda:<br><br>inflyatsiya darajasi 9 foiz atrofida boʻlishini ta'minlash maqsadida pul-kredit sharoitlarini 2024-yilda ham nisbatan qat'iy fazada saqlab qolish;<br><br>pul bozorida ijobiy 3-4 foizlik real stavkalar shakllanishini ta'minlash. Bunda, zarur hollarda likvidlikni jalb qilish instrumentlari hajmlarini oshirish;<br><br>iqtisodiyotda ajratiladigan kreditlar oʻsish sur'ati YAIM nominal oʻsishi doirasida boʻlishini ta'minlash;<br><br>inflyatsiya kutilmalarini pasaytirish va ularni inflyatsiyaning prognoz koʻrsatkichlari doirasida jilovlashda kommunikatsion siyosatni takomillashtirib borish;<br><br>asosiy turdagi tovar va xizmatlar narxlarini hududlar boʻyicha kuzatib borish, ularga ta'sir koʻrsatgan omillarni bartaraf etish boʻyicha takliflar ishlab chiqish. | 2024-yil davomida | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3. | Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar tarkibida muammoli kreditlarni kamaytirish orqali bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash. | Muammoli kreditlarning oldini olish va salmogʻini kamaytirish maqsadida banklar tomonidan ularning kredit siyosatiga:<br><br>tijorat kreditlari foiz stavkasini 2-3 foizga kamaytirish;<br><br>banklarning kreditlash mezonlari *(iqtisodiy asoslanganligi, qarz yuki va ta'minotiga qoʻyilgan minimal talablar)*;<br><br>investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ushbu loyiha tashabbuskori tomonidan loyiha qiymatining kamida 30 foizi miqdorda oʻz mol-mulki va mablagʻlari bilan ishtiroki asosida amalga oshirilishi boʻyicha tegishli oʻzgartirishlarni kiritish. | 2024-yil mart | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Qudratov |
| **46-maqsad: Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (A.Ya. Xaydarov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4. | Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining 2024-yilda YAIMga nisbatan 4 foizdan oshmasligini ta'minlash. | Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi oshib ketishining oldini olish maqsadida:<br><br>Davlat budjeti va davlat maqsadli jamgʻarmalari hisobidan qoʻshimcha xarajatlar faqat qoʻshimcha daromad manbai mavjud boʻlganda yoki boshqa xarajatlarni qisqartirish hisobiga amalga oshirilishini nazorat qilish;<br><br>loyihalarni moliyaviy ekspertizadan oʻtkazishda, loyihalarda nazarda tutilgan tadbirlarning Davlat budjetida ajratilgan mablagʻlar doirasida amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratish. | 2024-yil davomida | - | - |
| 5. | Tashabbusli budjetlashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish. | 1. Tashabbusli budjetlashtirish jarayonida ovoz berishda sogʻlom raqobat muhitini yaratish maqsadida “Bir fuqaro — bir ovoz” tizimini joriy etish.<br><br>2. Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyish orqali ovoz berish jarayonida fuqarolarni identifikatsiya qilish.<br><br>3. Bir fuqaro tomonidan berilgan bitta ovozni qabul qilish tizimi joriy etilishini ta'minlash. | 2024-yil mart | - | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 6. | Budjet jarayonlarining shaffofligini yanada oshirish choralarini koʻrish. | Bunda, quyidagi masalalar boʻyicha keng jamoatchilik tomonidan ochiq ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratish:<br><br>budjet, budjet jarayoni va uning jamiyatga koʻrsatadigan ta'siri tahlili;<br><br>turli darajalardagi va hududlar budjetlari oʻrtasida daromadlar va xarajatlar taqsimlanishi;<br><br>soliqlardan hududlar budjetlariga tushadigan ajratmalar, subvensiyalar va boshqa budjetlararo transfertlar miqdorlari;<br><br>davlat budjetida nazarda tutilgan nafaqalar, pensiyalar miqdorlari. | 2024-yil sentabr | - | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **47-maqsad: Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilgʻor texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (B. Xodjayev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 7. | 2030-yilgacha yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmini 1 mln donaga yetkazish dasturini amalga oshirish. | 1. Mahalliy avtomobilsozlik sanoatida barcha mavjud va yangi ishlab chiqaruvchilarga shaffof va teng sharoitlarni yaratish. | 2024-yil mart | - | “Oʻzavtosanoat” AJ<br><br>U. Rozukulov |
| | | 2. Jizzax viloyatida Xitoyning “BYD” kompaniyasi bilan hamkorlikda 10 mingta elektromobil va gibrid avtomobillarni toʻliq sikldа ishlab chiqarish loyihasini ishga tushirish. | 2024-yil davomida | | |
| | | 3. Mahalliy avtomobilsozlik korxonalari tomonidan 2024-yilda 450 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarishga erishish. | | | |
| | | 4. Jizzax viloyatida “ADM Jizzakh” korxonasi negizida Koreyaning “KIA” brendi ostida avtomobillarni toʻliq sikldа ishlab chiqarish loyihasini ishga tushirish. | 2024-yil dekabr | | |
| | | 5. Andijon viloyatida “Metall buyumlarni quyish zamonaviy sexini ishga tushirish” loyihasining 2-bosqichini ishga tushirish. | 2024-yil may | | |
| | | 6. “Oniks” va “Treker” avtomobillarining mahalliylashtirish darajasini oʻrtacha 55 foizga, milliy traktor — kamida 35 foizga, osma texnika va tirkamalar — 60 foizga yetkazish. | 2024-yil dekabr | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 8. | Elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini oshirish, elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hamda ushbu sohaga investitsiyalarni jalb qilish. | Ohangaron sanoat zonasida 120 mln dollarlik 5 ta loyihani ishga tushirish hamda 25 ming tonna misdan kabel va 1,5 mingta transformator ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish. | 2024-yil davomida | Tashabbuskorlar mablagʻlari hisobidan | “Oʻzeltexsanoat” uyushmasi<br>M. Yunusov,<br>Toshkent viloyati hokimligi<br>Z. Mirzayev |
| | | Buxoro shahrida 120 mln dollarlik texnoparkni ishga tushirish va 25 mln dollarlik maishiy texnikalarni mahalliylashtirish choralarini koʻrish. | 2024-yil davomida | Tashabbuskorlar mablagʻlari hisobidan | “Oʻzeltexsanoat” uyushmasi<br>M. Yunusov,<br>Buxoro viloyati hokimligi<br>Z. Mirzayev |
| | | Qoʻshimcha 350 mln dollarlik mahalliylashtirilgan elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish. | 2024-yil davomida | Tashabbuskorlar mablagʻlari hisobidan | “Oʻzeltexsanoat” uyushmasi<br>M. Yunusov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qishloq xoʻjaligi vazirligi (I. Abduraxmonov)* | | | | | |
| 9. | Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 100 trln soʻmdan oshirish. | 2024-yilda oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish chora-tadbirlar dasturini qabul qilish.<br>Bunda, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini 25 foizdan oshirish, jumladan, meva-sabzavotni 3,2 mln tonnaga, goʻshtni 450 ming tonnaga, sutni 3 mln tonnaga hamda oziq-ovqat mahsulotlari ulushini 40 foizga yetkazishni nazarda tutish. | 2024-yil mart | Tadbirkorlik subyektlari mablagʻlari, xalqaro moliya institutlari mablagʻlari | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>A. Xaydarov,<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>L. Kudratov,<br>Sirdaryo viloyati hokimligi<br>A. Maxmudaliyev |
| **48-maqsad: Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini toʻliq ishga solish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Qudratov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 10. | Hududlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish uchun yangi investitsiya loyiha takliflarini ishlab chiqish. | 1. Loyiha guruhlari tomonidan hududlarning mavjud xomashyo salohiyati va imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish.<br><br>2. Hududlarning ixtisoslik drayveridan kelib chiqqan holda yirik, oʻrta va kichik loyihalar roʻyxatini shakllantirish.<br><br>3. Konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda biznes rejalarni ishlab chiqish.<br><br>4. Yangi loyiha takliflarini xorijiy va mahalliy investorlarga taqdim qilish.<br><br>5. Yangi loyihalarni ishga tushirish boʻyicha amaliy ishlarni boshlash. | 2024-yil davomida | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi (B. Islamov)* | | | | | |
| 11. | Hududlarda mavjud mineral xomashyo resurslaridan samarali foydalanish maqsadida istiqbolli maydonlarda qimmatbaho, rangli va noyob metallarga geologiya-qidiruv ishlarini oʻtkazish. | Nufuzli xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda kamida 10 ta xorijiy investitsiya loyihasi doirasida kon zaxiralarini baholashda ilgʻor xalqaro standartlarni joriy qilish.<br><br>Tadbirkorlik subyektlariga qimmatbaho, rangli, noyob metallar hamda noruda kon va uchastkalariga (jami kamida 200 ta) yer qa'ridan foydalanish ruxsatnomalarini shaffof mexanizmlar asosida onlayn auksion orqali taklif etish. | 2024-yil dekabr | Xorijiy va mahalliy investitsiyalar | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi<br><br>A. Ortiqov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (B. Xodjayev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 12. | “Yoshlik-I” konini oʻzlashtirish” investitsiya loyihasi doirasida 60 mln tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega 3-mis boyitish fabrikasini toʻliq ishga tushirish. | 1. 3-mis boyitish fabrikasi uchun asosiy texnologik uskunalarni qurilish maydonchasiga yetkazish, oʻrnatish va montaj qilish ishlarini yakuniga yetkazish.<br><br>2. Rudani qayta ishlash yillik quvvati 60 mln tonna boʻlgan 3-mis boyitish fabrikasini foydalanishga topshirish. | 2024-yil sentabr<br><br>2024-yil oktabr | Loyiha-smeta hujjatlari asosida<br><br>*(xorijiy bank kreditlari va oʻz mablagʻlari)* | “Olmaliq KMK” AJ<br><br>A. Xursanov,<br><br>Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi<br><br>B. Islamov |
| 13. | “Navoiy KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish” investitsiya loyihasini amalga oshirish. | 1. “Navoiy KMK” AJ mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini barqarorlashtirish maqsadida kerakli asbob-uskuna va texnikalarni xarid qilish shartnomalarini imzolash.<br><br>2. Tegishli ekspertiza jarayonlarini oʻtkazish va uskunalarni bosqichma-bosqich ishlab chiqarishga joriy etish.<br><br>Bunda, xorijiy tijorat banklari kreditlarini jalb qilish. | 2024-yil sentabr<br><br>2024 — 2026-yillarda | Texnik-iqtisodiy asosnomaga muvofiq<br><br>*(xorijiy bank kreditlari va oʻz mablagʻlari)* | “Navoiy KMK” AJ<br><br>Q. Sanaqulov,<br><br>Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi<br><br>B. Islamov |
| 14. | “Oʻzmetkombinat” AJ da yiliga 1 mln tonna issiq holda prokatlangan list oʻramlar ishlab chiqarish quvvatiga ega Quyuv prokatlash majmuasini qurish. | 1. Majmuani qurilish-montaj ishlarini yakunlash.<br><br>2. “Quyuv prokatlash majmuasini qurish” loyihasini foydalanishga topshirish. | 2024-yil sentabr<br><br>2024-yil dekabr | Texnik-iqtisodiy asosnomaga muvofiq<br><br>*(xorijiy bank kreditlari va oʻz mablagʻlari)* | “Oʻzmetkombinat” AJ<br><br>R. Pirmatov,<br><br>Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi<br><br>B. Islamov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi (B. Islamov)* | | | | | |
| 15. | Iqtisodiyotning drayver tarmoqlari uchun mineral xomashyo bazasi zaxiralarini koʻpaytirish. | Geologiya sohasini istiqbolli rivojlantirish hamda olib borilayotgan geologiya-qidiruv ishlarini yanada jadallashtirishga qaratilgan mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta toʻldirish dasturini tasdiqlash. | 2024-yil mart | Yillik dastur doirasida ajratiladigan mablagʻlar hisobidan | Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamaxmudov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>B. Xodjayev |
| **49-maqsad: Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qogʻozlar bozorini jadal rivojlantirish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Qudratov)* | | | | | |
| 16. | Iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali hududlarning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish. | 309 ta yirik ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarini ishga tushirish orqali 36 mingta yangi ish oʻrinini tashkil etish. | 2024-yil davomida | Xorijiy investitsiyalar | - |
| 17. | Yirik va salohiyatli xorijiy investorlarni Oʻzbekistonga keng jalb etish orqali toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar oqimini koʻpaytirish. | 1. Xorijiy investorlarga taklif etish uchun istiqbolli loyiha takliflarini ishlab chiqish.<br>2. Xususiylashtirilayotgan davlat aktivlari toʻgʻrisida taqdimot materiallarini tayyorlash.<br>3. AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya va Shvetsiya davlatlarining salohiyatli kompaniyalari bilan uchrashuvlar reja-jadvalini tasdiqlash.<br>4. “Road show” va biznes forumlar orqali xususiylashtirilayotgan davlat aktivlari boʻyicha taqdimotlar oʻtkazish.<br>5. Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi hamda Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisiga puxta tayyorgarlik koʻrish va ularni yuqori saviyada oʻtkazish yuzasidan barcha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 2024-yil aprel<br>2024-yil aprel<br>2024-yil mart<br>Reja-jadvaliga muvofiq<br>2024-yil may | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi L. Kudratov<br>Davlat aktivlarini boshqarish agentligi A. Ortiqov<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi L. Kudratov, Tashqi ishlar vazirligi B. Saidov<br>Davlat aktivlarini boshqarish agentligi A. Ortiqov, Iqtisodiyot va moliya vazirligi I. Norqulov, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi L. Kudratov, Tashqi ishlar vazirligi B. Saidov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 18. | Istiqbolli loyihalarga salohiyatli investorlarni jalb etish va manzilli loyihalarning qoʻshimcha roʻyxatini shakllantirish. | 1. 41 ta istiqbolli loyiha boʻyicha dastlabki hisob-kitoblarni, loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqib, xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlariga taqdimot qilish.<br><br>2. Istiqbolli loyihalar boʻyicha salohiyatli xorijiy investorlar bilan kelishuvlarga erishish va ularni amalga oshirish bosqichlarini nazarda tutuvchi “yoʻl xaritasi”ni tasdiqlash. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil 1-iyul | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov,<br><br>manfaatdor vazirlik, idora va xoʻjalik birlashmalari |
| 19. | Xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar va jamgʻarmalarning grant mablagʻlarini jalb qilishni jadallashtirish. | 1. 2024-yilda 1 mlrd dollarlik grant mablagʻlarini jalb qilish boʻyicha kelishuvlarga erishish (bitimlar va memorandumlar imzolash).<br><br>2. Grant mablagʻlarini jalb qilish boʻyicha rejalarni Oʻzbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilariga sohalar kesimida taqsimlab berib, jalb qilingan grant mablagʻlari boʻyicha hisobotlarini eshitib borish. | 2024-yil davomida<br><br>2024-yil davomida har oyda | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov,<br><br>mahalliy hokimliklar<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Oʻzbekiston Respublikasining chet ellardagi elchilari |
| **50-maqsad: Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Markaziy bank (M. Nurmuratov)* | | | | | |
| 20. | Lizing xizmatlari bozori samaradorligini oshirish. | 1. Lizing xizmatlarini koʻrsatuvchi tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish borasida vakolatli organni belgilash.<br><br>2. Lizing xizmatlarini koʻrsatuvchi tashkilotlarga oid yagona reyestr yuritishni joriy etish.<br><br>3. Lizing xizmatlarini koʻrsatishni xabardor qilish tartibida amalga oshirish faoliyat turiga oʻtkazish. | 2024-yil iyun | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Bosh prokuratura<br><br>N. Yoʻldoshev |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **51-maqsad: “Yashil iqtisodiyot”ga oʻtish, uning asosi boʻlgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish koʻrsatkichlarini keskin oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Energetika vazirligi (J. Mirzamaxmudov)* | | | | | |
| 21. | Respublika boʻylab qoʻshimcha 1270 MVt quvvatli quyosh fotoelektr va 200 MVt quvvatli shamol elektr stansiyalarini, shuningdek, mikro va kichik GESlarni ishga tushirish. | 1. Toshkent viloyatida quvvati 200 MVt boʻlgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish. | 2024-yil oktabr | “ACWA Power” (Saudiya Arabistoni) mablagʻlari | “Milliy elektr tarmoqlari” AJ D. Isaqulov, “Oʻzbekgidroenergo” AJ A. Sanginov, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari |
| | | 2. Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida quvvati 300 MVt boʻlgan (II faza) quyosh fotoelektr stansiyasini toʻliq quvvatda ishga tushirish. | 2024-yil noyabr | China Gezhouba (XXR) mablagʻlari | |
| | | 3. Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanida quvvati 300 MVt boʻlgan (II faza) quyosh fotoelektr stansiyasini qurish. | 2024-yil noyabr | China Gezhouba (XXR) mablagʻlari | |
| | | 4. Namangan viloyati Pop tumanida quvvati 250 MVt boʻlgan (I faza) quyosh fotoelektr stansiyasini qurish. | 2024-yil dekabr | Tepelen Group (Shveysariya) mablagʻlari | |
| | | 5. Navoiy viloyati Tomdi tumanida quvvati 220 MVt boʻlgan (I faza) quyosh fotoelektr stansiyasini qurish. | 2024-yil dekabr | Tepelen Group (Shveysariya) mablagʻlari | |
| | | 6. Navoiy viloyati Tomdi tumanida quvvati 200 MVt boʻlgan (II faza) shamol elektr stansiyasini qurish. | 2024-yil dekabr | Masdar (BAA) mablagʻlari | |
| | | 7. Respublika gidrosalohiyatidan oqilona foydalanish darajasini oshirish loyihasi doirasida umumiy quvvati 54,8 MVt boʻlgan mikro va kichik GESini ishga tushirish. | 2024-yil yakuniga qadar | Tashabbuskorlar mablagʻlari | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 22. | Hududlarda umumiy quvvati 350 MVt boʻlgan kichik quvvatli quyosh panellarini oʻrnatish. | Ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralariga 60,9 MVt, tadbirkorlik subyektlariga 175,7 MVt, aholi xonadonlariga 102,2 MVt, koʻp qavatli turar joylarga 8,0 MVt boʻlgan kichik quvvatli quyosh panellari oʻrnatish. | 2024-yil yakuniga qadar | Tashabbuskorlar mablagʻlari, bank kreditlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari,<br><br>Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi<br><br>Sh. Xodjayev,<br><br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>B. Xodjayev |
| 23. | Sanoat tarmoqlari korxonalari va ijtimoiy soha obyektlarida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan va tashkiliy texnik tadbirlarni oʻz ichiga olgan dasturiy ta'minotni yaratish. | 1. Sanoat tarmoqlari korxonalari va ijtimoiy soha obyektlarida energiya sigʻimi yuqori boʻlgan korxona va tashkilotlar roʻyxatini shakllantirish.<br><br>2. Energiya sigʻimi yuqori boʻlgan korxona va tashkilotlarda yoqilgʻi-energiya resurslari iste'molini tahlil qilib boruvchi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari boʻyicha nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotni yaratish yuzasidan texnik topshiriqni ishlab chiqish va tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish.<br><br>3. Tasdiqlangan texnik topshiriq asosida dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, energiya sigʻimi yuqori boʻlgan korxonalar va ijtimoiy soha obyektlarida test rejimida qoʻllash. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil sentabr<br><br>2024-yil dekabr | Energetika vazirligi huzuridagi energiya tejamkorlik jamgʻarmasi | manfaatdor vazirlik va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 24. | Elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalarini oʻrnatish va tarmoqqa ulash tartib-taomillarini keskin soddalashtirish. | Yuridik shaxslar tomonidan elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalarini oʻrnatish va tarmoqqa ulash uchun ruxsat olish jarayonlarini kamida 1 oygacha tushirish. | 2024-yil aprel | - | “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ<br><br>U. Mustafayev,<br><br>Kadastr agentligi<br><br>F. Pulatov,<br><br>Davlat aktivlarini<br><br>boshqarish agentligi<br><br>A. Ortikov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Markaziy bank (M. Nurmuratov)* | | | | | |
| 25. | “Yashil kreditlar”ni jalb qilish va moliya bozorini tartibga solishda ESG tamoyillarini joriy qilish. | Banklarning kredit portfellarini diagnostika qilish va dekarbonizatsiya boʻyicha ustuvorliklarni aniqlash va ESG risklarini boshqarish uchun konsalting kompaniyalarini jalb qilish. Bunda:<br><br>banklarning kredit va investitsion portfellarini “yashillashtirish”;<br><br>xalqaro miqyosda banklarning mavqeyini oshirish;<br><br>xalqaro moliya institutlari hamda Yashil iqlim jamgʻarmasi orqali iqlimni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish. | 2024-yil iyun | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Transport vazirligi (I. Maxkamov)* | | | | | |
| 26. | Jamoat transportini ekologik toza yoqilgʻiga oʻtkazish. | 1. Samarqand shahri jamoat transporti uchun 100 ta elektrobusni xarid qilish choralarini koʻrish.<br><br>2. Toshkent shahri jamoat transporti uchun qoʻshimcha 200 ta elektrobusni xarid qilish choralarini koʻrish. | 2024-yil iyul<br><br>2024-yil dekabr | Xalqaro moliya institutlari mablagʻlari | Toshkent shahar va Samarqand viloyati hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 27. | Koʻp qavatli uy-joylardagi xonadonlarni energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholashni tashkil etish. | 1. Koʻp kvartirali uylardagi xonadonlarning energiya samaradorligini baholash tartibini ishlab chiqish.<br><br>2. Baholash tartibi asosida koʻp kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash boʻyicha qisqa va oʻrta muddatli chora-tadbirlar rejalarni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | 2024-yil avgust<br><br>2024-yil sentabr | Energetika sohasidagi tadbirlar uchun ajratilgan budjet mablagʻlari doirasida | Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamaxmudov, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari,<br><br>Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov)* | | | | | |
| 28. | Ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan “yashil” davlat xaridlarini amalga oshirish boʻyicha davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish. | 1. Davlat xaridlarini amalga oshirishda “Yashil” xaridlar uchun ustuvorlik belgilovchi huquqiy bazani yaratish.<br><br>2. Davlat xaridlarini amalga oshirishda iqtisodiy va ekologik omillarning mutanosibligini hamda ushbu jarayonda jamoatchilikning ishtirokini ta'minlash. | 2024-yil may<br><br>Doimiy | - | Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamaxmudov |
| **52-maqsad. Iqtisodiyot tarmoqlar va aholini zaruriy energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Energetika vazirligi (J. Mirzamaxmudov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 29. | Respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va aholisini tabiiy gaz bilan barqaror ta'minlash. | 1. “Oʻzbekneftgaz” AJ tomonidan 2024-yilda quyidagi geologik-texnik tadbirlarni amalga oshirish:<br><br>95 ta ishlatish qudugʻini burgʻilash;<br><br>81 ta quduqda murakkab turdagi kapital ta'mirlash ishlarini olib borish hisobiga ularni ishlab chiqarishga qaytarish;<br><br>42 ta texnologik tadbirni amalga oshirish.<br><br>2. Bajarilgan ishlar evaziga 29,3 mlrd metr kub tabiiy gazni qazib chiqarish. | 2024-yil davomida | Korxonalar oʻz mablagʻlari va toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy kreditlar | “Oʻzbekneftgaz” AJ<br><br>B. Sidiqov,<br><br>“Sanoat Energetika guruhi” MCHJ XK<br><br>T. Yusupov,<br><br>mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar,<br><br>neft-gaz sohasidagi xususiy korxonalar |
| 30. | Respublikada oʻsib borayotgan elektr energiyaga boʻlgan talabni qondirish maqsadida yangi generatsiya quvvatlarini yaratish. | 1. Sirdaryo viloyatidagi 1 500 MVt quvvatli Sirdaryo-2 issiqlik elektr stansiyasining navbatdagi 500 MVt quvvatini;<br><br>2. “Toshkent IEM”da 64 MVt quvvatli 2 ta gaz turbina qurilmasini ishga tushirish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil mart | Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov,<br><br>“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ<br><br>B. Jurayev,<br><br>“Oʻzbekgidroenergo” AJ<br><br>A. Sanginov |
| 31. | Respublika hududidagi magistral va taqsimlash elektr tarmoqlarini rivojlantirish. | 1. Quvvati 1 502 MVA boʻlgan 2 ta yuqori kuchlanishli podstansiyani va 465 km yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini qurish;<br><br>2. 5,5 ming km uzunlikdagi elektr taqsimlash tarmoqlari va 1,5 mingta transformator punktini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish. | 2024-yil dekabr<br><br>2024-yil dekabr | Xalqaro moliyaviy institutlar mablagʻlari,<br><br>“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ,<br><br>“Milliy elektr tarmoqlari” AJ mablagʻlari | “Milliy elektr tarmoqlari” AJ<br><br>D. Isaqulov,<br><br>“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ<br><br>U. Mustafoyev |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 32. | Respublika iste'molchilariga tabiiy gaz *(past bosimli tarmoqlar)* va suyultirilgan gaz yetkazib berishda monopoliyani bekor qilish, xususiy sektorni jalb qilish, energiya resurslarining bozor tamoyillarini joriy etish va resurslarning hisob-kitobini aniq yuritishni yo‘lga qo‘yish. | 1. Tabiiy va suyultirilgan gaz taqsimlash tarmoqlarini xususiy sektorga o‘tkazish tartibini (nizom) ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash.<br><br>2. Ishlab chiqilgan tartib asosida tabiiy gaz taqsimoti tizimi 2024-2025-yillarda xususiy sektorga o‘tkaziladigan “pilot” hududlarni aniqlash.<br><br>3. Ushbu hududlardagi tizimni xususiy sektorga o‘tkazish yuzasidan salohiyatli kompaniyalar bilan o‘tkaziladigan muzokaralar natijasi bo‘yicha aniq shartlar asosida gaz taqsimlash tarmoqlarini xususiy sektorga o‘tkazish. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil may<br><br>2024-yil iyul | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov,<br>Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi<br>A. Kayumov,<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>L. Kudratov,<br>Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov |
| **53-maqsad:O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Transport vazirligi (I. Maxkamov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 33. | Milliy transport tizimini rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga mamlakatning barqaror iqtisodiy oʻsishini ta'minlash. | Mamlakatning global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini amalga oshirish.<br>Bunda:<br>Respublika hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini 13,7 mln tonnaga yetkazish;<br>yoʻlovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 12 foizga oshirish;<br>aviaqatnovlar sonini 40 foizga oshirish;<br>temir yoʻl xizmatlari hajmini 20 foizga oʻsishini ta'minlash;<br>Qozogʻiston, Qirgʻiziston va Tojikistonga avtobus qatnovlari sonini 2 barobarga oshirish. | 2024-yil yakuniga qadar | - | “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ<br>Z. Narzullayev,<br>“Uzbekistan Airports” AJ<br>J. Umarxodjayev,<br>“Uzbekistan Airways” AJ<br>Sh. Xudaykulov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 34. | Mamlakatda transport-ekspeditorlik faoliyatini rivojlantirish. | Mahalliy transport-ekspeditorlik tashkilotlarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha qaror loyihasini kiritish.<br><br>Bunda:<br><br>mahalliy transport-ekspeditorlik tashkilotlari xizmatidan foydalanishni ragʻbatlantirish boʻyicha zarur sharoitlarni yaratish;<br><br>xalqaro tashishlarda mahalliy ekspeditorlarni qoʻllab-quvvatlash;<br><br>transport-logistika markazlari faoliyatini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;<br><br>kiritiladigan depozit mablagʻlarining amaldagi miqdorini 4 barobarga hamda tashiladigan yillik kafolatlangan yuklar hajmini 2 barobarga kamaytirgan holda “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ bilan transport-ekspeditorlik xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha toʻgʻridan-toʻgʻri shartnoma tuzish tartibi nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 35. | Hududlarda jamoat transporti tizimini rivojlantirish. | 1. Andijon, Samarqand, Namangan, Qarshi va Urganch shaharlarida muntazam avtobus yoʻnalishlarini bosqichma-bosqich brutto-shartnoma tizimiga oʻtkazish. | 2024-yil mart | Mahalliy budjet mablagʻlari | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| | | 2. Nukus, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Termiz, Guliston, Fargʻona, Nurafshon, Angren, Olmaliq shaharlarda muntazam avtobus yoʻnalishlarini bosqichma-bosqich brutto-shartnoma tizimiga oʻtkazish. | 2024-yil dekabr | | |
| | | 3. Nukus shahri va viloyat markazlari jamoat transporti uchun jami 900 ta tabiiy gazda ishlaydigan avtobusni xarid qilish va yoʻnalishlarga biriktirish. | 2024-yil davomida grafik boʻyicha | Tadbirkorlik subyektlari mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari |
| | | 4. Jamoat transportining 54 ta yangi yoʻnalishlar tarmogʻini tashkil etish. | 2024-yil davomida | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 36. | Toshkent shahri jamoat transporti tizimini rivojlantirish. | 1. Jamoat transportini boshqarishning yagona intellektual tizimini joriy etish. | 2024-yil mart | Bank krediti | Toshkent shahar hokimligi<br>Sh. Umurzakov,<br>Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov |
| | | 2. Avtobuslar harakati ustuvorligini va piyodalar xavfsizligini ta'minlash maqsadida uzunligi 29 km bo‘lgan 8 ta asosiy transport koridorida (83 ta chorraha va 41 ta piyodalar o‘tish joyi) rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish. | 2024-yil davomida | Mahalliy budjet mablag‘lari | |
| | | 3. Shahar atrofi hududlari jumladan, Nazarbek hududidan Chorsu va Paxtakor metro bekatigacha hamda Uch qaxramon hududidan Yunusobod dehqon bozori va Shahriston metro bekatigacha alohida ekspress avtobus yo‘nalishlarini tashkil qilish. | | | |
| | | Toshkent metropoliteni uchun 11 ta yangi metro poyezdini (44 ta metro vagonini) xarid qilish. | 2024-yil davomida | Xorijiy bank krediti | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 37. | Toshkent shahrida tirbandliklarning oldini olish va piyodalar xavfsizligini ta'minlash. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish:<br><br>“Aqlli boshqaruv” tizimini joriy etish;<br><br>transport oqimini tahlil qilgan holda ayrim koʻchalarda bir tomonlama harakatni tashkil etish;<br><br>oliy ta'lim muassasalarida oʻqish vaqtlarini maqbullashtirish hisobiga tigʻiz vaqtlarda transportga boʻlgan yuklamani kamaytirish;<br><br>tigʻiz vaqtlarda katta hajmli va ogʻir vazinli yuk avtomobillarining harakatlanishini cheklash yoki tartibga solish;<br><br>transport oqimi yuqori boʻlgan chorrahalarda svetoforlar fazalarini qayta koʻrib chiqish;<br><br>255 ta chorraha va kesishmalarni muvofiqlashtirilgan svetofor boshqaruvi — “aqlli svetoforlar” tizimiga oʻtkazish;<br><br>kamida 10 ta koʻchada yoʻl boʻyi pullik toʻxtash joylarini tashkil etish;<br><br>shaharga kiruvchi asosiy avtomobil yoʻllarida vazn va gabarit nazorati boʻyicha statsionar shoxobchalarni tashkil etish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil davomida | Mahalliy budjet mablagʻlari | Toshkent shahar hokimligi<br><br>Sh. Umurzakov,<br><br>Ichki ishlar vazirligi<br><br>P. Bobojonov,<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 38. | Respublika havo kemalari parkini 80 taga yetkazish va aviatashuvlar hajmini 20 foizga oshirish. | 1. Rezident aviakompaniyalar tomonidan havo kemalari olib kelinishini ta'minlash, shu jumladan lizing shartnomalari asosida 7 ta havo kemasini olib kelish yuzasidan amaliy choralarni koʻrish.<br><br>2. 3 ta yangi xalqaro yoʻnalish ochish hamda Toshkent shahrini viloyat markazlari bilan bogʻlovchi har kuni kamida 2 tadan reys qoʻyish. | 2024-yil dekabr | Rezident aviakompaniyalar mablagʻlari | “Uzbekistan Airways” AJ<br><br>Sh. Xudaykulov,<br><br>rezident aviakompaniyalar |
| 39. | “Andijon”, “Buxoro” va “Urganch” xalqaro aeroportlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish. | 1. “Andijon”, “Buxoro” va “Urganch” xalqaro aeroportlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va boshqarish boʻyicha loyihalar konsepsiyalari va loyiha baholash hujjatlarini ishlab chiqish.<br><br>2. Davlat-xususiy sheriklik sohasida vakolatli davlat organiga koʻrib chiqish uchun taqdim etish va boshqarish boʻyicha xalqaro tender e'lon qilish.<br><br>3. Tender natijalari boʻyicha davlat-xususiy sheriklik asosida shartnoma rasmiylashtirish. | 2024-yil iyul<br><br>2024-yil avgust<br><br>Tender-natijalariga koʻra | - | “Uzbekistan Airports” AJ<br><br>J. Umarxodjayev |
| 40. | Respublika temir yoʻl vagonlar parkini yangilash va modernizatsiya qilish. | “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ tarkibidagi ishlab chiqarish korxonalarida Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi hisobidan 30 ta yangi zamonaviy yoʻlovchi vagonlarini ishlab chiqarish. | 2024-yil noyabr | Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi mablagʻlari,<br><br>“Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ oʻz mablagʻlari | “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ<br><br>Z. Narzullayev<br><br>Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi<br><br>Sh. Vafayev |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 41. | Mamlakat temir yoʻl infratuzilmasini rivojlantirish hamda elektrlashtirilgan temir yoʻllar ulushini oshirish. | 1. “Oqkoʻprik” temir yoʻl stansiyasining oʻtkazuvchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida qoʻshimcha temir yoʻllarini qurish.<br><br>2. Elektrlashtirilgan yuqori tezlikdagi “Navoiy — Buxoro” temir yoʻl liniyasining ikkinchi yoʻlini qurish (92,1 km) loyihasini yakunlash. | 2024-yil dekabr | “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ mablagʻlari hamda jalb qilinadigan boshqa mablagʻlar | “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ<br><br>Z. Narzullayev,<br><br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov |
| 42. | Temir yoʻl sohasini raqamlashtirish. | 1. Xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda Raqamli temir yoʻl strategiyasini ishlab chiqish.<br><br>2. “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ “Yagona darcha” axborot tizimini Bojxona qoʻmitasining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish.<br><br>3. Temir yoʻl chiptalarini mobil ilova va elektron toʻlov tizimlari orqali sotishni rivojlantirish, onlayn elektron tizim orqali sotish hajmini 70 foizga yetkazish choralarini koʻrish. | 2024-yil avgust<br><br>2024-yil mart<br><br>2024-yil davomida | “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJoʻz mablagʻlari | “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ<br><br>Z. Narzullayev |
| 43. | Avtomobil yoʻllari, shaharlar va boshqa aholi punktlari koʻchalari holatini yaxshilash. | 1. Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlardagi 2,7 ming kmdan ziyod umumiy foydalanishdagi avtomobil yoʻllarini ta'mirlash.<br><br>2. Hududlarda 10 ming kmdan ortiq shaharlar va boshqa aholi punktlari koʻchalarini ta'mirlash.<br><br>3. Ta'mirtalab 110 dona koʻprik inshootlarini tiklash. | 2024-yil davomida | Avtomobil yoʻllarini rivojlantirish maqsadli jamgʻarmasi mablagʻlari | Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi<br><br>J. Tursunov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 44. | Davlat-xususiy sheriklik asosida pulli avtomobil yoʻllarini tashkil etish loyihalarini amalga oshirish. | 1. “Toshkent — Andijon” pulli avtomobil yoʻlini qurish loyihasi doirasida xususiy sherikni tanlash boʻyicha tender hujjatlarini tayyorlash va xalqaro tender savdolarini e'lon qilish.<br><br>2. “Toshkent — Samarqand pulli avtomobil yoʻlini qurish loyihasi doirasida xususiy sherikni tanlash boʻyicha tender hujjatlarini tayyorlash va xalqaro tender savdolarini e'lon qilish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil avgust | - | Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi<br><br>J. Tursunov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov |
| 45. | Avtomobil yoʻllarida transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatini ta'minlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 1. Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida tajriba-sinov tariqasida piyodalar oʻtish yoʻlaklariga zamonaviy yoritgichlar oʻrnatish.<br><br>2. Aholi punktlarida piyodalar harakatlanishi uchun 150 km piyodalar yoʻlaklarini barpo etish.<br><br>3. 150 dan ortiq svetofor obyektlarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish.<br><br>4. Avtomobil yoʻllarida 37 mingdan ortiq yoʻl belgilarini oʻrnatish. | 2024-yil davomida | “Xavfsiz yoʻl va xavfsiz piyoda” respublika jamgʻarmasi,<br><br>Ichki ishlar vazirligi “Xavfsiz shahar” tizimlarini rivojlantirish markazi mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari,<br><br>Ichki ishlar vazirligi<br><br>P. Bobojonov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi<br><br>J. Tursunov |
| **54-maqsad: Qishloq xoʻjaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qishloq xoʻjaligi vazirligi (I. Abduraxmonov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 46. | Hosildorlikni paxta boʻyicha oʻrtacha 45 — 50 sentnerga, gʻalla boʻyicha 80 — 100 sentnerga yetkazish. | Paxta va gʻalla ekinlari hosildorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.<br><br>Bunda,<br><br>klasterlarga xorijdan hosildorligi yuqori urugʻliklarni olib kirishga ruxsat berish;<br><br>paxtada 5 ta va gʻallada 8 ta yangi tezpishar, serhosil navlarni tanlash va joylashtirish;<br><br>tanlab olingan navlar maydonini har yili kamida 10 foizga kengaytirib borish;<br><br>zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni paxta va gʻalla maydonlarining 40-50 foizida joriy etish;<br><br>ilmiy tadqiqot muassasalari va agroklasterlar oʻrtasida shartnomalar tuzish, olimlarni agroklasterlarga biriktirish hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar berish;<br><br>tuproq unumdorligi past boʻlgan paxta maydonlarida almashlab ekish tizimini kengaytirishni nazarda tutish. | 2024-yilaprel | Tashabbuskorlar mablagʻlari hisobidan | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 47. | Quvvati 45ming tonna boʻlgan 11ta agrologistika markazi faoliyatini yoʻlga qoʻyish | 1. Respublika hududlarida tashkil etiladigan agrologistika markazlari va saqlash korxonalarining manzilli roʻyxatini shakllantirish;<br>2. Amalga oshiriladigan loyihalarda investitsiya mablagʻlarining oʻzlashtirilishi hamda amalga oshirilayotgan ishlar boʻyicha oylik monitoring oʻrnatish.<br>3. Loyihalarni ishga tushirishda yuzaga keladigan muammolarni oʻrganish va bartaraf etish choralarini koʻrish. | 2024-yil mart<br>2024-yil davomida | Xalqaro moliya institutlari mablagʻlari, tashabbuskorlarning oʻz mablagʻlari | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>L. Kudratov,<br>mahalliy hokimliklar |
| 48. | Chorvachilikda yillik oʻsish sur'atini kamida 3,8 foizga yetkazish. | Chorvachilikda oʻsish sur'atini oʻrtacha 3,8 foizga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.<br>Bunda,<br>qoramollar bosh sonini 14,1 mln boshga, qoʻy-echkilar bosh sonini 24,5 mln boshga,<br>goʻsht ishlab chiqarishni 2,7 mln tonnaga (tirik vaznda), sut — 12,7 mln tonnaga yetkazish;<br>9 mlrd dona tuxum ishlab chiqarish;<br>naslli va zoti yaxshilangan mahalliy qoramollar ulushini 70 foizga yetkazish;<br>250 ta chorvachilik subyektini naslchilik toifasiga oʻtkazish orqali naslchilik xoʻjaliklari sonini 1600 taga yetkazishni nazarda tutish. | 2024-yil aprel | Tashabbuskorlar mablagʻlari va tijorat banklarning krediti | Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasi<br>B. Norqobilov,<br>“Parrandasanoat” uyushmasi<br>B. Isayev,<br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 49. | Ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,2 barobarga, eksportni hajmini 1,5 barobarga oshirish. | 1. 3,6 trln soʻmlik ipak mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish.<br><br>2. Ipak mahsulotlarining eksportini 150 mln dollarga yetkazish. | 2024-yil davomida | **Tashabbuskorlar mablagʻlari** | Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qoʻmitasi,<br><br>“Oʻzbekipaksanoat” uyushmasi<br><br>O. Jumayev |
| 50. | Agrar sohani zamonaviy qishloq xoʻjaligi texnikalari bilan ta'minlash choralarini koʻrish. | Agrar sohani zamonaviy qishloq xoʻjaligi texnikalari bilan ta'minlash boʻyicha chora-tadbirlar dasturini qabul qilish. Bunda:<br><br>agrar sohani zamonaviy qishloq xoʻjaligi texnikalariga boʻlgan talabni aniqlash. Bunda, texnika ta'minoti past boʻlgan chorvachilik, sabzavot va polizchilik, bogʻdorchilik va uzumchilik yoʻnalishlarini rivojlantirishga alohida ustuvorlik berish;<br><br>qishloq xoʻjaligi texnikalarini mahalliylashtirish darajasini oshirish;<br><br>agroklasterlar va fermer xoʻjaliklariga texnikalarni qulay kredit va lizing shartlari asosida yetkazib berish hamda kafolatli servis xizmatlarini tashkil etish. | 2024-yil mart | **Tijorat banklari kredit mablagʻlari** | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>“Oʻzavtosanoat” AJ<br><br>U. Roziqulov,<br><br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 51. | Qishloq xoʻjaligida xavfli pestitsidlardan foydalanishni tartibga solish. | 1. JSST va Pestitsidlarga qarshi kurashish xalqaro tashkilot (PAN) tomonidan oʻta va yuqori darajada xavfli deb topilgan pestitsidlarning oʻrniga muqobil vositalarni qoʻllash.<br><br>2. Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligini ruxsat etiladigan kimyoviy vositalar roʻyxatini shakllantirish boʻyicha vakolatli davlat organi sifatida e'tirof etish, roʻyxatni koʻrsatib oʻtilgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda shakllantirish. | 2024-yil iyun | - | Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi |
| 52. | Meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmini kamida 2,5 mlrd dollarga yetkazish. | Bunda:<br><br>“in-vitro” usulida 12 mln dona sertifikatlangan koʻchatlarni koʻpaytirish va meva-uzum yetishtiruvchilarga yetkazib berish;<br><br>sabzavot mahsulotlarini intensiv usulda yetishtirish koʻlamini 31 ming gektarga yetkazish;<br><br>zamonaviy texnologiyalarni qoʻllagan holda sabzavotdan gektariga oʻrtacha 350-450 sentner hosil olishni ta'minlash. | 2024-yil davomida | Xalqaro moliya institutlari mablagʻlari,<br><br>Bogʻdorchilikni rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari | Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi<br><br>I. Ergashev,<br><br>Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 53. | Mahalliy meva-sabzavot mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish. | 1. Agroklaster, dehqon va fermer xoʻjaliklari, biolaboratoriya va oʻsimliklar klinikalari mutaxassislari, aholi tomorqa yer egalar meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda zararkunandalarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini qoʻllash boʻyicha oʻquv kurslarini tashkil etish. | Doimiy | - | Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi<br>I. Ergashev, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Oʻzbekiston paxta-toʻqimachilik klasterlari uyushmasi<br>M. Raxmatov |
| | | 2. Xususiy sektor bilan hamkorlikda 13ta yangi oʻsimliklar klinikasini, aholi tomorqa yerlarida oʻsimliklarni himoya qilish xizmatlarini koʻrsatish uchun 200ta otryad tashkil etish hamda shu hisobdan 500ta yangi ish oʻrinini yaratish. | 2024-yil mart-aprel | | |
| | | 3. Aholi xonadonlarida biolaboratoriyalarning 400ta mavsumiy shoxobchasini tashkil etish orqali 1 200 ta yangi ish oʻrini yaratish. | 2024-yil iyul | | |
| | | 4. Respublika hududlarida katta iqtisodiy zarar keltirishi xavfi boʻlgan zararkunandalar boʻyicha feromonitoring yuritish. | 2024-yil avgust | | |
| | | 5. Tadbirkorlik subyektlari vakillari bilan qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga qoʻyilgan eksport talablari boʻyicha seminar, davra suhbatlarini tashkil etib borish. | Doimiy tarzda | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 6. Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti geografiyasi va nomenklaturasini kengaytirish boʻyicha xorijiy davlatlarning karantin xizmatlari bilan muzokaralar oʻtkazish hamda 20 ta davlatdan 250 turdagi meva-sabzavot mahsulotlari eksporti uchun fitosanitar ruxsatlar olish. | 2024-yil davomida | | |
| 54. | Tuproqni himoyalovchi agrotexnologiyalardan foydalanilishi, yer ustki qismini doimo qoplama bilan qoplanishi, tuproq ifloslanishi hamda mikroflorasi yoʻqolishining oldini olish monitoringini yoʻlga qoʻyish. | 1. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar tomonidan yer ustki qismini doimo qoplama bilan qoplash hamda tuproq himoyalanishining kuzatuvini olib borish.<br><br>2. Qishloq xoʻjaligi yerlari dala chetlariga ekin ekilishi hamda koʻp yillik daraxtlar oʻtqazilishini ta'minlash.<br><br>3. Tuproqning kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi hamda uning mikroflorasi yoʻqolishining oldini olish boʻyicha yerdan foydalanuvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqish. | doimiy tarzda<br><br>doimiy tarzda<br><br>2024-yil davomida | | Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti |
| 55. | Agrokimyoviy tahlil laboratoriyalari tomonidan tuproq tahlillari asosida agrokimyoviy xaritanomalar ishlab chiqish. | 1. Fermer xoʻjaliklarining tuproq namunalari tahlillari asosida agrokimyoviy xaritanomalarni ishlab chiqish.<br><br>2. Agrokimyoviy xaritanomalarni raqamlashtirish va oʻtkazilgan tahlil xulosalarini "uzagrolab.uz" elektron platformasiga integratsiya qilish.<br><br>3. Agrokimyoviy tahlil sohasida malakali kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish. | 2024-yil oktabr | - | Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi<br><br>I. Ergashev |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 56. | Qishloq xoʻjaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish. | Bunda, tegishli tarmoqlarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda shu jumladan, zamonaviy issiqxonalar va intensiv bogʻlar agronomlari hamda baliqchilik sohasida ixtiologlar tayyorlash tizimini takomillashtirish boʻyicha takliflarni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil may | - | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>K. Sharipov |
| **55-maqsad: Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qoʻshilgan qiymati yuqori boʻlgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Kudratov)* | | | | | |
| 57. | Tashqi bozorlarni diversifikatsiya qilish hamda tovarlar va xizmatlar eksporti hajmini oshirish. | 1. Eksportbop 10 ta turdagi tayyor mahsulotning har biriga 10 tadan yangi istiqbolli bozorlarni aniqlash.<br><br>2. Ushbu bozorlarda mahsulotlarga texnik va sifat talablarini oʻrganish, eksport hajmini oshirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish, mahalliy korxonalar vakillarini oʻqitish va laboratoriyalarini tashkil etishga koʻmaklashish.<br><br>3. Xorijiy mamlakatlar bilan Oʻzbekiston mahsulotlari uchun sertifikat, boj va yigʻimlarni yumshatish boʻyicha muzokaralar oʻtkazish.<br><br>4. Mahalliy korxonalarni tomonidan elektron savdo maydonchalari orqali eksport qilishda mavjud kamchiliklarni oʻrganish va ularni bartaraf etish choralarini koʻrish. | 2024-yil mart | - | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Savdo-sanoat palatasi<br><br>D. Vaxobov,<br><br>Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi,<br><br>Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi<br><br>I. Ergashev,<br><br>Andijon viloyati hokimligi<br><br>Sh. Abduraxmonov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 58. | “Eksport akselerator” dasturini amalga oshirish. | 1. Dasturni ishlab chiqishda xorijning ilgʻor konsalting kompaniyalarini jalb etish.<br><br>2. Dasturni amalga oshirish boʻyicha “yoʻl xaritasi”ni ishlab chiqish va tasdiqlash.<br><br>3. Dasturni doimiy monitoring qilib borish va natijasi boʻyicha Hukumatga hisobot kiritib borish. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil may<br><br>2024-yil davomida | Eksportni ragʻbatlantirish agentligi mablagʻlari | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| 59. | “Yangi Oʻzbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqish. | 1. Xorijiy bozorlarga olib chiqiladigan milliy brendlar roʻyxatini shakllantirish.<br><br>2. Milliy brendlarni xorijda targʻib qilish va xaridorlarga tanishtirish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br><br>3. Xorijiy bozorlarda koʻrgazma va yarmarka tadbirlarini tashkil etish orqali milliy brendlar ostida mahsulotlarni targʻib qilish.<br><br>4. Yil davomida mahalliy korxonalarning xalqaro koʻrgazmalarda ishtirokini 2 barobarga oshirish dasturini tarmoqlar va mamlakatlar kesimida tasdiqlash.<br><br>5. Rossiyaning Ivanovo, Vyetnamning Xanoy, Italiyaning Prata, Polshaning Lots shaharlarida toʻqimachilik savdo uylarini ochish. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil may<br><br>2024-yil davomida<br><br>2024-yil mart<br><br>2024-yil aprel | Eksportni ragʻbatlantirish agentligi mablagʻlari | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Savdo-sanoat palatasi<br><br>D. Vaxobov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 60. | Yangi xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etish hamda 822 ta korxonaga xalqaro standartlar joriy qilish orqali eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini oshirish. | 1. Yengil sanoat, charm-poyabzal, elektrotexnika, qurilish, oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi, metallurgiya, kimyo, ekologiya va boshqa sohalardagi ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulotlarga 1400 dan ortiq xalqaro va Yevropa standartlarini (olish) xarid qilish. | 2024-yil I chorak | Eksportni rag‘batlantirish agentligi mablag‘lari | Savdo-sanoat palatasi<br>D. Vaxobov,<br>O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi |
| | | 2. Standartlarni davlat tiliga tarjima qilish uchun O‘zbekiston Standartlar institutiga zarur mablag‘larni ajratish. | Buyurtmaga asosan | | |
| | | 3. Xalqaro va Yevropa standartlarini ishlab chiqarishga joriy etish. | 2024-2025-yillar davomida | | |
| | | 4. Eksportchi hamda eksport qilish salohiyati mavjud bo‘lgan korxonalarga xalqaro standartlarni joriy etishda yaratilgan imkoniyatlar bo‘yicha seminarlar tashkil etish va tarqatma materiallar tarqatish. | 2024-yil davomida | | |
| | | 5. Xalqaro standartlar joriy etish bo‘yicha tarmoq jadvallarini ishlab chiqish. | 2024-yil mart | | |
| | | 6. Tarmoq jadvaliga asosan korxonalarga xalqaro standartlarni joriy etishga ko‘maklashish. | 2024-yil davomida | | |
| 61. | Drayver sohalarning eksport salohiyatini yanada rivojlantirish. | Mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan eksportbop mahsulot va xizmatlarni eksport qilishdagi muammolarni tahlil qilish va ular yuzasidan takliflar ishlab chiqish. | 2024-yil mart | - | Savdo sanoat palatasi<br>D. Vaxobov,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov,<br>Soliq qo‘mitasi<br>Sh. Kudbiyev,<br>Bojxona qo‘mitasi<br>A. Mavlonov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **56-maqsad: Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil oʻtkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi (A. Kayumov)* | | | | | |
| 62. | Raqobat va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari buzilganligiga oid ishlarni tezkor koʻrib chiqish va zudlik bilan qaror qabul qilish. | Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi faoliyatidagi yagona axborot tizimi doirasida qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qoʻzgʻatish va ularni koʻrib chiqish tartiblarini toʻliq raqamlashtirish.<br><br>Bunda:<br><br>raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama toʻgʻrisidagi qonunbuzilishlar boʻyicha elektron shaklda murojaat qilinadi;<br><br>murojaatlar elektron shaklda roʻyxatdan oʻtkazilib, taraflar xabardor qilinadi;<br><br>komissiya qarorlari elektron shaklda yuboriladi yoki onlayn taqdim etiladi hamda murojaatlar holatini onlayn tarzda kuzatib borish imkoniyati yaratiladi;<br><br>hisobotlar elektron shaklda yuritiladi. | 2024-yil dekabr | - | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi (B. Zakirov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 63. | Issiqlik ta'minoti tizimini yaxshilash sohasida davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida loyihalarni amalga oshirish. | 1. Markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimlarini yaxshilash, shaffoflikni ta'minlash hamda sohalarga yoʻnaltirilayotgan budjet mablagʻlarini samarali ishlatish maqsadida, ushbu yoʻnalishlarda davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida loyihalarni keng joriy qilish uchun amalga oshiriladigan loyihalar dasturini tayyorlash.<br><br>2. Shahar va tumanlarning issiqlik ta'minoti tizimiga xususiy sektorni jalb qilish orqali ushbu sohalarni moliyaviy faoliyatini foyda bilan yuritadigan biznesga aylantirish uchun keng sharoitlar yaratish choralarini koʻrish. | 2024-yil iyul<br><br>2024-yil davomida | -<br><br>Xususiy sherik mablagʻlari hisobiga | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Transport vazirligi (I. Maxkamov)* | | | | | |
| 64. | Umumiy foydalanishdagi avtomobil yoʻllarini ekspluatatsiya qilish ishlariga autsorsing asosida xususiy sektorni jalb qilish loyihalarini amalga oshirish. | 1. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yoʻllarini ekspluatatsiya qilish ishlarini autsorsing asosida xususiy sektor tomonidan amalga oshirishni tashkil etish tartibini tasdiqlash.<br><br>2. Tajriba-sinov tariqasida Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlarda uzunligi 20 km gacha boʻlgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yoʻllarini ekspluatatsiya qilish ishlariga autsorsing asosida xususiy sektorni jalb qilish loyihalarini amalga oshirish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil davomida | Avtomobil yoʻllarini rivojlantirish maqsadli jamgʻarmasi mablagʻlari | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi<br><br>J. Tursunov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 65. | Xususiy sektor ishtirokida temir yoʻl vokzallarida yoʻlovchilarga qulay sharoitlar yaratish, xizmat koʻrsatish va savdo obyektlarini tashkil etish. | 1. Barcha temir yoʻl vokzallarini optimizatsiya qilish hisobiga boʻshaydigan hududlarda savdo va xizmat koʻrsatish nuqtalarini tashkil qilish maqsadida tadbirkorlarga auksion orqali ijaraga berish.<br><br>2. Samarqand va Qoʻqon vokzallaridan foydalanish va ularni boshqarishga davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektorni jalb qilish. | 2024-yil davomida | "Oʻzbekiston temir yoʻllari" AJ mablagʻlari, xususiy tadbirkorlar mablagʻlari | Ichki ishlar vazirligi<br><br>P. Bobojonov,<br><br>Milliy gvardiya,<br><br>R. Djurayev,<br><br>"Oʻzbekiston temir yoʻllari" AJ<br><br>Z. Narzullayev |
| **57-maqsad: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy "IT-NUB"ga aylantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov)* | | | | | |
| 66. | 2024-yilda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi xizmatlar va servislar sonini 700 taga yetkazish. | 1. 2024-yilda elektron shaklga oʻtkaziladigan va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali koʻrsatilishi yoʻlga qoʻyiladigan xizmatlar va servislar roʻyxatini shakllantirish.<br><br>2. Roʻyxat asosida ularni bosqichma-bosqich Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali koʻrsatishni yoʻlga qoʻyish reja-grafigini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br><br>3. Tasdiqlangan reja-grafik asosida xizmatlar va servislarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joriy qilib borish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil mart<br><br>Reja-grafik asosida | Ijrochilar mablagʻlari | Adliya vazirligi<br><br>A. Toshkulov,<br><br>manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 67. | Internet tarmogʻidan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash. | Xalqaro internet tarmogʻiga ulanish tezligini 4 200 Gbit/s ga yetkazish. | 2024-yil dekabr | "Oʻzbektelekom" AK mablagʻlari,<br><br>telekommunikatsiya operatorlari mablagʻlari | "Oʻzbektelekom" AK |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 68. | Keng polosali internet tarmogʻi bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish. | 1. Magistral telekommunikatsiya tarmogʻi va aholi yashash maskanlarida 30 ming km optik tolali aloqa liniyalari qurish orqali ularning umumiy uzunligini 260 ming kilometrga yetkazish.<br><br>2. Aholi maskanlarini yuqori tezlikdagi keng polosali simli internet bilan ta'minlash darajasini 90 foizga yetkazish. | 2024-yil dekabr | Telekommunikatsiya operatorlari va provayderlari mablagʻlari | Telekommunikatsiya operatorlari va provayderlari |
| 69. | Xalqaro ahamiyatga egaavtomagistral va temir yoʻllarda mobil internet qamrovini kengaytirish. | Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral va temir yoʻllarning mobil internet bilan qamrov darajasini 90 foizgacha yetkazish. | 2024-yil dekabr | Mobil aloqa operatorlari mablagʻlari | Mobil aloqa operatorlari |
| 70. | Axborot texnologiyalari sohasida eksport qiluvchi korxonalar soni va eksport hajmini oshirish. | 1. IT-park eksport qiluvchi rezidentlari sonini 200 taga oshirish, shu jumladan xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalarni 30 taga koʻpaytirish.<br><br>2. Kompyuter dasturlash va autsorsing xizmatlari hajmini 10 trln soʻmga va ularning eksporti hajmini 800 mln dollarga yetkazish. | 2024-yil dekabr | - | "IT-Park" Direksiyasi,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qoʻmitasi (A. Mavlonov)* | | | | | |
| 71. | Bojxona toʻgʻrisidagi qonunchilikni buzish hollariga chek qoʻyish va ularning oldini olishga qaratilgan "Bojxona qoidabuzilishi" axborot tizimini yaratish. | Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va Bojxona qoʻmitasining yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi doirasida amaliyotga joriy etish. | 2024-yil mart | Bojxona qoʻmitasi maxsus jamgʻarmasi | Manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 72. | Xalqaro kuryerlik joʻnatmalari hisobini yuritishga qaratilgan "Kuryerlik joʻnatmalari" axborot tizimini yaratish. | Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. | 2024-yil sentabr | Bojxona qoʻmitasi maxsus jamgʻarmasi | Manfaatdor vazirlik va idoralar |
| **58-maqsad: Oʻzbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Turizm qoʻmitasi (U. Shadiyev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 73. | Xorijiy turistlar sonini 10,5 mln nafarga yetkazish. | 1. Yangi turizm yoʻnalishlari va mahsulotlarini taqdim qilish, xususan, ziyorat, eko, agro, “baliq ovi” turizmi, turizm qishlogʻi, turizm va gastronomik koʻchalar, choʻl hududlarida dam olish turizmi xizmatlari hamda marshrutlarini yaratish takliflarini tayyorlash. | 2024-yil mart — avgust | Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| | | 2. Transport va avtomagistral yoʻllari boʻylab turizm infratuzilmasi obyektlari tashkil etish boʻyicha takliflar tayyorlash hamda amaliy choralarni koʻrish. | 2024-yil dekabr | | |
| 74. | Turizm xizmatlari eksportini 2,5 mlrd dollarga yetkazish, shu jumladan, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 200 mln dollarga yetkazish. | 1. Xorijiy davlatlarda Oʻzbekistonning turizm salohiyatini keng targʻib qilish | 2024-yil davomida | Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| | | 2. Tibbiyot va ta'lim sohalarida hududlarning turizm salohiyatini targʻib qilish, jumladan Toshkent va Samarqand shaharlarida targʻibot kampaniyasini oʻtkazish. | 2024-yil davomida | | |
| | | 3. Nufuzli xalqaro tibbiyot va ta'lim muassasalarining filiallarini respublika hududlarida tashkil etish boʻyicha takliflarni shakllantirish. | 2024-yil aprel | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 75. | Ichki sayyohlar sonini 21 mlnga, ziyorat turizmi boʻyicha keladigan turistlar sonini 1,5 mln nafarga yetkazish. | 1. Hududlarning turizm salohiyatiga oid targʻibot materiallarini tayyorlagan holda ommaviy axborot vositalarida yoritish va infoturlar tashkil qilish. | 2024-yil mart — oktabr | Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| | | 2. Nomavsumiy oylarda chegirmalar taqdim etgan holda "Ichki turizm oyligi"ni tashkil qilish hamda "Ichki turizm haftaligi", "Ichki turizm kunlari" dasturlarini madaniy, koʻngilochar, milliy hamda diniy bayramlar, katta sport tadbirlari doirasida amalga oshirish. | 2024-yil mart — oktabr | | |
| | | 3. Har bir viloyatdan yiliga 1 ming nafardan nogironligi boʻlgan shaxslarning sayohatlarini bepul tashkil qilish. | 2024-yil mart — oktabr | Hisob-kitoblarga koʻra | |
| | | 4. Transport xizmatlarini koʻrsatuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan transport vositalarini nogironligi boʻlgan shaxslar uchun qulay tarzda jihozlashni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha takliflarni kiritish. | 2024-yil aprel | - | Transport vazirligi<br><br>I. Maxkamov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 76. | “Mehmonxona — transport — tur — operator — savdo va servis” korxonalarining kooperatsiya asosida faoliyat yuritadigan 4 ta yirik turizm klasteri (majmuasi)ni tashkil etish. | Oʻzbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish.<br><br>Yirik turizm klasterlari faoliyatini yoʻlga qoʻyish.<br><br>Bunda:<br><br>“Mehmonxona — transport — turoperator — savdo va servis” korxonalari kooperatsiyasini yoʻlga qoʻyish;<br><br>hududlarda 600 ta yangi mehmonxona, mehmon uylari va xostellar tashkil etish. | 2024-yil dekabr | Tashabbuskor mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 77. | Xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga hududlarda 600 ta joylashtirish vositalari tashkil etish. | 1. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br><br>2. Respublika boʻyicha 160 ta mehmonxona faoliyatini yoʻlga qoʻyish.<br><br>3. Respublika boʻyicha 300 ta oilaviy mehmon uyi va 70 ta xostel faoliyatini yoʻlga qoʻyish.<br><br>4. Respublikada 70 ta boshqa joylashtirish vositalari faoliyatini yoʻlga qoʻyish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil mart — dekabr | Tashabbuskor mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 78. | Fargʻona, Andijon, Namangan hamdaQoraqalpogʻistonda turistik xizmatlarni keng rivojlantirish. | Fargʻona, Andijon, Namanganning tuman va shaharlarini bogʻlovchi “Oltin vodiy sayyohlik halqasi”, Xorazm va Qoraqalpogʻiston boʻylab “Qal'alar halqasi” kabi yangi turistik yoʻnalishlarni tashkil qilish. | 2024-yil mart — avgust | Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari |
| **59-maqsad: Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 79. | Oʻrta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan koʻp boʻlgan tumanlarda zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish. | Xizmat koʻrsatish sohasida 10 mingta savdo servis obyektini tashkil etish choralarini koʻrish. Bunda:<br><br>amalga oshiriladigan loyihalarning manzilli roʻyxatini shakllantirish;<br><br>zarur yer va bino-inshootlarni auksion savdolarga chiqarib borish. | 2024-yil dekabr | - | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi<br><br>A. Ortiqov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A. Ortiqov)* | | | | | |
| 80. | Aholi gavjum boʻlgan koʻchalarda savdo, maishiy, sayilgoh va koʻngilochar xizmatlarini rivojlantirish uchun boʻsh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish. | Yangi xizmat koʻrsatish obyektlarini tashkil etish uchun 2024-yilda 2,2 mingta yer (lot) maydonlarni auksion savdolarga chiqarish.<br><br>Bunda:<br><br>infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum hududlarda boʻsh yer maydonlarini aniqlash;<br><br>aniqlangan yer maydonlarini belgilangan tartibda auksionga chiqarish;<br><br>auksionga chiqarilgan yer maydonlarini ular toʻgʻrisida hokim yordamchilari tomonidan, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida targʻibot ishlarini jadallashtirish orqali sotish. | 2024-yil dekabr | - | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi,<br><br>B. Zakirov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Kadastr agentligi<br><br>F. Pulatov,<br><br>Davlat aktivlarini boshqarish agentligi<br><br>A. Ortikov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **60-maqsad: Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi (B. Zakirov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 81. | Aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish. | 1. Respublikadagi 5 ta shaharning bosh rejasi loyihasini ishlab chiqish.<br><br>2. Respublikadagi 48 ta shaharchaning bosh rejasi loyihalarini ishlab chiqish.<br><br>3. Qishloq (ovullar)da joylashgan 116 ta aholi punktini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalarini ishlab chiqishni yoʻlga qoʻyish.<br><br>4. 146 ta aholi punktining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonlarini yakunlash. | 2024-yil dekabr | Mahalliy budjet mablagʻlari | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>QoraqalpogʻistonRespublikasiVazirlar Kengashi,viloyatlar vaToshkent shaharhokimliklari |
| 82. | Rivojlangan davlatlarning bino-inshootlar boʻyicha qurilish xavfsizligi me'yorlari asosida yangi standartlarni joriy qilish. | Qurilish-montaj ishlarini texnik jihatdan baholash, tekshirish va qabul qilish tizimiga xususiy sektorni keng jalb qilish boʻyicha takliflar tayyorlash. | 2024-yil sentabr | Ijrochilar mablagʻlari | Iqtisodiyot vamoliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| 83. | Ekspluatatsiya muddatini oʻtab boʻlgan hamda seysmik zaifligi va avariya alomatlari aniqlangan koʻp kvartirali uy-joylarni renovatsiya qilish choralarini koʻrish | 1. 2024-yil uchun koʻp kvartirali uy-joylarni renovatsiya qilish boʻyicha qonuniy asoslarni yaratish.<br><br>2. 2024-yil uchun koʻp kvartirali uy-joylarni renovatsiya qilish boʻyicha manzilli roʻyxatni shakllantirish hamda tasdiqlash. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil mart | -<br><br>mahalliy budjet mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari |
| 84. | “Yangi Oʻzbekiston” massivlari sonini 45 taga va uy-joy qurilishi hajmini 80 mingtaga yetkazish. | 1. 2024-yil uchun uy-joy qurilishi va ipoteka dasturini ishlab chiqishda yangidan barpo etiladigan “Yangi Oʻzbekiston” va boshqa massivlarni shaharlar hamda ularga tutash hududlarda joylashtirish.<br><br>2. “Yangi Oʻzbekiston” massivlari va uy-joyga talab yuqori boʻlgan hududlarda 80 ming xonadonli koʻp qavatli uy-joylar qurilishini amalga oshirish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil dekabr | Vazirlik va idoralarning mablagʻlari, tadbirkorlik subyektlarining oʻz mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 85. | Aholiga qulaylik yaratish hamda koʻrsati�ayotgan xizmatlar uchun oʻz vaqtida toʻlovlar amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida koʻp qavatli turar joy xonadonlarining tabiiy gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti, ichimlik va oqova suv hamda chiqindilarni olib chiqish xizmatlari kabi kommunal toʻlovlarini birlashtiruvchi yagona toʻlov tizimini joriy etish. | 1. Yagona toʻlov tizimining ishlashini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish va tasdiqlash.<br><br>2. Yagona toʻlov tizimini ishga tushirish hamda monitoring qilish imkoniyatini yaratish.<br><br>3. Yagona toʻlov tizimini tajriba-sinov tariqasida Navoiy shahrida joriy etish.<br><br>4. Koʻp qavatli uy-joylarda kommunal xizmatlar samaradorligini istiqomat qiluvchilar tomonidan kompleks baholash amaliyotini yoʻlga qoʻyish. | 2024-yil avgust<br><br>2024-yil sentabr<br><br>2024-yil oktabr<br><br>2024-yil iyuldan boshlab | Vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablagʻlari | Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamaxmudov,<br><br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br><br>A. Abduxakimov, “Oʻzsuvta'minot” AJ<br><br>D. Azimov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 86. | Noqonuniy va sifatsiz qurilishlarni hamda bino va inshootlarda seysmik, sanitar va xavfsizlik muammolarini bartaraf etish maqsadida, qonunbuzarliklarga qarshi ta'sirchan chora-tadbirlarni kuchaytirish boʻyicha qonunchilik hujjatlariga tegishli oʻzgartirishlar kiritish. | 1. Ta'sirchan chora-tadbirlarni kuchaytirish boʻyicha Singapur tajribasini oʻrganib chiqish yuzasidan ishchi guruhni tashkil etish.<br><br>2. Noqonuniy hamda sifatsiz qurilishlar bilan kurashish boʻyicha Singapur tajribasini joyiga chiqqan holda oʻrganish va takliflarni shakllantirish.<br><br>3. Singapur tajribasi asosida ta'sirchan choralarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil may<br><br>2024-yil sentabr | Vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablagʻlari | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi<br><br>A. Kayumov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 87. | Ko‘p kvartirali uylar va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurishni tartibga soluvchi qonunchilik asoslarini shakllantirish. | Ko‘p kvartirali uylar va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurishni tartibga soluvchi qonuniy asoslarni shakllantirish, obyektlarni ulush kiritish asosida qurishda yagona majburiy talablarni belgilash.<br><br>Bunda:<br><br>fuqarolardan uy-joy qurilishi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul mablag‘larini jalb etishni taqiqlash, faqatgina Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan qurilish tashkilotlariga tijorat banklari orqali ulush asosida pul mablag‘larini jalb etishga ruxsat etish;<br><br>vakolatli organning kafolatiga ega bo‘lmagan tadbirkorlar tomonidan ulush kiritish asosida pul mablag‘larini jalb etish, uy-joy qurilishini turli ko‘rinishda reklama qilishni taqiqlashni nazarda tutish. | 2024-yil sentabr | Vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag‘lari | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| 88. | Qurilish obyektlariga arxitektura rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishni majburiy etib belgilash tartibini yo‘lga qo‘yish. | 1. Arxitektura rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish talab etiladigan yangi qurilishlar parametrlarini shakllantirish.<br><br>2. Tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlarni kiritish choralarini ko‘rish. | 2024-yil sentabr<br><br>2024-yil oktabr | Vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag‘lari | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi<br><br>A. Kayumov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (B. Xodjayev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 89. | "Oʻzsanoatqurilishbank" ATBni xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish. | Investitsion maslahatchi bilan birgalikda:<br><br>investorlar tomonidan oʻtkaziladigan oʻrganishlar uchun tayyorgarlik koʻrish;<br><br>davlat ulushiga tegishli aksiyalarni sotib olishi mumkin boʻlgan salohiyatli investorlar roʻyxatini shakllantirish;<br><br>investorlar bilan aksiyalarni sotib olish shartlari boʻyicha muzokaralar oʻtkazish;<br><br>muzokaralarda xalqaro huquqshunoslar koʻmagida hukumat va bank manfaatlarini himoya qilish. | 2024-yil davomida | - | "Oʻzsanoatqurilishbank" ATB<br><br>A. Akbarjanov |
| 90. | "Asakabank" AJni xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish | 1. Bankni xususiylashtirishga tayyorlash uchun xalqaro moliya institutini jalb qilish yuzasidan prinsipial kelishuvga erishish.<br>2. Bankni xususiylashtirish uchun Xalqaro investitsiya bankini jalb qilish boʻyicha taklif kiritish. | 2024-yil davomida | - | "Asakabank" AJ<br><br>K. Toʻlyaganov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (A. Xaydarov)* | | | | | |
| 91. | Aholiga uy-joy uchun subsidiya ajratish tartibini takomillashtirish. | Respublika boʻylab istagan hududdagi uy-joylarni sotib olishda koʻp qavatli uy-joy olish uchun ajratilgan subsidiyalardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil iyun | - | - |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 92. | Uy-joy oldi-sotdisi bilan bogʻliq jarayonlarning shaffofligi va xavfsizligini ta'minlash. | 1. Fuqarolarning firibgarlik jinoyati jabrlanuvchisiga aylanib qolmasligi uchun ularni ishonchli axborot bilan ta'minlash tizimini joriy qilish.<br><br>2. Barcha uy-joy qurilish obyektlari va ularning quruvchisi toʻgʻrisidagi rasmiy ma'lumotlarni jamlovchi axborot platformasini yaratish va uning ochiqligini ta'minlash.<br><br>3. Lotning faqat bir marta sotilishini ta'minlash maqsadida investitsiya shartnomalarini ele�tron shaklda roʻyxatdan oʻtkazish tartibini takomillashtirish. | 2024-yil sentabr | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjalik vazirligi mablagʻlari | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Markaziy bank<br><br>M. Nurmuratov,<br><br>tijorat banklari |
| **61-maqsad: Infratuzilma loyihalarini barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 93. | Ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish. | 1016 ta ijtimoiy soha obyekti, shu jumladan, 618 ta umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab, 176 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 147 ta sogʻliqni saqlash muassasasi, 42 ta sport obyekti, 20 ta oliy ta'lim muassasasi, 5 ta ilm-fan va innovatsiya hamda 8 ta madaniyat obyektida 7,9 trln soʻmlik qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish.<br><br>Xususan:<br><br>umumta'lim maktablarida 175 mingdan ortiq yangi oʻquv oʻrnini tashkil etish, 100 mingdan ortiq oʻquv oʻrnini mukammal ta'mirlash;<br><br>ixtisoslashtirilgan maktablarda 3,5 mingdan ortiq yangi oʻquv oʻrnini tashkil etish;<br><br>maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5,5 mingdan ortiq yangi oʻrnini tashkil etish, 17 mingdan ortiq oʻrinni rekonstruksiya qilish, 1,3 mingdan ortiq oʻrinni mukammal ta'mirlash;<br><br>sogʻliqni saqlash muassasalarida 1,6 mingdan ortiq qatnovli va 1 338 oʻrinli yangi quvvatlarni ishga tushirish, 6,2 ming qatnovli va 1 900 dan ortiq oʻrinli obyektlarni rekonstruksiya qilish, 595 qatnovli muassasalarni mukammal ta'mirlash. | 2024-yil avgust — dekabr | Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida respublika budjeti mablagʻlari | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>X. Umarova,<br><br>Sogʻliqni saqlash vazirligi<br><br>A. Xudayarov,<br><br>Madaniyat vazirligi<br><br>O. Nazarbekov,<br><br>Sport vazirligi<br><br>A. Ikramov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi (B. Zakirov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 94. | Respublika aholisining ichimlik suv ta'minoti darajasini oshirish. | 1. Budjetdan ajratiladigan 1,3 trln soʻm mablagʻlar hisobidan 79 ta loyiha doirasida 200 dan ortiq mahallada 1,1 ming km tarmoq va 64 ta inshoot qurish.<br><br>2. 2024-yilda 50 ta ichimlik suv ogʻir boʻlgan mahallani ijtimoiy buyurtmalar asosida ichimlik suv bilan ta'minlash.<br><br>3. Aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasini 81 foizga yetkazish, 1,3 mln nafar aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash, 3 mln nafar aholining ichimlik suv ta'minotini yaxshilash. | 2024-yil dekabr | Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida respublika budjeti mablagʻlari,<br><br>xalqaro moliya institutlari mablagʻlari<br><br>“Navoiy KMK” AJ mablagʻi,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjeti mablagʻlari | “Oʻzsuvta'minot” AJ<br><br>D. Azimov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov<br><br>“Navoiy KMK” AJ<br><br>K. Sanakulov<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 95. | Suv ta'minoti korxonalari laboratoriyalarini ichimlik suv sifatini doimiy monitoring qilish uchun zamonaviy laboratoriya jihozlari va reaktivlar bilan jihozlash. | Namangan, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahridagi 5 ta laboratoriyani jihozlar bilan ta'minlash hamda mobil laboratoriya xarid qilish. | 2024-yil dekabr | “Oʻzsuvta'minot” AJ mablagʻlari,<br><br>xalqaro moliya institutlari mablagʻlari | “Oʻzsuvta'minot” AJ<br><br>D. Azimov, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov |
| 96. | Barcha ichimlik suv iste'molchilariga hisoblagichlar oʻrnatishni ta'minlash. | 2024-yil yakuniga qadar 212,2 mingta iste'molchiga suv hisoblagichlari oʻrnatilishini ta'minlash. | 2024-yil dekabr | “Oʻzsuvta'minot” AJ mablagʻlari,<br><br>xalqaro moliya institutlari mablagʻlari | “Oʻzsuvta'minot” AJ<br><br>D. Azimov, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 97. | Ichimlik suv ta'minoti obyektlarida energiyatejamkor texnologiyalarni joriy qilish. | 1. 426 ta nasos uskunasini zamonaviy, energiya tejamkor nasos uskunalariga almashtirish.<br><br>2. Sohada suv sarfi hisobini tartibga solish, yoʻqotishlar darajasini kamaytirish, mavjud tarmoqlarning raqamli xaritasi (GIS) va aktivlarni boshqarish (Asset Management) tizimini joriy etish.<br><br>3. Sohada “yashil iqtisodiyot” koʻlamini kengaytirish boʻyicha loyihani amalga oshirish maqsadida 100 mln dollar miqdoridagi qarz mablagʻlarini jalb qilish choralarini koʻrish. | 2024-yil dekabr | Osiyo taraqqiyot bankining qarz mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari,<br><br>“Oʻzsuvta'minot” AJ<br><br>D. Azimov, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| 98. | Aholini davlat-xususiy sheriklik asosida toza ichimlik suv bilan ta'minlash. | Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida sifatli ichimlik suv ta'minotini amalga oshirish boʻyicha 2024-2025-yillarga moʻljallangan amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br><br>Hududlar aholisini toza ichimlik suv bilan ta'minlash borasida markazlashmagan xizmat koʻrsatishning yangi modelini shakllantirish. | 2024-yil davomida | Jahon banki va boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlar grantlari,<br><br>davlat jamgʻarmalari va xususiy fondlar | “Oʻzsuvta'minot” AJ<br><br>D. Azimov |

*(2-ilova Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-151-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.10.2024-y., 06/24/151/0764-son)*

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi
PF-37-son Farmoniga
3-ILOVA

## “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish yoʻnalishi boʻyicha 2024-yilga moʻljallangan

AMALIY TADBIRLAR REJASI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r. | Vazifa | Amaliy chora-tadbir | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **III. SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH** | | | | | |
| **62-maqsad: Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — “Oʻzsuvta'minot” AJ (D. Azimov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Surxondaryo viloyatining oqova suv ta'minotini yaxshilash. | 1. Saudiya taraqqiyot jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan Sariosiyo, Denov va Jarqoʻrgʻon tumanlarida oqova suv tizimlarini qurish.<br><br>2. Germaniyaning "KFV" bankidan jalb qilingan 37,8 million dollar sarmoya hisobiga Termiz shahrida oqova suv tizimini ta'mirlash. | 2024-yil fevral — dekabr | Jalb etilgan mablagʻlar hamda ijrochilarning budjetdan tashqari jamgʻarmasi mablagʻlari | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov,<br><br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov,<br><br>Surxondaryo viloyati hokimligi<br><br>U. Qosimov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi (B. Zakirov)* | | | | | |
| 2. | Obodonlashtirish maqsadida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish. | 1. Obodonlashtirish maqsadida foydalaniladigan barcha suv oʻtkazgichlarga alohida hisoblagichlar oʻrnatish.<br><br>2. Tarmoq uchun mas'ul shaxslarning javobgarligini oshirish va belgilangan miqdordan ortiq sarflangan suv uchun choralar koʻrish mexanizmlarini yaratish.<br><br>3. Obodonlashtirish tarmoqlarini belgilangan tartibda texnik qayta ishlangan suv bilan ta'minlash maqsadida qoʻshimcha suv liniyalarini yotqizish, sanoat korxonalarida oqova suvlarni lokal tozalash inshootlari bilan ta'minlash choralarini koʻrish. | 2024-yil avgust | Jalb etilgan mablagʻlar, mahalliy budjet mablagʻlari hamda ijrochilarning budjetdan tashqari jamgʻarmasi mablagʻlari | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Suv xoʻjaligi vazirligi (Sh. Xamrayev)* | | | | | |
| 3. | Suv xoʻjaligi sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish. | Suvdan foydalanish va suv iste'moli hisobini yuritishda "Smart Water" ("Aqlli suv") hamda shu kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. | 2024-yil davomida | Hisob-kitoblarga koʻra ijrochilar mablagʻlari hisobidan | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev)* | | | | | |
| 4. | Suvning qadr-qimmati haqida keng koʻlamli axborot kampaniyasini oʻtkazish. | Yigʻilgan toʻlovlar hududning suv infratuzilmasini rivojlantirish va hududlar farovonligini oshirishga sarflanishi haqida tushuncha beruvchi kampaniya oʻtkazish.<br><br>Bunda, suv iste'molchilarining resursga boʻlgan munosabatini oʻzgartirish uchun suv taqchilligi ortib borayotgani haqidagi prognozlarni ommalashtirish. | 2024-yil mart | Ijrochilar mablagʻlari | Suv xoʻjaligi vazirligi<br><br>Sh. Xamrayev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — "Oʻzeltexsanoat" (M. Yunusov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Ichimlik suvdan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish. | Xoʻjalik idish yuvish mashinalarini keng joriy qilish doirasida import bojlari va boshqa toʻlovlarni qayta koʻrib chiqish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish. | 2024-yil may | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>Sh. Xidoyatov |
| **63-maqsad: Qishloq xoʻjaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Suv xoʻjaligi vazirligi (Sh. Xamrayev)* | | | | | |
| 6. | Beton qoplamali magistral va xoʻjaliklararo kanallarning ulushini oshirish. | Kanallarni rekonstruksiya qilish doirasida kamida 1,5 ming kilometr yirik kanallarni betonlashtirish ishlarini yakunlash. | 2024-yil dekabr | Davlat budjetidan 500 mlrd soʻm ajratilgan mablagʻlar doirasida | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Suv xoʻjaligi vazirligi (Sh. Xamrayev)* | | | | | |
| 7. | Qishloqlar hududidan oʻtadigan ariqlar va ichki suv obyektlari hisobini yuritish. | Qishloqlar hududidan oʻtadigan ariqlar va ichki suv obyektlari joylashgan yerlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish va kadastr pasportlarini taqdim qilish amaliyotini yoʻlga qoʻyish. | 2024-yil oktabr | - | Kadastr agentligi<br><br>F. Poʻlatov |
| **64-maqsad: Irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Suv xoʻjaligi vazirligi (Sh. Xamrayev)* | | | | | |
| 8. | Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. | Suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalaridan samarali foydalanish boʻyicha “Suvchilar maktabi”ning 2-bosqichini tashkil qilish. | 2024-yil fevraldan boshlab | Hisob-kitoblarga koʻra ijrochilar mablagʻlari hisobidan | Qishloq xoʻjaligi vazirligi<br><br>I. Abduraxmonov,<br><br>Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamaxmudov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari |
| **65-maqsad: “Yashil energiya” texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini kamaytirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Energetika vazirligi (J. Mirzamaxmudov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 9. | “Yashil energiya” texnologiyalarini keng joriy qilish orqali sugʻorish tarmoqlaridan suv yetkazib berishda elektr energiyasi iste'molini kamaytirish. | 1. Elektr energiyasi va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish.<br><br>2. Nasos stansiyalarida elektr energiya resurslarini tejash maqsadida muqobil energiya manbalari qurilmalarini oʻrnatish.<br><br>3. Nasos stansiyalaridagi eskirgan 148 ta nasoslarni energiya tejamkorlariga almashtirish. | 2024-yil davomida | Ijrochilarning budjetdan tashqari jamgʻarmasi mablagʻlari | Suv xoʻjaligi vazirligi<br><br>Sh. Xamrayev |
| **66-maqsad: Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir oʻtkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyat hokimliklari* | | | | | |
| 10. | 14 ta hududda qarovsiz hayvonlarni saqlashga moʻljallangan pitomniklarni tashkil etish. | 1. Qarovsiz hayvonlarni saqlash va parvarishlash boʻyicha pitomniklar (priyut) loyihasini ishlab chiqish.<br><br>2. Respublikaning 14 ta hududida qarovsiz hayvonlarni saqlashga moʻljallangan pitomniklarni tashkil etish uchun belgilangan tartibda yer maydonlarini ajratish.<br><br>3. Qurilish ishlarini bajarish uchun “E-auksion” platformasi orqali tanlov e'lon qilish.<br><br>4. Qurilish ishlarini smeta-hujjatlariga asosan amalga oshirish. | 2024-yil sentabr | Mahalliy budjet,<br><br>Ekologiya jamgʻarmasi mablagʻlari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br><br>A. Abduxakimov,<br><br>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasi<br><br>B. Norqobilov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | | |
| 11. | 93 ta sanoat korxonalarida lokal oqova tozalash inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish. | 1. Me'yoridan ortiqcha ifloslangan ishlab chiqarish oqova suvlarini hosil qiluvchi korxonalar bilan lokal oqova tozalash inshootlarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br><br>2. Dastur ijrosini ta'minlash yuzasidan ekologik nazorat tadbirlarini amalga oshirish. | 2024-yil davomida | Hisob-kitoblarga koʻra, tashkilotlarning oʻz mablagʻlari hisobidan | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **67-maqsad: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyat hokimliklari* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 12. | “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili kamida 200 mln tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar koʻchatlarini, qalamchalarini ekish. | 1. “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida 2024-yildan boshlab hududlarning tuproq-iqlimi sharoitidan kelib chiqib, koʻkalamzorlashtirish boʻyicha Davlat investitsiya dasturini ishlab chiqish maqsadida hududlar kesimida manzilli dasturlar ishlab chiqish.<br><br>2. Mahalliy hokimliklar tomonidan ishlab chiqilgan manzilli dasturlarni tasdiqlangan holda Ekologiya vazirligiga kiritish.<br><br>3. Taqdim etilgan manzilli dasturlarni umumlashtirib, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan oʻtkazish.<br><br>4. Loyihalarni ekologik ekspertizadan oʻtkazib, Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritish. | 2024-yil mart | Respublika budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida, mahalliy budjet mablagʻlari, homiylik va grant mablagʻlari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br><br>A. Abduxakimov |
| 13. | 2024-yil yakuniga qadar yashil bogʻlar sonini 444 taga yetkazish. | 1. Har bir tuman (shahar) hokimliklarining hamda vazirlik, idoralar tomonidan tashkil etiladigan bogʻlarning hududlariga aniqlik kiritish.<br><br>2. Hududlarning tuproq,-iqlim sharoitidan kelib chiqib, ekiladigan daraxt va buta turlarini aniqlash, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan oʻtkazish.<br><br>3. Tadbirlarni moliyalashtirish manbalariga aniqlik kiritish va yashil bogʻlarni barpo etish. | 2024-yil davomida<br><br>Koʻchat ekish mavsumida | Respublika budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida mahalliy budjet mablagʻlari, vazirlik, idora va tashkilotlarning mablagʻlari, homiylik va grant mablagʻlari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br><br>A. Abduxakimov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | | |
| 14. | 112 ta yirik sanoat korxonalarining hududida va unga tutash hududlarda 2,1 million tup koʻchatdan iborat “yashil belbogʻ”larni barpo etish. | 1. “Yashil belbogʻ”larni barpo etish uchun yer maydonlarini belgilash choralarini koʻrish va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.<br><br>2. Tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida tuproq-iqlim sharoitiga mos daraxt turlaridan “yashil belbogʻ”larni barpo etish.<br><br>3. “Yashil belbogʻ”larni doimiy ravishda qoʻriqlash va parvarish qilish ishlarini tashkil etish. | 2024-yil dekabr | Hisob-kitoblarga koʻra, tashkilotlarning oʻz mablagʻlari hisobidan) | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>xoʻjalik birlashmalari rahbarlari,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **68-maqsad: Oʻrmonlar maydonini kengaytirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 15. | Respublikada oʻrmon bilan qoplangan maydonlarni 3,65 million gektarga (8,1 foizga) yetkazish choralarini koʻrish. | 1. Respublika boʻyicha davlat zaxira yerlaridagi mavjud oʻrmonzorlar hisobini aniqlashtirish.<br><br>2. Oʻrmon barpo etish va qayta ishlash tadbirlarini davom ettirish.<br><br>3. Oʻrmon bilan qoplangan maydonlar monitoringini yuritish. | 2024-yil davomida | Mahalliy budjet mablagʻlari, budjetdan tashqari mablagʻlar | Oʻrmon xoʻjaligi agentligi<br><br>N. Bakirov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| 16. | Yerlarni eroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum koʻchishidan saqlash uchun 15 014 gektar ihota daraxtzorlarini kengaytirish. | 1. Ihota daraxtzorlari barpo etiladigan hududlarni aniqlash.<br><br>2. Tanlangan hududlar boʻyicha loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash.<br><br>3. Loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan oʻtkazish.<br><br>4. Qishloq xoʻjaligi yerlari dala chetlarida qum bosish, tuproq va shamol eroziyasining oldini olish maqsadida 2500 gektar maydonda ihota daraxtzorlarni barpo etish. | 2024-yil davomida | Davlat budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida | Oʻrmon xoʻjaligi agentligi<br><br>N. Bakirov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | | |
| 17. | Oʻrmon xoʻjaliklarida nihol va koʻchatlar yetishtirishni 112 mln tupga yetkazish hamda daraxt va buta urugʻlari tayyorlashni 688 tonnaga oshirish. | 1. Koʻchatxona va niholxonalar tashkil etish maqsadida yer tayyorlash ishlarini tashkil etish.<br><br>2. Tayyorlangan yer maydonlarida urugʻlik va nihollarni ekish ishlarini amalga oshirish.<br><br>3. Hududlarning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda 688 tonna daraxt va butalarning urugʻlarini jamgʻarish.<br><br>4. Koʻchatxonalarda agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish (sugʻorish, qator oralariga ishlov berish, begona oʻtlardan tozalash) hamda parvarish qilish, jami 112 mln dona nihol va koʻchat yetishtirish. | 2024-yil davomida | Mahalliy budjet mablagʻlari,<br><br>ijrochilarning budjetdan tashqari mablagʻlar | Oʻrmon xoʻjaligi agentligi<br><br>N. Bakirov |
| 18. | Asalari oilalari sonini 230 mingtaga yetkazish. | 1. Oʻrmon fondi yerlarida xususiy sektor subyektlarini jalb qilgan holda asalari oilasi boqiladigan maydonlarni belgilash.<br><br>2. Aniqlangan yer maydonlarida asalari oilalarini bosqichma-bosqich joylashtirish.<br><br>3. Ajratilgan oʻrmon fondi yer maydonlaridan maqsadli foydalanish monitoringini yuritish. | 2024-yil davomida | Tashabbuskor mablagʻlari | Oʻrmon xoʻjaligi agentligi<br><br>N. Bakirov Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oʻrmon xoʻjaligi agentligi (N. Bakirov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 19. | Dorivor oʻsimliklar tayyorlashni 9 640 tonnaga yetkazish. | 1. Dorivor oʻsimliklar tashkil etiladigan yer maydonlarini aniqlash.<br><br>2. Hududlarning iqlim sharoitidan kelib chiqib, ekiladigan dorivor oʻsimlik turlari roʻyxatini shakllantirish.<br><br>3. Hududlarning iqlim sharoitidan kelib chiqib, dorivor oʻsimliklar urugʻlik materiallari (urugʻ, koʻchat) zaxirasini shakllantirish.<br><br>4. Yer maydonlarini ekishga tayyorlash.<br><br>5. Dorivor oʻsimliklar xom ashyosini tayyorlash. | 2024-yil davomida | Tashabbuskorlar mablagʻlari, budjetdan tashqari mablagʻlar | - |
| **69-maqsad: Orolboʻyi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini yumshatish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi,Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari hokimliklari* | | | | | |
| 20. | Orolboʻyi mintaqasidagi oʻrmonzorlarni 1,9 mln gektarga yetkazish. | 1. Orol dengizining qurigan tubida "yashil qoplamalar" himoya oʻrmonzorlari barpo etish loyihasi va xaritasini ishlab chiqish.<br><br>2. "Yashil qoplama"lar va himoya oʻrmonzorlari barpo etish uchun choʻl oʻsimliklari turlarini tanlash, talab etiladigan urugʻlik va koʻchat ekish materiallari zaxirasini yaratish.<br><br>3. Orol dengizining qurigan tubi va Orolboʻyi hududida (Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari) jami 200 ming gektar maydonda "yashil qoplama"larni barpo etish. | 2024-yil davomida | Qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar mablagʻlari | Oʻrmon xoʻjaligi agentligi<br><br>N. Bakirov |
| **70-maqsad: Iqlim oʻzgarishi salbiy ta'sirining oldini olish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari* | | | | | |
| 21. | Choʻllanish, qurgʻoqchilik, chang-qum boʻronlari va haroratning koʻtarilishiga qarshi chora sifatida "yashil qoplamalar" himoya oʻrmonzorlarini barpo etish. | 1. Choʻllanishning oldini olish maqsadida "yashil qoplamalar" himoya oʻrmonzorlari barpo etish loyihasi va xaritasini ishlab chiqish.<br><br>2. Choʻl oʻsimliklari turlarini tanlash, talab etiladigan urugʻlik va koʻchat ekish materiallari zaxirasini yaratish. | 2024-yil davomida | Qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar mablagʻlari | Oʻrmon xoʻjaligi agentligi<br><br>N. Bakirov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qishloq xoʻjaligi vazirligi (I. Abduraxmonov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 22. | Respublikamizdagi mavjud barcha yaylovlar holatini xatlovdan o‘tkazish va ularning holatini yaxshilash choralarini ko‘rish. | 1. Bunda:<br><br>ularning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash;<br><br>yaylovlarning elektron raqamli xaritalarini yaratish,<br><br>ularda yaylovlarning holatini tasvirlashga (aks ettirishga) doir ishlarni amalga oshirish;<br><br>yaylovlarning sifat holati yaxshilanishi talab etiladigan va foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lgan degradatsiyaga uchragan yaylov uchastkalari, shuningdek suv bilan ta'minlanmagan yaylovlarni aniqlash;<br><br>yaylov o‘simliklari holati bo‘yicha qoniqarsiz, o‘rta va yaxshi darajadagi klassifikatsiyaga ajratish.<br><br>2. Degradatsiyaga uchragan yaylov maydonlarining holatini yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish. | 2024-yil apreldan boshlab | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Gidrometeorologiya xizmati agentligi (Sh. Xabibullayev)* | | | | | |
| 23. | Xavfli gidrometeorologik hodisalar to‘g‘risida barvaqt ogohlantirish darajasini 97 foizga yetkazish. | 1. Avtomatlashtirilgan kuzatuv tarmoqlaridan gidrometeorologik faktik ma'lumotlarni O‘zgidromet ma'lumotlar geoaxborot portaliga uzatish.<br><br>2. Gidrometeorologik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va optimal modellarni qo‘llash orqali hududlar kesimida prognozlash xaritalarini ishlab chiqish.<br><br>3. Xodimlarning axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlarni qayta ishlash bo‘yicha bilim va malakasini oshirish. | 2024-yil davomida | Ijrochilar mablag‘lari, xorijiy investitsiyalar va grantlar | - |
| 24. | Tog‘ daryolari oqimi prognozlarining ishonchlilik darajasini 98 foizga yetkazish. | 1. Respublikaning tog‘ va tog‘ oldi daryolarida mavjud va yangidan tashkil etiladigan gidrologik postlar holatini o‘rganish va natijasiga ko‘ra hududlarga o‘rnatilishi rejalashtirilgan avtomatlashtirilgan suv tezligi va sathini o‘lchash uskunasi texnik talabini ishlab chiqib, xaridni amalga oshirish.<br><br>2. Aniqlangan joylarga uskunani o‘rnatish va undan olingan ma'lumotlarni O‘zgidromet ma'lumotlar geoaxborot portaliga integratsiya qilish. | 2024-yil noyabr | Ijrochilar mablag‘lari | - |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi (B. Islamov)* | | | | | |
| 25. | Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan yer maydonlarini rekultivatsiya qilish. | 2 000 gektar buzilgan yer maydonining rekultivatsiya qilinishini ta'minlash, mazkur sohada ekologik nazorat tadbirlarini amalga oshirish. | 2024-yil davomida | Hisob-kitoblar asosida<br>*(korxonalarning oʻz mablagʻlari)* | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br>A. Abduxakimov,<br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimlari |
| **71-maqsad: Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta'minlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | | |
| 26. | Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 14,2 foizgacha kengaytirish. | 1. Fargʻona va Namangan viloyatlari hududida milliy tabiat bogʻlarini tashkil etish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif va xaritalarni tayyorlash.<br>2. Fargʻona va Namangan viloyatlarida milliy tabiat bogʻlarini tashkil etish. | 2024-yil dekabr | Mahalliy budjet mablagʻlari | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov,<br>Kadastr agentligi<br>F. Pulatov,<br>Fanlar akademiyasi<br>B. Yuldashev,<br>Namangan viloyati hokimligi<br>Sh. Abdurazakov,<br>Fargʻona viloyati hokimligi<br>X. Bozarov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari* | | | | | |
| 27. | Dorivor oʻsimliklarni yetishtirish va koʻpaytirish boʻyicha har yili 25 ming gektargacha maydonda madaniy plantatsiyalarni tashkil etish. | 1. 25 ming gektar yer uchastkalarini elektron onlayn auksionga qoʻyish orqali dorivor oʻsimliklar plantatsiyalarini tashkil etish uchun zaruriy yer maydonlarini belgilangan tartibda ajratish.<br>2. Dorivor oʻsimliklar plantatsiyalarini tashkil etish uchun shumgʻiya (sistanxe), shirinmiya (qizilmiya), tojik kovragi, na'matak, tikanakli kovul va boshqa eksportbop dorivor oʻsimliklar ekish materiallariga talabnomalar asosida kvotalar ajratilishini ta'minlash.<br>3. Tashkil etilgan dorivor oʻsimliklar plantatsiyalarini belgilangan tartibda davlat roʻyxatidan oʻtkazish. | 2024-yil bahor va kuz mavsumida | Tashabbuskor tashkilotlar mablagʻlari | Qishloq xoʻjaligi vazirligi<br>I. Abduraxmonov,<br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br>A. Abduxakimov,<br>Oʻrmon xoʻjaligi agentligi<br>N. Bakirov,<br>Fanlar akademiyasi<br>B. Yuldashev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 28. | Aydar-Arnasoy koʻllar tizimida ekologik barqarorlikni saqlash. | Aydar-Arnasoy koʻllar tizimida tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrashi sur'atlarini pasaytirish, hayvonlar va oʻsimliklarning kamyob va yoʻqolib borayotgan turlarini qayta tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolish, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 2024-yil fevral — noyabr | Ijrochilarning budjetdan tashqari jamgʻarmasi mablagʻlari | - |
| **72-maqsad: Qattiq maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari* | | | | | |
| 30. | Maishiy chiqindi poligonlarini kamida 17 foizga qisqartirish. | 1. Maishiy chiqindilar bilan toʻlgan poligonlar roʻyxatini shakllantirish.<br><br>2. Maishiy chiqindi poligonlarini takomillashtirish boʻyicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.<br><br>3. 24 ta maishiy chiqindi poligonlarini rekultivatsiya qilish, tuproq bilan yopish va faoliyatini toʻxtatish ishlarini amalga oshirish. | 2024-yil davomida | Mahalliy budjet mablagʻlari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br><br>A. Abduxakimov |
| **73-maqsad: Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash boʻyicha keskin choralar koʻrish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | | |
| 31. | Iqtisodiyot tarmoqlarida havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 1,5 foizga qisqartirish. | 1. Yangi ishga tushirilayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida ifloslantiruvchi manbalarida samaradorligi 99,5 foizdan kam boʻlmagan chang-gaz tozalash uskunalarini oʻrnatishni tashkil qilish.<br><br>2. Atrof-muhitga ta'siri boʻyicha I va II toifaga mansub 122 ta xoʻjalik yurituvchi subyektlarga yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalarini oʻrnatish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilishni tashkillashtirish.<br><br>3. Respublikada faoliyat koʻrsatayotgan yirik sanoat va barcha sement ishlab chiqarish korxonalarida atmosferaga tashlama tashlovchi manbalarida yuqori samarador chang-gaz tozalash uskunalarini oʻrnatish. | 2024-yil davomida | Hisob-kitoblarga koʻra, tashkilotlarning oʻz mablagʻlari hisobidan | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>xoʻjalik birlashmalari rahbarlari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 32. | Sanitariya-muhofaza va turar joy zonalarida atmosfera havosining sifat ko‘rsatkichlari ustidan davlat nazoratini kuchaytirish. | Bunda, quyidagilar nazarda tutiladi:<br><br>Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalari asosida O‘zbekiston Respublikasining milliy havo standartlarini ishlab chiqish;<br><br>respublikamiz atmosfera havosining ifloslanishi yuqori bo‘lgan hududlari, jumladan, Toshkent shahri, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog‘liq kasalliklar kelib chiqish holatlarini o‘rganish hamda ularning oldini olish;<br><br>sanitariya-muhofaza va turar joy zonalarida atmosfera havosining sifat ko‘rsatkich yuzasidan aholiga doimiy, tezkor axborot taqdim etib borish;<br><br>sanitariya-muhofaza va turar joy zonalarida atmosfera havosining me'yoridan ortiq darajada ifloslanishi bilan bog‘liq holatlarda aholiga profilaktik tavsiyalar berib borish choralarini ko‘rish. | 2024-yil davomida | Hisob-kitoblarga ko‘ra, tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan | Toshkent shahar hokimligi<br><br>Sh. Umurzakov,<br><br>Toshkent viloyati hokimligi<br><br>Z. Mirzayev,<br><br>Qashqadaryo viloyati hokimligi<br><br>M. Azimov |
| 33. | Atmosferaga chiqarib tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytirish. | 1. Toshkent shahrida o‘tkaziladigan “Avtomobilsiz kun” eksperiment loyihasi natijalaridan kelib chiqib, uni Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlar markazlarida ham o‘tkazish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br><br>2. Barcha issiqxonalarda havoni ifloslantiruvchi va inson salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi yonuvchi modda va buyumlar qo‘llanishining oldini olish choralarini ko‘rish.<br><br>3. Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqishini tahlil qiluvchi monitoring stansiyalar, chang va suv tozalash kabi uskunalarni import qilishda davlat boji miqdorlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflarni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil iyun<br><br>2024-yil fevraldan boshlab<br><br>2024-yil may | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari |

*(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2024-y., 06/24/106/0571-son)*

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi
PF-37-son Farmoniga
4-ILOVA

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan**

AMALIY TADBIRLAR REJASI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbir | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **IV. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH** | | | | | |
| **74-maqsad: Aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari oʻrtasidagi “tayanch koʻprik”ka aylantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov)* | | | | | |
| 1. | Mahalla faoliyatini raqamlashtirish. | Mahallaning yagona platformasini joriy qilish. Bunda:<br><br>platforma hamda “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” platformalarini oʻzaro integratsiya qilish;<br><br>“mahalladagi yettilik” uchun xonadonga kirganda toʻldiriladigan yagona savolnomani ishlab chiqish;<br><br>platformani Personallashtirish, Ijtimoiy himoya, Kadastr agentliklari, Soliq qoʻmitasi, Ichki ishlar vazirligi, ta'lim vazirliklari bazalari bilan integratsiya qilish;<br><br>platformaga mahalla aholisi salomatligi, joylarda oʻtkazilayotgan patronaj toʻgʻrisida ma'lumotlarni ham kiritish amaliyotini tatbiq etish. | 2024-yil iyul | - | Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br><br>S. Abdullayev,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>A. Xaydarov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi (K. Kuranbayev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 2. | “Eng namunali mahalla raisi” koʻrik-tanlovini oʻtkazish. | Mahalla raislari faoliyatini ragʻbatlantirish maqsadida mahalla raislari orasida “Eng namunali mahalla raisi” tanlovini oʻtkazish va uning natijalariga koʻra, har yili 22-mart — Mahalla tizimi xodimlari kuni arafasida:<br><br>Respublika mahallani qoʻllab-quvvatlar kengashi tomonidan 14 nafargacha mahalla raisiga “Eng namunali mahalla raisi” oliy toifali faxriy yorligʻi va 10 million soʻm pul;<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahallani qoʻllab-quvvatlash kengashlari tomonidan 5 nafargacha mahalla raisiga “Eng namunali mahalla raisi” birinchi toifali faxriy yorligʻi va 5 million soʻm pul;<br><br>tuman (shahar) mahallani qoʻllab-quvvatlash kengashlari tomonidan 3 nafargacha mahalla raisiga “Eng namunali mahalla raisi” ikkinchi toifali faxriy yorligʻi va 3 million soʻm pul berilishi;<br><br>har bir tumandan 7 nafargacha boʻlgan eng faol mahalla raislari uchun mamlakatimiz boʻylab ziyorat yoki ekoturizm tashkil etilishini yoʻlga qoʻyish. | 2024-yil mart | - | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>B. Musayev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi (K. Kuranbayev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3. | “Mahalla balansi”ni shakllantirish. | Quyidagi imkoniyatlarga ega “Mahalla balansi” yagona elektron platformasini ishga tushirish:<br><br>1. Uyma-uy yurish orqali aholining muammolarini oʻrganayotgan xotin-qizlar faollari, yoshlar yetakchilari, hokim yordamchilari tomonidan yigʻilgan mahalla aholisi balansini shakllantirish.<br><br>2. Mahalla aholisiga koʻrsatilishi mumkin boʻlgan ijtimoiy yordamlar va ushbu yordamlardan foydalangan shaxslar, yordam turlari kesimida ma'lumotlar bilan tanishish.<br><br>3. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini asosiy samaradorlik koʻrsatkichlari asosida baholash.<br><br>4. Kasbga oʻqitilgan hamda tadbirkorlikni yoʻlga qoʻyish maqsadida subsidiya, grant va kredit mablagʻlari olgan shaxslar hamda ularning keyingi faoliyatining monitoringi natijalari kuzatish.<br><br>5. Yagona milliy mehnat tizimi elektron bazasi asosida ish beruvchi va ish izlovchilarni bir-biri bilan bogʻlash.<br><br>6. Mahallada yashovchilar oʻrtasida nikoh tuzish boʻyicha ariza berganligi, tuzilganligi va bekor qilinganligi toʻgʻrisida FHDY organlari tomonidan ma'lumotlarni kiritish.<br><br>7. “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” platformalarini oʻzaro integratsiya qilish.<br><br>8. “Xorijdagi yoshlar balansi”ni shakllantirish va xorijiy davlatlarda tahsil olayotgan fuqarolarni “Yoshlar daftari”ga kiritish imkonini yaratish.<br><br>9. Uyma-uy yurib yigʻilgan ish izlovchi shaxslar toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni xususiy bandlik agentliklariga muntazam va bepul taqdim etib borish amaliyotini joriy etish.<br><br>10. Mahalla fuqarolar yigʻinlarida yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar haqida tanishib chiqish uchun alohida axborot burchaklarini tashkil etib, koʻrgazma materiallari bilan ta'minlash. | 2024-yil mart | - | Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br><br>S. Abdullayev,<br><br>Ichki ishlar vazirligi<br><br>P. Bobojonov,<br><br>Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi<br><br>O. Parpiboyeva,<br><br>Yoshlar ishlari agentligi<br><br>A. Sa'dullayev,<br><br>Soliq qoʻmitasi<br><br>Sh. Kudbiyev |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **75-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi (kelishuv asosida)* | | | | | |
| 4. | Qonun loyihalarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qoʻmitalarida koʻrib chiqish va qabul qilish tartibini takomillashtirish. | Qonunchilik palatasi qoʻmitalari tomonidan qonun loyihalarini koʻrib chiqish amaliyotini takomillashtirish, qoʻmitada qonun loyihasi boʻyicha muhokamalarni tashkil etish va qarorlarni ovoz berish orqali qabul qilishning aniq tartibini belgilash, qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida uni moddama-modda koʻrib chiqish tartibini joriy etish. | 2024-yil aprel | - | Parlament tadqiqotlari instituti |
| **76-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yoʻlga qoʻyish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | | |
| 5. | Mahalliy hokimliklar va respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining bir-birini takrorlovchi funksiyalarini maqbullashtirish choralarini koʻrish. | 1. Mahalliy hokimliklar va respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiyalari roʻyxatini shakllantirish.<br><br>2. Mahalliy hokimliklar va respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining bir-birini takrorlovchi 30 ta funksiyasini maqbullashtirish.<br><br>3. Mahalliy hokimliklarga yuklatilgan 80 ta faoliyatiga xos boʻlmagan vazifalarni bekor qilish. | 2024-yil iyun | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| **77-maqsad: Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning koʻlamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat oʻrtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | | |
| 6. | Ayrim davlat xizmatlaridan foydalanishda ariza (soʻrovnoma) berish jarayonlarini “3 qadam”, “foydalanuvchi uchun moslashtirilgan” tamoyillari asosida qayta koʻrib chiqish va soddalashtirish. | 1. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joriy etilgan 15 ta davlat xizmatlaridan foydalanishda ariza (soʻrovnoma) berish jarayonlarini soddalashtirish, ma'lumotlar va boshqa hujjatlarni aholi va tadbirkorlik subyektlaridan talab qilmagan holda avtomatik tarzda olish nuqtai nazaridan qayta koʻrib chiqish.<br><br>2. Xizmat koʻrsatish jarayonlari soddalashtirilgan davlat xizmatlari boʻyicha Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga tegishli texnik oʻzgartirishlar kiritish. | 2024-yil iyun | - | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 7. | Fuqarolarning biografik va biometrik ma'lumotlarini yigʻishga moʻljallangan zamonaviy mobil qurilmalarni xarid qilish, ular uchun yangi dasturiy ta'minot ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. | 1. Fuqarolarning biografik va biometrik ma'lumotlarini yigʻishga moʻljallangan zamonaviy mobil qurilmalarni xarid qilish.<br>2. Mobil qurilmalarga yangi dasturiy ta'minot yaratish uchun texnik topshiriq hujjatlarini ishlab chiqish.<br>3. Texnik topshiriq hujjatlariga muvofiq, yangi dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.<br>4. Mobil qurilmalarni Ichki ishlar, Tashqi ishlar va Adliya vazirliklarining ma'lumotlarni yigʻish punktlariga foydalanish uchun topshirish. | 2024-yil mart-iyun<br>2024-yil aprel<br>2024-yil may-avgust<br>2024-yil avgust | Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi,<br>Adliya vazirligining budjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan | Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov,<br>Tashqi ishlar vazirligi<br>B. Saidov |
| 8. | Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligining ma'lumotlar bazasida jismoniy shaxsni uning yuz qiyofasidan (Face ID) identifikatsiya qilish tizimini joriy etish. | 1. Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligining mavjud server qurilmalari ish quvvatini tizimlashtirish va axborot almashinuvi uchun qoʻshimcha xotira zaxirasini yaratish.<br>2. Jismoniy shaxsning yuz qiyofasidan uning shaxsini identifikatsiya qilish imkonini beradigan “Face ID” tizimini sinovdan oʻtkazish;<br>3. “Face ID” tizimini toʻliq ishga tushirish. | 2024-yil mart<br>2024-yil aprel<br>2024-yil may | - | - |
| 9. | Davlat xizmatlarini koʻrsatishda jismoniy va yuridik shaxslarga qoʻshimcha qulayliklar yaratish. | 1. Davlat xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha axborot tizimlarida blank shakllarini va arizalarni avtomatik tarzda toʻldirish imkoniyatini yaratish.<br>2. Davlat xizmatini koʻrsatuvchi idoralarda QR-kodlarni joylashtirib, ushbu QR-kodlarni skaner qilish orqali fuqarolarga avtomatik tarzda arizalarni shakllantirish va toʻldirish boʻyicha choralarni koʻrish. | 2024-yil aprel | Hisob-kitobga koʻra | - |
| **78-maqsad: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov)* | | | | | |
| 10. | Saylov jarayonlarini raqamlashtirish uchun “E-SAYLOV” axborot tizimini ishlab chiqish. | 1. “E-SAYLOV” axborot tizimi ishlab chiqish va sinovdan oʻtkazish.<br>2. “E-SAYLOV” axborot tizimini toʻliq ishga tushirish. | 2024-yil mart | Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamgʻarmasi | Markaziy saylov komissiyasi<br>*(kelishuv asosida)* |
| **79-maqsad: Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy Majlisning Inson huquqlari boʻyicha vakili (ombudsman)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 11. | Milliy huquqni himoya qilish muassasalari Global alyansida "A" maqomini olish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish. | Milliy huquqni himoya qilish muassasalari Global alyansida "A" maqomini olish uchun xorijiy tajriba asosida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni tashkil etish. | 2024-yil dekabr | Ijrochilar mablagʻlari | - |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi (kelishuv asosida)* | | | | | |
| 12. | Qonun loyihalarini Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritish tartibini takomillashtirish. | Qonun loyihalarini Qonunchilik palatasiga kiritishda taqdim etiladigan hujjatlar qatorida xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish boʻyicha qonun loyihalarining Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligi hamda qonun loyihalarining huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizalardan oʻtkazilganligi toʻgʻrisida xulosalar, shuningdek qonun loyihasi boʻyicha jamoatchilik muhokamasining natijalari ham mavjud boʻlishi lozimligiga doir talabni amaldagi qonunchilikda belgilab qoʻyish yuzasidan takliflar ishlab chiqish. | 2024-yil may | - | - |
| 13. | Parlamentning jamiyat hayotiga ta'sir etish mexanizmlarini kuchaytirish. | "Parlament nazorati toʻgʻrisida"gi Qonunining yangi tahririni ishlab chiqish. Mazkur Qonunda siyosiy partiyalar fraksiyalarining nazorat-tahlil faoliyatini amalga oshirish boʻyicha protsessual mexanizmlarni belgilash. | 2024-yil mart | Hisob-kitoblarga koʻra | - |
| 14. | Siyosiy partiyalarning qonun ijodkorligidagi, shu jumladan, qonun loyihalari boʻyicha jamoatchilik muhokamasini tashkil etishdagi rolini oshirish. | Qonun loyihalari boʻyicha siyosiy partiyalar, shu jumladan, ularning quyi tuzilmalaridan taklif va xulosalar olish amaliyotini yoʻlga qoʻyish.<br><br>Siyosiy partiyalar tomonidan ularning elektorati manfaatlariga taalluqli qonun loyihalari boʻyicha jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish amaliyotini yanada kengaytirish. | 2024-yil avgust | - | - |
| **80-maqsad: Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uygʻunligini ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | | |
| 15. | Normativ-huquqiy hujjatlarda gender tengligi tamoyilini amalda ta'minlash. | Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni toʻliq xatlovdan oʻtkazib, 2024 — 2026-yillarga moʻljallangan normativ-huquqiy hujjatlarni gender-huquqiy ekspertizasini oʻtkazish rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni tashkil etish. | 2024-yil aprel | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablagʻlari | Oliy Majlis Senati<br><br>*(kelishuv asosida)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 16. | Qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy hamjamiyat vakillari ishtirokini, ular bilan maslahatlashuvlar oʻtkazish amaliyotini yanada kuchaytirish. | Qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuvlar oʻtkazishning yangicha tartibini joriy etish, bunda:<br><br>har bir qoʻmitada tegishli soha boʻyicha qonunlarni koʻrib chiqishda qoʻmita bilan hamkorlik qiladigan nodavlat notijorat tashkilotlari roʻyxati yuritish;<br><br>qoʻmitaga kelib tushgan qonunlarni tegishli nodavlat notijorat tashkilotlariga ham koʻrib chiqish va taklif berish uchun yuborish;<br><br>qonun loyihasi boʻyicha nodavlat notijorat tashkilotlarining fikrini qoʻmita, fraksiya va palata majlislarida muhokama etish amaliyoti yoʻlga qoʻyish. | 2024-yil may | - | Oliy Majlis Qonunchilik palatasi<br><br>*(kelishuv asosida)* |
| **81-maqsad: Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (Gʻ. Mirzayev)* | | | | | |
| 17. | Davlat fuqarolik xizmatchilarini uzluksiz malaka oshirib borish tizimi bilan qamrab olish. | Kamida 10 ming nafar davlat fuqarolik xizmatchisining, shu jumladan “mahalla yettiligi” vakillarining malakasini zamon talablaridan kelib chiqqan holda oshirish choralarini koʻrish. | 2024-yil davomida | - | Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi<br><br>K. Kuranbayev,<br><br>Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>B. Musayev,<br><br>“El-yurt umidi” jamgʻarmasi<br><br>A. Bekmurodov |
| 18. | Milliy kadrlar zaxirasida rahbarlik lavozimlariga nomzodlar sonini oshirish. | Respublika doirasida rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni meritokratiya tamoyili asosida tanlab olish natijasiga koʻra milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan malakali nomzodlar sonini kamida 500 nafarga yetkazish choralarini koʻrish. | 2024-yil oktabr | - | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>B. Musayev,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 19. | Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy hokimliklarda oʻzaro, shu jumladan, gorizontal va vertikal aloqa (kommunikatsiya) tizimini rivojlantirish. | “Davlat xizmatchisi” mobil ilovasi tarkibida quyidagi qoʻshimcha imkoniyatlarni yaratish:<br><br>davlat xizmatchisi kompetensiyalarini rivojlantirish boʻyicha malaka oshirish boʻlimini joriy etish hamda davlat organi xodimlarining malaka oshirganligi toʻgʻrisidagi statistik ma'lumotlarni mobil ilovada aks ettirish;<br><br>davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan davlat organi ish faoliyatini yaxshilash yuzasidan tashabbuslar bildirish hamda rahbar tomonidan ularga munosabat berish;<br><br>davlat fuqarolik xizmatchisi shaxsiy rivojlanish rejasini shakllantirish, uni bajarish hamda monitoring qilish;<br><br>davlat fuqarolik xizmati tashkilotlarida ishlayotgan xodimlarni lavozim darajasidan kelib chiqib bosqichma-bosqich xodimning FIO, lavozimi, rahbar xodimlar uchun ular tomonidan muvofiqlashtiriladigan soha va tarkibiy boʻlinmalar, bogʻlanish uchun telefon raqami, pochtasi va ijtimoiy tarmoqdagi raqamini nazarda tutuvchi ma'lumotlar bazasini yaratish. | 2024-yil noyabr | Davlat xizmatini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |
| 20. | Davlat fuqarolik xizmatiga kirish boʻyicha oʻtkazilayotgan tanlovlarda imkoniyati cheklangan shaxslar ishtiroki uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish. | 1. Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portalida (vacancy.argos.uz) imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus texnik imkoniyatlarni yaratish.<br><br>2. Tanlovlarning test va suhbat bosqichida imkoniyati cheklangan shaxslar qatnashishi uchun shart-sharoitlarni yaratish. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil may | Davlat xizmatini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari | Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br><br>M. Olloyorov |
| 21. | Istiqbolli boshqaruv kadrlarini saralab olish — TOP 100 dasturini amalga oshirish. | 1. Davlat organ va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari bilan birgalikda boshqaruvchi kadrlar zaxirasini shakllantirish.<br><br>2. Istiqbolli boshqaruvchi kadrlar respublika tanlovi tashkil etish.<br><br>3. Tanlov gʻoliblarini rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish va kasbiy trayektoriyalarini monitoring qilish. | 2024-yil oktabr<br><br>Doimiy | Davlat xizmatini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **82-maqsad: Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasi (U.Muxammadiyev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 22. | Davlat organlari va aholi oʻrtasida "qayta aloqa" tizimini yanada takomillashtirish va aholi muammolarini hal etish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish. | Davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari, shu jumladan hokimlar muntazam ravishda chekka hududlardagi aholini videokonferensaloqa vositasida qabul qilish amaliyotini keng yoʻlga qoʻyish. | 2024-yil davomida | - | Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari,<br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov |
| **83-maqsad. Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, Oʻzbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish boʻyicha xabga aylantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A. Burxanov)* | | | | | |
| 23. | "Xalq xizmatidagi" davlat boshqaruvini tashkil etishda davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlarini samarali vositaga aylantirish. | Davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tanqidiy qayta koʻrib chiqish. Bunda:<br>jamoatchilik kengashlarining faoliyat samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqish, uning natijalarini jamoatchilikka e'lon qilib borish;<br>ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjat loyihalari boʻyicha jamoatchilik kengashi xulosasini olish tartibini yoʻlga qoʻyish;<br>jamoatchilik kengashi a'zolarini moddiy ragʻbatlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;<br>sogʻliqni saqlash, ta'lim, ekologiya va atrof-muhit, energetika sohalarida davlat siyosatini yurituvchi vazirliklar huzurida namunali jamoatchilik kengashlari faoliyatini yoʻlga qoʻyish, uning tajribasini boshqa vazirlik va idoralarda qoʻllash. | 2024-yil mart | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablagʻlari hamda qonun hujjatlar bilan taqiqlanmagan boshqa mablagʻlar | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov,<br>Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov,<br>Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov,<br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>X. Umarova,<br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>K. Sharipov,<br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br>A. Abduxakimov |
| **84-maqsad. Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Bosh prokuratura (N. Yoʻldoshev)* | | | | | |
| 24. | Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarni qiynoqqa solish holatlarining oldini olish boʻyicha samarali mexanizmlarni yaratish. | Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qoʻllash chogʻida ayblanuvchi va sudlanuvchini hibsxonaga joylashtirishdan oldin uni tergov hibsxonalarining oʻzida majburiy tibbiy koʻrikdan oʻtkazish tartibini joriy etish. | 2024-yil yakuniga qadar | Hisob-kitoblarga koʻra | Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov,<br>Oliy Majlisning Inson huquqlari boʻyicha vakili<br>(Ombudsman)<br>*(kelishuv asosida)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **85-maqsad. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini oʻrnatish hamda ma'muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy sud (B. Islamov)* | | | | | |
| 25. | Ma'muriy sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralari doirasini belgilash. | Ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolar yoki tadbirkorlarning huquqlari himoya etilishini kafolatlash maqsadida sud majlisida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning (javobgar mansabdor shaxslarning) qoida tariqasida, shaxsan ishtirokini ta'minlash choralarini belgilash. | 2024-yil noyabr | - | Bosh prokuratura<br>N. Yoʻldoshev,<br>Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov |
| **86-maqsad. Sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta'minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy sud (B. Islamov)* | | | | | |
| 26. | Sud xarajatlari toʻlovlarini amalga oshirish tizimini raqamlashtirish tizimini yanada kengaytirish. | Fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida sud xarajatlarini toʻlov tizimlari orqali sud binolarida onlayn tarzda amalga oshirish imkoniyatini yaratish. | 2024-yil may | Hisob-kitoblarga koʻra | Markaziy bank<br>M. Nurmatov,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>A. Xaydarov,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov |
| **87-maqsad. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yoʻnaltirish.** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov)* | | | | | |
| 27. | Ogʻir oqibatlar bilan bogʻliq yoʻl-transport hodisalarining oldini olishda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yanada kuchaytirish hamda aholi bilan muloqot tizimini yoʻlga qoʻyish. | 1. Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yoʻl harakati xavfsizligi xizmati qoshida Ma'muriy amaliyot markazi va uning filiallarini yaratish hamda uning faoliyatini “yagona darcha”, “eksterritoriallik” va “open space” tamoyillari asosida tashkil etish.<br>2. Ma'muriy amaliyot markazi va uning filiallarida fuqarolarning yoʻl harakati xavfsizligi masalalari boʻyicha shikoyatlar bevosita va joyida hal etilishini ta'minlash.<br>3. Ma'muriy amaliyot markazi va uning filiallarida ayrim vazifalarni bajarishga nogironligi boʻlgan fuqarolarni ham jalb etish. | 2024-yil noyabr | Ichki ishlar vazirligining budjet va budjetdan tashqari mablagʻlari | Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 28. | Yoʻl harakati xavfsizligini ta'minlashda idoralararo hamkorlikni rivojlantirish. | Yoʻl infratuzilmasining yoʻl harakati xavfsizligiga salbiy ta'sir koʻrsatuvchi omillarni tezkor ravishda bartaraf etish maqsadida Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi tarkibidagi Avtomobil yoʻllari texnik holati tahlili va harakat xavfsizligi markazi va Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yoʻl harakati xavfsizligi xizmati ma'lumotlar bazalarining oʻzaro integratsiyasini ta'minlash. | 2024-yil may | Ichki ishlar vazirligi va Transport vazirligining budjetdan tashqari mablagʻlari | Transport vazirligi<br>I. Mahkamov,<br>Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi<br>J. Tursunov,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov |
| 29. | Ozodlikdan mahrum etish bilan bogʻliq boʻlmagan jazolarni oʻtayotgan probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlash tizimini toʻliq elektron shaklga oʻtkazish. | 1. Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Probatsiya xizmatida “E-probasiya” elektron axborot tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.<br>2. “E-probasiya” axborot tizimiga Probatsiya xizmati va uning hududiy boʻlinmalarining barcha axborot modullarini integratsiya qilish.<br>3. “E-probasiya” axborot tizimiga probatsiyani amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi subyektlarning elektron axborot tizimlarini integratsiya qilish.<br>4. “E-probasiya” axborot tizimini toʻliq ishga tushirish. | 2024-yil aprel<br>2024-yil may<br>2024-yil iyun<br>2024-yil iyul | Ichki ishlar vazirligining budjet va budjetdan tashqari mablagʻlari | Yoshlar ishlari agentligi<br>A. Sa'dullayev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov)* | | | | | |
| 30. | Fuqarolarning kiberjinoyatlar qurboniga aylanishining oldini olish hamda kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda fuqarolarda “kibergigiyena”ni shakllantirish. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi har bir sohada oʻziga xos tarzda oʻtkaziladigan “Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi” kompleks targʻibot tadbirlarini oʻtkazish:<br>fuqarolarda Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish;<br>elektron toʻlov vositalaridan xavfsiz foydalanish;<br>shaxsga doir ma'lumotlarni ishonchli himoya qilish va ulardan noqonuniy foydalanishga yoʻl qoʻymaslik;<br>boshqalarning shaxsga doir ma'lumotlarini noqonuniy toʻplash va undan foydalanib, tovlamachilik, kiberzoʻravonlik kabi qilmishlar sodir etishning oldini olish;<br>taqiqlangan kontentlarga qarshi “raqamli immunitet”ni shakllantirish. | 2024-yil davomida | Mahalliy budjet mablagʻlari, mas'ul davlat organlari va tashkilotlarining budjetdan tashqari mablagʻlari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari va taqiqlanmagan boshqa manbalar | “Kiberxavfsizlik markazi” DUK<br>O. Mirzayev,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov,<br>Markaziy bank<br>M. Nurmuratov,<br>Milliy teleradiokompaniya<br>A. Djurabayev,<br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 31. | Samarqand shahrida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga raqamli texnologiyalarni joriy etish. | 1. “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi asosida aholi va turistlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida Samarqand shahrining har bir mahallasida hamda aholi gavjum joylarda videokuzatuv tizimlarini oʻrnatish.<br>2. Oʻrnatilgan videokuzatuv kameralari Samarqand viloyati IIB Vaziyatlar markaziga integratsiya qilinishini ta'minlash. | 2024-yil dekabr | Ijrochilar mablagʻlari | Milliy gvardiya<br>R. Djurayev,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov,<br>Samarqand viloyat hokimligi<br>E. Turdimov |
| **88-maqsad: Advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam koʻrsatish tizimini rivojlantirish.** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | | |
| 32. | Advokatlar hamda sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari oʻrtasida elektron axborot almashinuvini takomillashtirish. | “Yuridik yordam” axborot tizimi negizida advokatura, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari oʻrtasida oʻzaro elektron hujjatlar almashinuvini yoʻlga qoʻyish. | 2024-yil dekabr | - | Oliy sud<br>B. Islamov,<br>Bosh prokuratura<br>N. Yoʻldoshev,<br>Davlat xavfsizlik xizmati<br>A. Azizov<br>Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov,<br>Advokatlar palatasi<br>*(kelishuv asosida)* |
| **89-maqsad: Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Bojxona qoʻmitasi (A. Mavlonov)* | | | | | |
| 33. | Bojxona hududida qayta ishlash va (yoki) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimlariga tovarlarni joylashtirish uchun ruxsat berish jarayonlarini raqamlashtirish. | 1. Bojxona rejimiga tovarlarni joylashtirishni raqamlashtirish boʻyicha texnik-loyiha hujjatlarni ishlab chiqish hamda oʻrnatilgan tartibda ekspertizadan oʻtkazish.<br>2. Raqamlashtirishni nazarda tutuvchi dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. | 2024-yil may<br>2024-yil dekabr | - | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (G. Raximova)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 34. | Davlat xaridlari tizimida “yashil” xaridlar amaliyotini joriy etish. | Davlat xaridlari tizimida “yashil” xaridlar amaliyotini joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish. Bunda:<br><br>“yashil” davlat xaridlarining aniq mezonlarini belgilash;<br><br>davlat buyurtmachilari va boshqa ishtirokchilarning “yashil” xaridlarni oʻtkazish boʻyicha malakasini oshirish;<br><br>davlat xaridlarining elektron tizimida “yashil” xaridlar uchun alohida sahifa yaratish. | 2024-yil iyul | - | - |
| 35. | Davlat xaridlari sohasida raqobat muhitini kuchaytirish. | 1. Davlat xaridlari jarayonlarini raqamlashtirish orqali yanada soddalashtirish hamda raqobat muhitini kuchaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish. Bunda:<br><br>xarid hujjatlarining namunaviy raqamli shakllarini ishlab chiqish;<br><br>xarid hujjatlarini elektron tarzda shakllantirish va kelishish amaliyotini bosqichma-bosqich joriy qilish;<br><br>ishtirokchilarning takliflarini baholashda inson omilini bosqichma-bosqich qisqartirishni nazarda tutish.<br><br>2. Davlat xaridlari sohasida toʻgʻridan-toʻgʻri shartnomalarni tuzishdan oldin mazkur shartnomalarni majburiy tartibda jamoatchilikka ochiqlash tizimini joriy qilish.<br><br>3. Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan subyektlarni tanqidiy qayta koʻrib chiqish va ularni qisqartirish choralarini qoʻrish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil sentabr | - | - |
| 36. | Davlat xaridlari jarayonini raqamlashtirish | Davlat xaridlarini amalga oshirishda namunaviy texnik shartlarni ishlab chiqish hamda ishtirokchilar kiritgan ma'lumotlarni boshqa integratsiyalashgan bazalar ma'lumotlari asosida avtomat baholash tizimini joriy etish. | 2025-yil mart | Ijrochilar mablagʻlari | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov,<br><br>Hisob palatasi<br><br>A. Boboyev,<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi<br><br>A. Burxanov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 37. | Fuqarolik jamiyati institutlari vakillarini korrupsiyaga qarshi kurashishga faol jalb etish. | Nodavlat notijorat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi rolini oshirish maqsadida ular uchun tizimli ravishda grant dasturlari va ijtimoiy buyurtmalarni e'lon qilib borish. | 2024-yil doimiy | Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi mablagʻlari | Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi,<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi<br><br>A. Burxonov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A. Burxanov)* | | | | | |
| 38. | Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining samaradorligini oshirish. | Korrupsiyaning oldini olish mexanizmlarini joriy etish boʻyicha xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarining malakasini oshirish. | 2024-yil davomida reja-grafikka asosan | - | Hisob palatasi<br><br>A. Boboyev,<br><br>Bosh prokuratura<br><br>S. Samadov |

*(4-ilova Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi PF-227-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son)*

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi
PF-37-son Farmoniga
5-ILOVA

## "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasining "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yoʻnalishi boʻyicha 2024-yilga moʻljallangan

AMALIY TADBIRLAR REJASI

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbir | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **V. "XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT" TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH** | | | | | |
| **90-maqsad: Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Din ishlari boʻyicha qoʻmita (S. Toshboyev)* | | | | | |
| 1. | Oʻzbekistonda "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etish. | 1. Xalqaro konferensiyaning konsepsiyasi va dasturini tayyorlash.<br><br>2. Xalqaro konferensiyaning formati, vaqti va uni moliyalashtirish manbalarini kelishish, ishtirokchilar roʻyxatini shakllantirish.<br><br>3. Xalqaro konferensiyada Inson huquqlari boʻyicha Oliy komissar boshqarmasi rahbariyati va BMTning Inson huquqlari boʻyicha Kengashi maxsus mandatlari ishtiroki masalasini koʻrib chiqish.<br><br>4. Xalqaro konferensiyaning yakuniy hujjatini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br><br>5. Xalqaro konferensiya arafasida va uni oʻtkazishda keng koʻlamli axborot-tashviqot ishlarini olib borish.<br><br>6. Xalqaro konferensiyani yuqori saviyada oʻtkazish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil mart<br><br>2024-yil iyun<br><br>2024-yil sentabr<br><br>2024-yil sentabr<br><br>2024-yil oktabr | Vazirlar Mahkamasining zaxira jamgʻarmasi | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **91-maqsad: Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Tashqi ishlar vazirligi (B. Saidov)* | | | | | |
| 2. | Markaziy Osiyoda suv xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan hamkorlikdagi ilmiy-amaliy loyihalarni yoʻlga qoʻyish hamda ularni moliyalashtirish boʻyicha xalqaro grantlarni jalb qilish. | Ushbu yoʻnalishda hamkorlikni yoʻlga qoʻyish suv xavfsizligini ta'minlash doirasida mintaqa davlatlari tomonidan transchegaraviy daryolardan foydalanish va gidroinshootlar barpo qilish boʻyicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish hamda qoʻshni davlatlar bilan xalqaro grant mablagʻlarni olish choralarini qoʻrish. | 2024-yil davomida | Jahon banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari grantlari, davlat jamgʻarmalari | Suv xoʻjaligi vazirligi<br>Sh. Xamrayev,<br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br>A. Abduxakimov,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov<br>Markaziy Osiyo xalqaro instituti<br>J. Vahobov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida)* | | | | | |
| 3. | Markaziy Osiyoda mintaqaviy ekologik masalalarni muhokama qilishga qaratilgan parlamentlararo hamkorlikni yoʻlga qoʻyish. | 1. Ekologik masalalar boʻyicha mintaqaviy parlamentlararo hamkorlik boʻyicha xalqaro tajribani oʻrganish.<br>2. Xalqaro tajribani oʻrganish natijalari boʻyicha axborot tahliliy ma'lumot tayyorlash.<br>3. Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari bilan ekologik masalalarni muhokama qilish boʻyicha muzokaralar oʻtkazish.<br>4. Mintaqaviy ekologik masalalarni doimiy muhokama qilib borishni muvofiqlashtiradigan Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari vakillaridan iborat doʻstlik guruhini tashkil qilish. | 2024-yil mart<br>2024-yil aprel<br>2024-yil aprel — sentabr<br>2024-yil dekabr | - | Tashqi ishlar vazirligi<br>B. Saidov |
| **92-maqsad: An'anaviy sheriklar bilan oʻzaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qoʻshilish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Tashqi ishlar vazirligi (B. Saidov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4. | AQSH, Kanada va Amerika qit'asining boshqa hamkor mamlakatlari bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalarini yanada chuqurlashtirish va har tomonlama kengaytirish. | 1. AQSH bilan Strategik sheriklik muloqoti, Kanada va Braziliya bilan siyosiy maslahatlashuvlarni doimiy oʻtkazib borish;<br><br>2. “S5+1” formati doirasida hamkorlikni kengaytirish, jumladan, qoʻshma loyihalarni ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirishda amaliy yordam berish;<br><br>3. Parlamentlararo hamkorlik aloqalarini kengaytirish;<br><br>4. Amerika mamlakatlaridan salohiyatli investorlarni Oʻzbekistonga jalb qilish, ular ishtirokida turli biznes-forumlar, koʻrgazmalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish;<br><br>5. AQSHda oʻzbek tili, madaniyati va milliy an'analariga bagʻishlangan turli tadbirlarni tashkil etish;<br><br>6. AQSH bilan ta'lim, ilm-fan, sogʻliqni saqlash va boshqa sohalarda aloqalarni kengaytirish, xususan, universitetlararo va ilmiy tadqiqotlar yoʻnalishi boʻyicha turli dasturlarda ishtirok etish hamda qoʻshma loyihalarni amalga oshirish. | 2024-yil davomida | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Qudratov |
| 5. | Yevropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlar bilan tashqi savdoni kengaytirish, xorijiy investitsiyalar, moliyaviy-texnik yordam va ilgʻor texnologiyalarni jalb etish, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan koʻp qirrali va oʻzaro manfaatli hamkorlikni izchil davom ettirish. | 1. “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitini yuksak daraja tashkil etish.<br><br>2. Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” vazirlar formatidagi navbatdagi uchrashuvida samarali ishtirokini ta'minlash.<br><br>3. Oʻzbekiston va YEI oʻrtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisidagi bitimni imzolash maqsadida Yevropa Ittifoqi hukumat idoralari va institutlari rahbariyati, YEIning maxsus vakillari, Yevropa parlamenti a'zolari va yirik ishbilarmon doiralari bilan oliy va yuqori darajalardagi uchrashuv va muzokaralarni samarali uyushtirish.<br><br>4. Oʻzbekistonning GSP+ imtiyozlar tizimi benefitsiari maqomini uzaytirish masalasini ilgari surish.<br><br>5. Afgʻoniston boʻyicha Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo maxsus vakillarining navbatdagi uchrashuvlarini oʻtkazish. | 2024-yil davomida<br><br>2024-yil davomida<br><br>Kelishuvga muvofiq<br><br>Doimiy ravishda<br><br>2024-yil davomida | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Qudratov |
| **93-maqsad: Jahon savdo tashkilotiga toʻlaqonli a'zo boʻlish.** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Jahon savdo tashkiloti masalalari bo‘yicha maxsus vakil (A. Urunov)* | | | | | |
| 6. | O‘zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo‘lishi bo‘yicha Ishchi guruhning 8-yig‘ilishini o‘tkazish. | 1. O‘zbekistonning JSTga a'zo bo‘lishi bo‘yicha Ishchi guruhning 8-yig‘ilishini o‘tkazish bo‘yicha Kotibiyat va JSTga a'zo davlatlar bilan maslahatlashuvlar va muzokaralar tashkil etish.<br><br>2. Ishchi guruhning 8-yig‘ilishini o‘tkazish sanasini kelishish.<br><br>3. O‘zbekiston bo‘yicha Ishchi guruh yig‘ilishini o‘tkazish. | 2024-yil mart<br><br><br><br>2024-yil aprel | Hisob-kitoblarga ko‘ra | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Qudratov |
| **94-maqsad: Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Tashqi ishlar vazirligi (B. Saidov)* | | | | | |
| 7. | O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan chet ellardagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga konsullik xizmatlarini ko‘rsatish sifatini keskin oshirish. | 1. Chet elda doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun shaxsni tasdiqlash va O‘zbekiston Respublikasiga qaytish guvohnomasini rasmiylashtirish tizimini yanada takomillashtirish.<br><br>2. Chet elda doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining doimiy va vaqtinchalik konsullik ro‘yxatiga olish qamrovini kengaytirish.<br><br>3. Fuqarolar murojaatlarini tez va samarali hal etishga qaratilgan tizimlarni takomillashtirish. | 2024-yil davomida | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi hamda diplomatik xizmat organlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov,<br><br>“Vatandoshlar” jamoat fondi<br><br>O. Sattarov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — “Vatandoshlar” jamoat fondi (O.Sattarov)* | | | | | |
| 8. | O‘zbekistonlik vatandoshlar butunjahon qurultoyini tashkil etish va uni yuqori saviyada o‘tkazish. | 1. Qurultoy konsepsiyasini ishlab chiqish.<br><br>2. Qurultoyni o‘tkazish hamda OAV va internet tarmog‘ida keng yoritish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil sentabr | “Vatandoshlar” jamoat fondi,<br><br>Vazirlar Mahkamasining zaxira mablag‘lari | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>“Uzbekistan's club” XNNT<br><br>*(kelishuv asosida)*,<br><br>O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi<br><br>O. Shavkatov,<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Madaniyat vazirligi<br><br>O. Nazarbekov,<br><br>Milliy teleradiokompaniya<br><br>A. Djurabayev |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 9. | “Vatandoshlar” jamoat fondi huzurida xorijda murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan vatandoshlarga masofadan turib kunu-tun xizmat koʻrsatuvchi onlayn elektron portalni ishga tushirish. | 1. Elektron portalni konsepsiya va texnik topshiriq asosida ishga tushirish.<br><br>2. Manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda xorijda murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan vatandoshlarga tizimli ravishda koʻmaklashish choralarini koʻrish. | 2024-yil mart<br><br>Doimiy | “Vatandoshlar” jamoat fondi,<br><br>manfaatdor vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablagʻlari | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |
| 10. | Xorijdagi vatandoshlar orasida “Birlashamiz” umumiy chorlovi ostidagi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish. | 1. Chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash.<br><br>2. Tadbirlarni yuqori saviyada oʻtkazish. | 2024-yil mart<br><br>Reja asosida | “Vatandoshlar” jamoat fondi mablagʻlari | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Madaniyat vazirligi<br><br>O. Nazarbekov,<br><br>“Uzbekistan's club” XNNT<br><br>*(kelishuv asosida)*,<br><br>Oʻzbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi<br><br>O. Shavkatov,<br><br>Milliy teleradiokompaniya<br><br>A. Djurabayev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 11. | “Oʻzbekistonlik” loyihasi doirasida dunyo boʻylab turli sohalarda muvaffaqiyatga erishgan yosh vatandoshlarimiz haqida yuqori sifatli kontent yaratish. | 1. Loyihani 2024 — 2026-yillarda amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br><br>Bunda, har yili:<br><br>“Oʻzbekistonlik” filmining 4 ta epizodi va “Oʻzbekistonlik.Student” filmining 12 ta epizodini tasvirga olish;<br><br>xorijiy davlatlarda 2 ta “Oʻzbekistonlik” xalqaro forumini oʻtkazish;<br><br>“Uzbekistan's club” jurnalining 2 ta sonini nashrdan chiqarish.<br><br>2. Loyiha doirasida ishlab chiqarilgan media mahsulotlarni yoshlar orasida keng targʻib qilish. | 2024-yil mart<br><br>Reja asosida doimiy | Alohida hisob-kitoblarga asosan,<br><br>Yoshlar ishlari agentligi va homiylar mablagʻlari | “Uzbekistan's club” XNNT<br><br>O. Abdushukurov,<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>“Vatandoshlar” jamoat fondi<br><br>O. Sattarov,<br><br>Oʻzbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi<br><br>O. Shavkatov,<br><br>“Uzbekistan Airways” AJ<br><br>Sh. Xudaykulov,<br><br>MTRK<br><br>A. Djurabayev,<br><br>Milliy media assotsiatsiyasi<br><br>A. Abutolipov |
| **95-maqsad: Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama koʻmak koʻrsatish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev)* | | | | | |
| 12. | Noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish. | 1. Xalqaro migratsiya tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMTning Inson huquqlari boʻyicha Oliy komissari boshqarmasi, Jahon banki kabi tashkilotlar bilan noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohalarida hamkorlik memorandumlarini imzolash.<br><br>2. Xorijiy davlatlarning turdosh tashkilotlari bilan sohada ma'lumot va tajriba almashuvini amalga oshirish, migratsiya muammolarini hamkorlikda hal etishga qaratilgan kelishuvlarga erishish.<br><br>3. Ishga joylashtirish boʻyicha xorijiy tomon bilan kelishuvlar sonini oshirish. | 2024-yil davomida | Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi mablagʻlari | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Ichki ishlar vazirligi<br><br>P. Bobojonov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 13. | Tashqi mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilish doirasida xorijiy davlatlar bilan yangi mehnat bozorlariga chiqish va mazkur yoʻnalishdagi tartib-taomillarni soddalashtirish boʻyicha hamkorlikni jadallashtirish. | 1. Xorijdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida boʻlgan fuqarolarni, ayniqsa ayollar va yoshlarni chiqishdan oldin moslashtirish, xorijiy tillarga va kasb-hunarga oʻqitish hamda xavfsiz, tashkillashtirilgan tarzda mehnat migratsiyasi tizimi asosida xorijda ishga joylashishiga koʻmaklashish.<br><br>2. Har bir hududda bittadan Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi hamda Qurilish sohasi malakali mutaxassislarini tayyorlash markazlarida oʻqitish kurslarini tashkil etish.<br><br>3. Oʻzbekiston fuqarolarini tashkillashtirilgan tarzda xorijda ishga joylashishiga koʻmaklashish maqsadida xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniyalari bilan hamkorlik shartnomalarini tuzish.<br><br>4. Xorij tomoni bilan kelishuv asosida eng koʻp mehnat migrantlari ishlayotgan davlatlarda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatxona (vakillik)larini ochish orqali ularga koʻrsatilayotgan huquqiy va moddiy yordam koʻlamini oshirish. | 2024-yil davomida | Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi mablagʻlari | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B.Saidov |
| **96-maqsad: Fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Inson huquqlari boʻyicha milliy markazi (A. Saidov)* | | | | | |
| 14. | Oʻzbekiston Respublikasi qoʻshilgan asosiy xalqaro hujjatlarning (shartnoma, bitim, konvensiya, akt, pakt, bayonnoma, xatlar notalar va b.) imzolangan rasmiy tildagi matni bilan bir qatorda davlat tiliga rasmiy tarjima qilish orqali fuqarolarning xalqaro darajadagi hujjatlardan xabardorligini oshirish. | 1. Oʻzbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan, tasdiqlangan, qabul qilingan, qoʻshilgan asosiy xalqaro hujjatlarni (shartnoma, bitim, konvensiya, akt, pakt, bayonnoma, xatlar notalar va b.) xatlovdan oʻtkazish.<br><br>2. Bosqichma-bosqich barcha xalqaro hujjatlarni tarjimalarini qonunchilik hujjatlari milliy bazasi-Lex.uz da hamda tegishli davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borish. | 2024-yil | Mablagʻ talab etilmaydi | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 15. | Internet makonida kiberxavfsizlikni ta'minlash doirasida oʻquvchilarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish. | Umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida oʻquvchilarni ma'naviy-marifiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, Internetdan foydalanish odobini shakllantirish va zararli ma'lumotlardan himoya qilish maqsadida “Tarbiya” fani doirasida “Internet va ijtimoiy tarmoq odoblari”ga bagʻishlangan mavzular oʻtilishini ta'minlash. | 2024-yil sentabr | - | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |
| **97-maqsad: Jahonda sodir boʻlayotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Mudofaa vazirligi (B. Kurbanov)* | | | | | |
| 16. | Harbiy xizmatchilarga vatanparvarlik, Vatanga va xalqqa sodiqlik tuygʻularini singdirish, harbiy xizmatni oʻtash tartibini zamon talablaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish. | 1. Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qoʻshinlari psixologik tayyorgarlik markazida maxsus kurs tashkil qilgan holda harbiy xizmatchilarni tayyorlash tizimini yoʻlga qoʻyish.<br><br>2. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish, huquqiy savodxonligini yuksaltirish boʻyicha amaliy ishlarni tashkillashtirish.<br><br>3. Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning oʻquv moddiy-texnik bazasi, shuningdek, harbiy psixologlar institutini moddiy-texnik ta'minlash boʻyicha amaliy ishlarni tashkillashtirish.<br><br>4. Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar hamda xorijiy davlatlar armiyalari bilan hamkorlikda oʻtkaziladigan oʻquvlarda axloqiy-ruhiy jihatdan ta'minlash va psixologik tadbirlarni oʻtkazish hamda soha mutaxassislarining yetakchi xorijiy davlatlari armiyalarida tajriba almashish va malaka oshirishini tashkil etish.<br><br>5. Vatanni himoya qilishda qahramonlarcha halok boʻlgan oʻgʻlonlar hayoti va qahramonliklari haqida koʻrsatuv va videolavhalar tayyorlash hamda keng tarqatish. | 2024-yil mart<br><br>2024-yil may<br><br>2024-yil oktabr<br><br>Alohida kelishuv doirasida<br><br>2024-yil davomida | Alohida hisob-kitoblarga asosan, Mudofaa vazirligi hamda Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarga har yili ajratiladigan budjet mablagʻlari doirasida, budjetdan tashqari mablagʻlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar | - |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 17. | Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat g‘oyasi atrofida birlashtirish hamda Vatan himoyachilarini tarbiyalashda uzviylikni ta'minlash. | 1. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha ishlab chiqilgan kompleks dasturga muvofiq amaliy ishlarni jadallashtirish.<br><br>2. “Vatan tayanchi” otryadlari o‘rtasida “Vatanparvarlar” harbiy-sport musobaqalarini o‘tkazish.<br><br>3. Hududlarda “Vatanparvarlar” harbiy-vatanparvarlik bog‘larini barpo etish hamda mavjud bog‘larni takomillashtirish yuzasidan harbiy-ma'muriy sektorlar rahbarlari bilan hamkorlikda amaliy ishlarni tashkil etish.<br><br>4. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tadbirlarni tashkil etish. | Kompleks dasturga asosan<br><br>2024-yil may<br><br>2024-yil noyabr<br><br>2024-yildan boshlab | Alohida hisob-kitoblarga asosan, Mudofaa vazirligi hamda Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarga har yili ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar,<br><br>Harbiy-ma'muriy sektorlarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari | Tegishli vazirlik<br><br>va idoralar,<br><br>harbiy-ma'muriy sektorlar,<br><br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>X. Umarova |
| 18. | Harbiy-tibbiy muassasalar infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, ularni zamonaviy tibbiyot uskunalari va texnikalar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash. | 1. Samarqand harbiy gospitali uchun bino va inshootlarni loyihalash, qurish hamda uni zamonaviy tibbiyot asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlash.<br><br>2. Harbiy gospitallarni zamonaviy MSKT, MRT va ExoKG (VEM tizimi bilan) bilan ta'minlash.<br><br>3. Mudofaa vazirligi shaxsiy tarkibini individual tibbiy himoya vositalari va tibbiy sumkalar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash. | 2024-2025-yillar<br><br>2024-yildan boshlab | Mudofaa vazirligiga har yili ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar doirasida | - |
| **98-maqsad: Favqulodda vaziyatlar va global iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A. Kuldashev)* | | | | | |
| 19. | Xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimi bilan integratsiyalashuv asosida Respublikada kuchli zilzilalar haqida erta ogohlantirish milliy tizimi samaradorligini yanada oshirish. | 1. Xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimiga ulangan qo‘shni respublikalarning seysmik stansiyalarini milliy seysmik kuzatuvlar tarmog‘iga integratsiya qilish.<br><br>2. Qo‘shni respublikalar bilan seysmik ma'lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri real vaqt rejimida almashinuvini yo‘lga qo‘yish.<br><br>3. Kuchli zilzilalarni qayd etuvchi stansiyalar sonini bosqichma-bosqich 200 taga yetkazish.<br><br>4. Aholini zilziladan erta ogohlantirish tizimini zamonaviy talablar asosida bosqichma-bosqich takomillashtirib borish. | 2024-yil iyun<br><br>2024-yil avgust<br><br>2024 — 2026-yillar<br><br>2024-yildan boshlab | Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligi va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan | Seysmologiya instituti<br><br>V. Rafikov,<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 20. | Seysmik faol zonalarda seysmik xatarni (riskni) kamaytirish/boshqarish uchun "Kuchli zilzilalar ta'sirida hududlarning talafot darajasini baholash imkonini beruvchi raqamlashtirilgan simulyatsiya modellari"ni yaratish (Toshkent shahri misolida). | 1. Seysmik faol zonalarda kuchli zilzila boʻlishi ehtimoli yuqori boʻlgan hududlarni aniqlash boʻyicha tadqiqotlar olib borish.<br><br>2. Kuchli zilzila sodir boʻlishi ehtimoli yuqori boʻlgan hududlarda keng qamrovli seysmologik va inshootlarning zilzilabardoshligini baholash boʻyicha tadqiqotlar olib borish.<br><br>3. Xorijiy davlatlarda yaratilgan metodo�ogiyalaridan keng foydalangan holda raqamlashtirilgan simulyatsiya modellarini ishlab chiqish.<br><br>4. Yaratilgan raqamlashtirilgan simulyatsiya modellari yordamida natijalar olish.<br><br>5. Hududning seysmik xavfsizligini ta'minlash maqsadida chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish. | 2024-yil aprel<br><br>2024-yil noyabr<br><br>2024-yil mart<br><br>2024-yil dekabr | Innovatsion rivojlanish agentligi mablagʻlari | Seysmologiya instituti<br><br>V. Rafikov,<br><br>Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov,<br><br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>K. Sharipov,<br><br>Innovatsion rivojlanish agentligi<br><br>Sh. Rajabboyev,<br><br>Toshkent shahar hokimligi<br><br>Sh. Umurzakov,<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 21. | Aholini favqulodda vaziyatlar, kuchli zilzilalar va iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq tabiiy ofatlarda toʻgʻri harakat qilishga tayyorlash tizimini rivojlantirish. | 1. Ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalarida band boʻlgan aholi, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar mutaxassislarini xizmat va ishdan ajralmagan holda (masofadan turib) ish joylarida oʻqitish tizimini joriy qilish. | 2024-yil iyun | Favqulodda vaziyatlar vazirligiga har yili ajratiladigan budjet mablagʻlari doirasida, shuningdek, vazirlikning budjetdan tashqari mablagʻlari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>X. Umarova,<br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>K. Sharipov,<br>Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>B. Musayev,<br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| | | 2. Bogʻcha, maktab, professional va oliy ta'lim muassasalarida zilzila va boshqa favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga oʻrgatishga moʻljallangan qoʻllanma va videoroliklarni tayyorlash. | 2024-yil dekabr | Innovatsion rivojlanish agentligi mablagʻlari, Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligi va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan | |
| | | 3. Fuqarolarni kuchli yirik favqulodda vaziyatlar, xususan kuchli zilzilalar oqibatlarini bartaraf etishda volonterlikka oʻrgatishga moʻljallangan masofaviy kurslarni yoʻlga qoʻyish. | 2024-yil dekabr | | |
| | | 4. Aholini zilzilada amaliy harakatlanishga oʻrgatishga moʻljallangan mobil oʻquv trenajerlari (zilzila simulyatorlari) orqali tayyorlash tizimini yoʻlga qoʻyish. | 2024-2025-yillarda | | |
| 22. | Yonish va portlash xavfi yuqori boʻlgan kimyoviy moddalar (mahsulotlar) bilan bogʻliq favqulodda vaziyatlarning oldini olish tizimini takomillashtirish. | 1. Respublika hududiga kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) olib keluvchi subyektlar tomonidan bojxona rasmiylashtiruvidan oʻtkazilgan kimyoviy moddalar (mahsulotlar) va ularni saqlash joylari toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni kiritish imkoniyatiga ega boʻlgan axborot platformasini yaratish. | 2024-yil mart | Favqulodda vaziyatlar vazirligiga har yili ajratiladigan budjet mablagʻlari doirasida, shuningdek, vazirlikning budjetdan tashqari mablagʻlari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov,<br>Bojxona qoʻmitasi<br>A. Mavlonov,<br>Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi<br>B. Islamov,<br>Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov,<br>Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov |
| | | 2. Yonish va portlash xavfi yuqori boʻlgan kimyoviy moddalar (mahsulotlar) bilan bogʻliq texnogen avariyalar va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etiladigan radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza guruhlarini maxsus texnikalar va zarur asbob-anjomlar bilan ta'minlash. | 2024-yil iyun | | |
| | | 3. Yonish va portlash xavfi yuqori boʻlgan kimyoviy moddalar (mahsulotlar) bilan bogʻliq texnogen avariyalar va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish boʻyicha respublika darajasida koʻrgazmali oʻquv-mashqi oʻtkazish. | 2024-yil oktabr | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Tashqi ishlar vazirligi (B. Saidov)* | | | | | |
| 23. | Transchegaraviy daryolar va turli gidroinshootlarda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan favqulodda holatlarning oldini olishga qaratilgan hukumatlararo hamkorlikni yanada kuchaytirish. | Sohaga oid doimiy monitoring natijalari va prognozlar boʻyicha tezkor choralar koʻrish hamda ushbu yoʻnalishdagi muammolarni bartaraf etishni muvofiqlashtirish. | 2024-yil davomida | Mablagʻ talab etilmaydi | Suv xoʻjaligi vazirligi<br>Sh. Xamrayev,<br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br>A. Abduxakimov,<br>Favqulodda vaziyatlar vazirligi<br>A. Kuldashev,<br>Davlat xavfsizlik xizmati<br>A. Azizov |
| **99-maqsad: Chegaralar xavfsizligini mustahkamlash** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Davlat xavfsizlik xizmati (A. Azizov)* | | | | | |
| 24. | Davlat chegarasini qoʻriqlash va himoya qilish tizimini mustahkamlash hamda uning daxlsizligini ta'minlash. | Oʻzbekiston Respublikasi Davlat chegarasini qoʻriqlash va himoya qilishni mustahkamlash, boʻlinmalarning infratuzilmasini takomillashtirish uchun qabul qilingan Davlat Rahbari va Hukumat qarorlari ijrosini tegishli vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklar bilan birgalikda 2024-yilda ta'minlanishini jadallashtirish. | 2024-yil davomida | Qarorlarda mas'ul etib belgilangan tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar mablagʻlari | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **100-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalarini rivojlantirish** | | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)* | | | | | |
| 25. | Oliy ta'lim muassasalari talabalari oʻrtasida "Yosh kitobxon talabalar ligasi" tanlovini tashkil etish hamda qoʻshimcha ravishda 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirgʻiz va turkman) oʻtkazish. | 1. Tanlovni oʻtkazish boʻyicha Ishchi guruh tarkibini tasdiqlash.<br>2. Tanlov nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>3. Tanlovni talabalar oʻrtasida tashkil etish va oʻtkazish.<br>4. Tanlovni ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish. | 2024-yil mart<br>2024-yil mart<br>2024-yil aprel<br>2024-yil may | Mas'ul ijrochilar mablagʻlari hisobidan | Yoshlar ishlari agentligi<br>A. Sa'dullayev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasi (R. Kurbanov)* | | | | | |
| 26. | Xorijiy mamlakatlar va yurtimizdagi boshqa millat vakillari bilan doʻstlik aloqalarini rivojlantirish. | Doʻstlik jamiyatlari sonini 42 taga yetkazish va mas'ul raislarini tayinlash, chet el mamlakatlarining tegishli hududlari va shaharlari bilan mamlakatlarimiz hududlari va shaharlari oʻrtasidagi birodarlik aloqalarini oʻrnatish amaliyotini faollashtirish. | 2024-yil davomida | - | - |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | | |
| 27. | “Doʻstlik” festivalini tashkil etish va uni yuqori saviyada oʻtkazish. | “30-iyul — Xalqlar doʻstligi kuni” munosabati bilan “Doʻstlik” festivalini tashkil etish va oʻtkazish. | 2024-yil iyul | Vazirlar Mahkamasining zaxira jamgʻarmasi | Millatlararo munosabatlar qoʻmitasi<br><br>R. Kurbanov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari,<br><br>Milliy teleradiokompaniya<br><br>A. Djurabayev,<br><br>AOKA<br><br>A. Xodjayev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ullar — Din ishlari boʻyicha qoʻmita (S. Toshboyev) va Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | | |
| 28. | Bagʻrikenglik haftaligini tashkil etish va uni yuqori saviyada oʻtkazish. | 16-noyabr — Xalqaro bagʻrikenglik kuniga bagʻishlab respublikaning barcha hududlarida “Bagʻrikenglik” haftaligini oʻtkazish.<br>Tadbirda respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning milliy madaniyati va milliy taomlari boʻyicha koʻrgazmalar tashkil etish. | 2024-yil noyabr | Vazirlar Mahkamasining zaxira jamgʻarmasi | Millatlararo munosabatlar qoʻmitasi<br><br>R. Kurbanov |

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi
PF-37-son Farmoniga
6-ILOVA

## “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining Har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yoʻnalishi boʻyicha 2024-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

ROʻYXATI

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | Normativ-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan tadbirlar | Ijro muddati | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **I. HAR BIR INSONGA OʻZ SALOHIYATINI ROʻYOBGA CHIQARISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH** | | | | |
| **3-maqsad: Umumiy oʻrta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)* | | | | |
| 1. | Umumta'lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini samarali qoʻllagan oʻqituvchilarga ustama berish tartibini joriy qilish boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>umumta'lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilgan maktablar faoliyatini baholash;<br><br>yangi tizimni samarali joriy etgan, ta'lim berish yoʻnalishida yuqori koʻrsatkichlarga erishgan oʻqituvchilarga Davlat budjetidan lavozim maoshiga har oylik 40 foizgacha ustama berish tartibini joriy qilish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyul | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>O. Fozilkarimov |
| **7-maqsad: Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2. | Muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali muhandis kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, talaba-yoshlarni muhandislik sohasiga yoʻnaltirish boʻyicha ishlarni tizimli tashkil etish vazifalarini aniq belgilash;<br><br>muhandis kadrlar tayyorlash boʻyicha aniq ta'lim yoʻnalishlarini belgilash;<br><br>muhandislik sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasi (zamonaviy laboratoriyalar va asbob-uskunalarning mavjudligi) holatini yaxshilash;<br><br>talabalarning sohadagi ishlab chiqarish tashkilotlarida amaliy bilim olishi uchun yetarli sharoitlarni yaratish;<br><br>muhandislik sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari professor-oʻqituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirish choralarini koʻrish;<br><br>muhandislik sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari professor-oʻqituvchilarining pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borish tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha aniq chora-tadbirlarni belgilash masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| **9-maqsad: Fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yoʻnalishlar bilan boyitish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)* | | | | |
| 3. | Fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ilmiy loyihalar tanlovini oʻtkazish tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>fundamental tadqiqot dasturlarini ishlab chiqishda manfaatdor vazirlik va idoralarning ishtirokini belgilash;<br><br>fundamental tadqiqot loyihalarini koʻrib chiqishda ilmiy-texnik kengashlarining faoliyatini tartibga solish;<br><br>ilmiy loyihalar tanlovini muayyan davrlarda oʻtkazilishini belgilash masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun | Innovatsion rivojlanish agentligi<br><br>Sh. Rajabbayev |
| **11-maqsad: Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qoʻllab-quvvatlash** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh. Rajabbayev)* | | | | |
| 4. | Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul qilish tartibini takomillashtirish. | Loyihada:<br><br>talabgorlar tomonidan Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimida toʻplangan ilmiy faoliyatga doir tegishli ma'lumotlardan kelib chiqish qabulni tashkil qilish;<br><br>ilmiy faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar reyestrini joriy qilish;<br><br>oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul kvotasini tegishli tashkilotning ilmiy faoliyat reytingidan kelib chiqib taqsimlash va qayta taqsimlash amaliyotini joriy qilish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun | Tizimida oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi ilmiy tashkilotlar va ta'lim muassasalari boʻlgan vazirlik va idoralar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5. | Innovatsion faoliyat sohasidagi startap loyihalarini saralash va moliyalashtirish toʻgʻrisida normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>startap loyihalarini akseleratsiya dasturlari orqali saralashni tashkil etish;<br><br>loyiha tashabbuskorlarining tadbirkorlik faoliyatiga doir bilim va koʻnikmalarini rivojlantirishga koʻmaklashadigan tizimni joriy qilish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun | Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi<br><br>J. Tavakalov |
| **13-maqsad: Aholining oʻrtacha umr davomiyligini oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Sogʻliqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov), Savdo-sanoat palatasi (D. Vaxabov)* | | | | |
| 6. | Yod tanqisligini oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha qonun loyihasi. | Oʻzbekiston Respublikasining “Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi toʻgʻrisida”gi Qonuniga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish. Bunda:<br><br>iste'mol tuzini yod bilan boyitish uslublarini zamonaviy standartlar asosida takomillashtirish;<br><br>ushbu yoʻnalishda monitoring, nazorat va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;<br><br>mamlakatda yodat kaliy moddasini chetdan olib kirish va realizatsiyasini kengaytirish, shuningdek iste'mol tuzi ishlab chiqaruvchilarining salohiyatini oshirish;<br><br>iste'mol tuzini saqlash, iste'molchiga yetkazib berish va realizatsiya qilish tartibini takomillashtirish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil may | Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi<br><br>A. Kayumov |
| **16-maqsad: Onalar va bolalar oʻlimini qisqartirish, sogʻlom bolalikni ta'minlash** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev)* | | | | |
| 7. | Bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish choralarini yanada kuchaytirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Oʻzbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonuniga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish boʻyicha qonun loyihasini ishlab chiqish.<br><br>Loyihada bolalarning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoyalashga oid qonunchilik hujjatlarini xatlovdan oʻtkazish va xorijiy tajribani oʻrganish orqali mazkur Qonunga Internet tarmogʻiga joylashtiriladigan zararli axborotlardan bolalarni himoya qilish boʻyicha aniq normalar kirtish �azarda tutiladi. | 2024-yil iyun | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>X. Umarova,<br><br>Ichki ishlar vazirligi<br><br>P. Bobojonov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Oliy Majlis Senati<br><br>*(kelishuv asosida)* |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8. | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasida “yashil” iste'mol madaniyatini shakllantirish maqsadida “yashil” iqtisodiyotni barpo etishga yoshlarni jalb etish boʻyicha maxsus dasturni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;<br><br>davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mazkur yoʻnalishdagi vazifalarini belgilash;<br><br>yoshlarni “yashil” iqtisodiyot prinsiplari asosida “yashil” ish oʻrinlariga keng jalb etish;<br><br>yoshlar uchun “iqlimiy moliyalashtirish”, “yashil” kreditlash va subsidiyalash jarayonlarini soddalashtirish;<br><br>yoshlarni “yashil makon” umummilliy loyihasi tadbirlariga volontyorlik faoliyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish;<br><br>aholining, ayniqsa yoshlarning atrof-muhit holati boʻyicha xabardorligini oshirish;<br><br>“yashil” iste'mol madaniyatini shakllantirish maqsadida yoshlarni jalb etish boʻyicha maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqish;<br><br>jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining salohiyatidan keng foydalanish hamda ilmiy-ommabop va axborot bosma nashrlar, tele-, radio dasturlar yaratish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyul | Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamaxmudov |
| **20-maqsad: Aholi orasida toʻgʻri ovqatlanish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qishloq xoʻjaligi vazirligi (I. Abdurahmonov)* | | | | |
| 9. | Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi talablarni institutsional nuqtai nazardan takomillashtirish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. | Oʻzbekiston Respublikasi “Oziq-ovqat xavfsizligi toʻgʻrisida”gi Qonuni loyihasini ishlab chiqish va unda:<br><br>fermer xoʻjaliklari tomonidan pestitsidlarni roʻyxatga olish, sotish va ulardan foydalanish tartibini belgilash;<br><br>Samarali qishloq xoʻjaligi amaliyoti laboratoriyalarini tashkil etish asoslarini belgilash;<br><br>oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi talablarni xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirish;<br><br>ishlab chiqaruvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlarida trans yogʻlar, shakar va tuz miqdorini koʻrsatish boʻyicha talablarni belgilash masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyul | Sogʻliqni saqlash vazirligi<br><br>A. Xudayarov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Sogʻliqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 10. | Sogʻlom ovqatlanish uchun sharoit yaratish va qoʻllab quvvatlash boʻyicha tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada: Sogʻlom ovqatlanish strategiyasini tasdiqlash va bunda:<br><br>supermarketlarda sogʻlom turmush tarzi mahsulotlari uchun maxsus “sogʻlom ovqatlanish” javonlarini tashkil etish;<br><br>tarkibida transyogʻlar, shakar va tuz miqdori yuqori boʻlgan mahsulotlarni TVda (asosan bolalar uchun telekanallarda) va koʻchalardagi reklamasini cheklash;<br><br>oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar mahsulot qadogʻida transyogʻ, shakar va tuz miqdorini koʻrsatish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | - |
| **25-maqsad: Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minla�, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Vazirlar Mahkamasi (Z. Maxkamova)* | | | | |
| 11. | Jinoiy oilaviy (maishiy) zoʻravonlik qurbonlariga nisbatan jabrlanuvchining talabiga koʻra sud tomonidan nikohdan ajratish toʻgʻrisidagi ishlarni soddalashtirilgan tartibda koʻrish va hal qiluv qarori chiqarish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>oilaviy zoʻravonlik holatlarini tahlil qilish va zoʻravonlikka oid qonunchilik normalarini xatlovdan oʻtkazish;<br><br>oilaviy zoʻravonlikka oid ishni koʻrishni keyinga qoldirmasdan va yarashish uchun muddat tayinlamasdan hal qiluv qarorini chiqarish tartibini joriy qilish;<br><br>Sudda uy-joyga majburiy tartibda kiritish bilan bogʻliq da'volar koʻrilayotganda, uy egasining talabiga koʻra majburiy tartibda kiritilayotgan taraf uy egasiga tegishli mutanosib sharoitga ega boshqa yashash uy-joyga uy-joyda yashash (ijara) xarajatlarini toʻliq qoplagan holda joylashtirish tartibini belgilash masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Oliy sud<br><br>B. Islamov,<br><br>Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi<br><br>O. Parpiboyeva,<br><br>Ichki ishlar vazirligi<br><br>P. Bobojonov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti<br><br>N. Egamberdiyeva |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi (O. Parpiboyeva)* | | | | |
| 12. | Yon shajara boʻyicha yaqin qarindoshlar oʻrtasida tuzilgan nikohlardan nogiron farzandlar tugʻilishi xavfini oʻrganish, natijalari asosida yon shajara boʻyicha yaqin qarindoshlar oʻrtasidagi nikohni taqiqlash boʻyichaqonun loyihasi. | Loyihada:<br><br>yaqin qarindoshlar oʻrtasidagi nikohlar oqibatida nogiron tugʻilishning oldini olishga qaratilgan kompleks tadbirlarni belgilash;<br><br>erta nikoh holatlarini barvaqt aniqlash va ota-onalarga belgilangan tartibda ta'sir choralarini koʻrish;<br><br>tibbiy koʻrikdan majburiy tartibda oʻtganlik holatlarini tahlil qilish va aniq choralarni belgilash hamda belgilangan muddatlarni buzganlik holatlarida qonuniy choralarni belgilash;<br><br>yaqin qarindoshlar oʻrtasidagi nikoh tuzishni taqiqlash, nikohlarning salbiy oqibatlarida tomonlarning javobgarlik masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil avgust | Sogʻliqni saqlash vazirligi<br><br>A. Xudayarov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti<br><br>N. Egamberdiyeva |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **28-maqsad: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sugʻurta tizimini takomillashtirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev)* | | | | |
| 13. | “Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi. | Loyihada ishga qabul qilishda ish beruvchilar tomonidan talab etiladigan hujjatlar sonini qisqartirish (shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi, mehnat daftarchasi va nusxasi hamda boshqalar) masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil may | Oʻzbekiston Savdo-sanoat palatasi<br>D. Vaxobov,<br>Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov,<br>Soliq qoʻmitasi<br>Sh. Kudbiyev |
| 14. | Aholini ish bilan ta'minlashning progressiv shakllarini rivojlantirish orqali bandlikni yanada kengaytirish va tadbirkorlik subyektlari uchun imkoniyatlar yaratish boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyixasi. | Loyihada:<br>autstaffer (ish beruvchi) xodimini boshqa ish beruvchiga shartnoma asosida yuborish tartibini ishlab chiqish;<br>autstaffing xizmatlarini koʻrsatishda taraflarning majburiyatlarini belgilash;<br>autstaffing xizmatlari koʻrsatish toʻgʻrisidagi shartnomalar boʻyicha bajarilishiga yoʻl qoʻyilmaydigan ishlar turlarining roʻyxatini shakllantirish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>B. Musayev,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov,<br>Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M. Olloyorov)* | | | | |
| 15. | Aholining ijtimoiy sugʻurta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish maqsadida ijtimoiy sugʻurta tizimini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. | Loyihada:<br>ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmasi hisobidan toʻlanadigan homiladorlik va tugʻish nafaqasini tayinlash tartibi;.<br>ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmasidan toʻlanadigan nafaqalar turlari;<br>aholini ijtimoiy sugʻurta tizimiga jalb qilish boʻyicha ragʻbatlantiruvchi mexanizmlar nazarda tutiladi. | 2024-yil dekabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>O. Fozilkarimov,<br>Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>B. Musayev,<br>Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>A. Xudayarov |
| **35-maqsad: Respublikada sport bilan professional va doimiy shugʻullanuvchi yoshlar ulushini oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Sport vazirligi (A. Ikramov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 16. | Oʻq otish sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>oʻq otish boʻyicha yuqori mahoratli sportchilar qamrovini kengaytirish, trenerlarni tayyorlash tizimini yaxshilash;<br><br>oʻq otish boʻyicha sportchilarni vitamin, asbob-uskunalar, ekipirovka va boshqa zarur vositalar bilan taʼminlash;<br><br>oʻq otish boʻyicha xalqaro va xorijiy oʻquv-yigʻin mashgʻulotlarida ishtirok etish;<br><br>oʻq otish boʻyicha respublika musobaqalari, chempionatlar va turnirlar tashkil qilish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun | - |
| 17. | Suv sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>suv sport turlari boʻyicha yuqori mahoratli sportchilar qamrovini kengaytirish, trenerlarni tayyorlash tizimini yaxshilash;<br><br>suv sport turlari boʻyicha sportchilarni vitamin, asbob-uskunalar, ekipirovka va boshqa zarur vositalar bilan taʼminlash;<br><br>suv sport turlari boʻyicha xalqaro va xorijiy oʻquv-yigʻin mashgʻulotlarida ishtirok etish;<br><br>suv sport turlari boʻyicha respublika musobaqalari, chempionatlar va turnirlar tashkil qilish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyul | - |
| 18. | Jamoaviy sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>jamoaviy sport turlari boʻyicha yuqori mahoratli sportchilar qamrovini kengaytirish, trenerlarni tayyorlash tizimini yaxshilash;<br><br>jamoaviy sport turlari boʻyicha sportchilarni vitamin, asbob-uskunalar, ekipirovka va boshqa zarur vositalar bilan taʼminlash;<br><br>jamoaviy sport turlari boʻyicha xalqaro va xorijiy oʻquv-yigʻin mashgʻulotlarida ishtirok etish;<br><br>jamoaviy sport turlari boʻyicha respublika musobaqalari, chempionatlar va turnirlar tashkil qilish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil avgust | - |
| **37-maqsad: Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Sport vazirligi (A. Ikramov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 19. | 2025-yilda Toshkent shahrida boʻlib oʻtadigan Yoshlar oʻrtasida IV yozgi Osiyo va V Paraosiyo oʻyinlariga kompleks tayyorgarlik koʻrish hamda Olimpiya shaharchasi obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>2025-yilda Toshkent shahrida boʻlib oʻtadigan Yoshlar oʻrtasida IV yozgi Osiyo va V Paraosiyo oʻyinlariga kompleks tayyorgarlik koʻrish boʻyicha tashkiliy qoʻmita tuzish;<br><br>2025-yilda Toshkent shahrida boʻlib oʻtadigan Yoshlar oʻrtasida IV yozgi Osiyo va V Paraosiyo oʻyinlariga kompleks tayyorgarlik koʻrish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi;<br><br>Olimpiya shaharchasiga Oʻzbekiston davlat sport akademiyasi, Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti, Paralimpiya sport turlari boʻyicha mutaxassislarni tayyorlash instituti hamda sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarini joylashtirish;.<br><br>Olimpiya shaharchasidagi obyektlarni avaylab saqlash, kelgusida ulardan samarali foydalanish, qoʻriqlash tizimini “aqlli shahar” konsepsiyasiga bogʻlash;<br><br>hududda tashrif buyuruvchilarga turli xizmatlar koʻrsatish va sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi takliflar masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil avgust | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov,<br><br>Toshkent shahar hokimligi<br><br>Sh. Umurzoqov |
| **38-maqsad: Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Fanlar akademiyasi (B. Abduhalimov)* | | | | |
| 20. | Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>atamalar komissiyasi faoliyatini takomillashtirish hamda yangi soʻz va atamalarni rasmiy iste'molga kiritishning uzluksiz ishlaydigan yaxlit tizimini yaratish;<br><br>respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xoʻjalik birlashmalari markaziy apparatlarida Atamalar boʻyicha ishchi guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish hamda ularni Atamalar komissiyasining quyi tuzilmasi etib belgilash;<br><br>Fanlar akademiyasining oʻzbek tili, adabiyoti va folklori institutini Atamalar komissiyasining ishchi organi etib belgilash masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>K. Sharipov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Toshqulov,<br><br>Ma'naviyat va ma'rifat markazi<br><br>O. Xasanov,<br><br>Yozuvchilar uyushmasi<br><br>S. Saidov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | |
| 21. | Umummilliy birdamlik bogʻlarini bosqichma-bosqich tashkil etish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada yangi Oʻzbekistonda hamjihatlik, ahillik va osoyishtalik kabi umummilliy qadriyatlarimizning ramzi va uni shakllantiruvchi makon sifatida respublika mahallalari hududida Umummilliy birdamlik bogʻlarini bosqichma-bosqich tashkil etish kompleks dasturi nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari,<br><br>Ma'naviyat va ma'rifat markazi<br><br>O. Xasanov |
| **39-maqsad: Oʻzbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlik va aholiga axborot-kutubxona xizmati koʻrsatishni rivojlantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Yozuvchilar uyushmasi (S. Saidov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 22. | Atoqli qoraqalpoq shoiri Ajiniyozning 200 yillik yubileyini keng nishonlash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada atoqli qoraqalpoq shoiri Ajiniyozning 200 yillik yubileyini keng nishonlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Ma'naviyat va ma'rifat markazi<br><br>O. Xasanov,<br><br>Madaniyat vazirligi<br><br>O. Nazarbekov |
| **40-maqsad: Zamonaviy teatr va sirk san'atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | |
| 23. | Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning faoliyatini tartibga solish hamda qo‘shimcha rag‘batlantirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalarining ijodiy (artist) xodimlari va mutaxassislariga malaka toifalari berish tartibi to‘g‘risida nizom;<br><br>davlat teatrlari ijodiy xodimlari tomonidan spektakl sahnalashtirish va artistlarning ijro etish me'yorlari;<br><br>davlat teatrlar va konsert-tomosha muassasalarining ijodiy (artist) xodimlari va mutaxassislarining malaka talablari;<br><br>tele-spektakllarni sahnalashtirish va namoyish etishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar nazarda tutiladi. | 2024-yil iyul | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>B. Musayev,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi<br><br>A. Djurabayev |
| **41-maqsad: O‘zbek milliy san'atini jahon sahnalarida keng targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | |
| 24. | 2025-yilda maqom, baxshichilik, raqs va teatr yo‘nalishlarida xalqaro festival va anjumanlar o‘tkazishni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi farmoyishi loyihasi. | Loyihada:<br><br>2025-yilda o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy, konsert-tomosha va turizm tadbirlarining rejalarini tasdiqlash.<br><br>maqom, baxshichilik, raqs va teatr yo‘nalishlarida kamida xalqaro festival va anjumanlar o‘tkazish;<br><br>tanlovlar, festivallar va anjumanlarning targ‘ibot roliklarini ishlab chiqish va nufuzli xalqaro platformalarda keng targ‘ib etish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil dekabr | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>B. Saidov,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi,<br><br>viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **42-maqsad: Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Madaniy meros agentligi (B. Abdikarimov)* | | | | |
| 25. | Samarqand shahrida sohibqiron Amir Temur bog‘larini qayta tiklash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada Amir Temur bog‘lari to‘g‘risidagi manbalarni chuqur o‘rganib, konsepsiya yaratish va dizaynini ishlab chiqish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil aprel | Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg‘armasi,<br><br>Samarqand viloyati hokimligi<br><br>E. Turdimov |
| **43-maqsad: Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san'at yo‘nalishlarini rivojlantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 26. | Iqtidorli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan yangilash va yangi bosqichga olib chiqish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>iqtidorli yoshlarning iste'dodini roʻyobga chiqarish, ularning imkoniyatlarini oshirish, yoshlarning bilim va koʻnikmalarini oshirish, iqtidor egalarini moddiy ragʻbatlantirish, xalqaro va respublika tanlov gʻoliblarini keng ommaga namoyon etishni kuchaytirish maqsadida 2024-2026-yillarga moʻljallangan chora-tadbirlar dasturi;<br><br>xalqaro va respublika tanlov va festivallar gʻoliblari, madaniyat sohasidagi faol yoshlar va yosh oʻqituvchilarning jamiyatdagi mavqeyini oshirish va mustahkamlash;<br><br>"Madaniyat volontyorlari" ijtimoiy harakat faoliyatini yoʻlga qoʻyish va qoʻllab-quvvatlash;<br><br>respublika va xalqaro miqyosda har yili kreativ ijodiy loyihalar, festivallar, konsert dasturlari, shu jumladan, ijodkor yoshlarning xalqaro forumi, Osiyo davlatlari yosh ijodkorlari ishtirokida "Osiyo ohanglari" doʻstlik konserti, "Shodligimsan Vatanim!" nomli xalqaro bolalar va yoshlar xor jamoalarining festivali kabi tadbirlarni oʻtkazish;<br><br>yoshlar oʻrtasida tozalik madaniyatini shakllantirish va targʻib qilish maqsadida tozalik oyligini oʻtkazish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari |
| 27. | Madaniyat markazlari faoliyatini zamon talablari asosida tubdan takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>2025 — 2029-yillarda ta'mirtalab va avariya holatidagi madaniyat markazlari binolarini qurish, ta'mirlash va jihozlash boʻyicha manzilli reja hamda ular faoliyati samaradorligini oshirish boʻyicha takliflar;<br><br>yoshlarni madaniyat va san'atga keng jalb etish va ularning madaniy hayotini boyitib borish boʻyicha "Mahalla — maktab — markaz" mexanizmini joriy etish;<br><br>madaniyat markazlarida yoshlarni kasbga yoʻnaltirish va oʻzini-oʻzi band qilishga qaratilgan milliy hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash va turizm salohiyati yuqori boʻlgan hududlardagi obyektlarda sifatli xizmat koʻrsatishni tashkil etish boʻyicha maxsus mashgʻulot kurslarini joriy etish.<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda bittadan Innovatsion madaniyat markazlari va raqamlashtirilgan ijodiy loyihalar faoliyatini yoʻlga qoʻyish;<br><br>madaniyat markazlarida faoliyat koʻrsatayotgan toʻgarak rahbarlari uchun har besh yilda bir marotaba malaka oshirish hamda belgilangan tartibda malaka toifalarini berish tizimini joriy qilish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |

Izoh: mazkur roʻyxatda keltirilmagan maqsadlar boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari 2025-yil va undan keyingi yillarga moʻljallangan Davlat dasturlarida nazarda tutiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi
PF-37-son Farmoniga
7-ILOVA

## "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasining Barqaror iqtisodiy oʻsish orqali aholi farovonligini ta'minlash yoʻnalishi boʻyicha 2024-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

RO'YXATI

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | Normativ-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan tadbirlar | Ijro muddati | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **II. BARQAROR IQTISODIY OʻSISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASH** | | | | |
| **46-maqsad: Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Soliq qoʻmitasi (Sh. Kudbiyev)* | | | | |
| 1. | Soliq maqsadlarida bozor narxlarini aniqlash va qoʻllash tartibini belgilash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada transfert narxni belgilashda soliq nazoratida foydalaniladigan usullarni bozor narxlarini aniqlashda qoʻllash nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norkulov,<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>L. Kudratov |
| **49-maqsad. Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qogʻozlar bozorini jadal rivojlantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Qudratov)* | | | | |
| 2. | Kichik hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini boshqarishni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori loyihasi. | Loyihada:<br>kichik sanoat zonalari toʻgʻrisidagi qonun loyihasi ishlab chiqilayotganligi munosabati bilan qonunosti hujjatlariga oʻzgartirishlar kiritish;<br>sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarish mezon va tamoyillarini aniq belgilash;<br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-iyundagi PF-153-son Farmoni imzolangan davrga qadar tashkil etilgan sanoat zonalaridagi mavjud yerlar va bino-inshootlarni xususiylashtirish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil oktabr | - |
| **50-maqsad: Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norkulov)* | | | | |
| 3. | Lizing xizmatlari koʻrsatuvchi tashkilotlarning faoliyatini yoʻlga qoʻyish tartibini belgilash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br>lizing xizmatlarini koʻrsatuvchi tashkilotlar faoliyatini nazorat qilishni takomillashtirish;<br>lizing xizmatlarini koʻrsatuvchi tashkilotlarga oid yagona reyestr yuritishni joriy etish;<br>lizing xizmatlarini koʻrsatishni vakolatli organlarni xabardor qilish tartibida amalga oshirish faoliyat turiga oʻtkazish nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun | Markaziy bank<br>M. Nurmuratov,<br>Bosh prokuratura<br>N. Yoʻldoshev |
| **51-maqsad: "Yashil iqtisodiyot"ga oʻtish, uning asosi boʻlgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish koʻrsatkichlarini keskin oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norkulov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4. | Xalqaro issiqxona gazi savdosiga oid loyihalarni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisidagi vaqtinchalik nizom boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | 1. Xalqaro tajriba va amaliyotidan kelib chiqib qaror loyihasini ishlab chiqish.<br>2. Oʻrnatilgan tartibda vazirlik va idoralar bilan kelishish.<br>3. Ishlab chiqilgan qaror loyihasini oʻrnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish va tasdiqlash. | 2024-yil mart | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br>A. Abduxakimov,<br>Energetika vazirligi<br>J. Mirzamaxmudov |
| 5. | 2050-yilgacha mamlakatni kam uglerodli rivojlantirish boʻyicha uzoq muddatli strategiya yuzasidan normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyiha bilan mamlakatni 2050-yilgacha kam uglerodli rivojlantirish boʻyicha uzoq muddatli strategiyani tasdiqlash nazarda tutiladi. | 2024-yil dekabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br>A. Abduxakimov,<br>Energetika vazirligi<br>J. Mirzamaxmudov,<br>Qishloq xoʻjaligi vazirligi<br>I. Abduraxmonov |
| **52-maqsad. Iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zaruriy energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Energetika vazirligi (J. Mirzamahmudov)* | | | | |
| 6. | Elektr taqsimlash tarmoqlaridan foydalanish qoidalari boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada xalqaro moliya institutlarining texnik koʻmagida xalqaro ekspertlarni jalb qilgan xolda Elektr taqsimlash tarmoqlaridan foydalanish qoidalari nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi,<br>Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov,<br>“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ<br>U. Mustafoyev |
| 7. | Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini qabul qilish. | Loyihada Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini tasdiqlash nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov,<br>Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi, “Milliy elektr tarmoqlari” AJ<br>D. Isaqulov |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8. | 2024-yilda davlat nazoratining yangi mexanizmlarini joriy etish, sohada raqamlashtirishni yanada keng qoʻllash, shuningdek, yoqilgʻi-energetika sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan oʻtkazgan holda sohani “korrupsiyasiz soha”ga aylantirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi. | Loyihada:<br><br>yoqilgʻi-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish, talon-toroj qilish holatlarining oldini olish, bu borada davlat nazoratini kuchaytirish orqali qonun talablarini buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlash;<br><br>yoqilgʻi-energiya resurslarini ishlab chiqarish, qayta ishlash (qazib olish), uzatish (tashish), saqlash, taqsimlash va iste'mol qilish, ularni miqdor jihatidan saqlash jarayoniga “raqamli energonazorat” tizimini toʻliq joriy etish;<br><br>yoqilgʻi-energetika sohasidagi qonunchilik hujjatlarining, dasturlar hamda loyihalarda belgilangan chora-tadbirlarning oʻz vaqtida va toʻliq ijro etilishini ta'minlash, sohada huquqni qoʻllashning yagona amaliyotini shakllantirish;<br><br>yoqilgʻi-energiya resurslaridan foydalanishning belgilangan talablariga qat'iy rioya qilinishi ustidan kunlik nazorat oʻrnatish nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi,<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi<br><br>A. Burxanov,<br><br>“Oʻzenergoinspeksiya”<br><br>I. Nimatullayev,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| **53-maqsad: Oʻzbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norkulov)* | | | | |
| 9. | Temir yoʻl transporti sohasida davlat tomonidan tartibga solinadigan va bozor tamoyillari asosida koʻrsatiladigan xizmatlar roʻyxatini tasdiqlash boʻyicha Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi. | Loyihada temir yoʻl sohasida koʻrsatiladigan barcha xizmatlarni qamrab olgan holda davlat tomonidan tartibga solinadigan va bozor tamoyillariga oʻtadigan xizmatlar turlarini tasdiqlash nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi<br><br>A. Kayumov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Transport vazirligi (I. Maxkamov)* | | | | |
| 10. | Tashuvchilarning shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo norentabel avtobus yoʻnalishlarida koʻrilgan zararlarini qoplab berishni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshirishni yoʻlga qoʻyish toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi. | Loyihada tashuvchilarning shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo norentabel avtobus yoʻnalishlarida koʻrilgan zararlarini qoplab berishni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshirishni yoʻlga qoʻyish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norkulov<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| 11. | Respublika aholisiga koʻrsatilayotgan avtotransportda yoʻlovchi tashish xizmatlari sifatini baholash mezonlarini yaratish hamda bu orqali hududlardagi jamoat transporti bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash imkonini beruvchi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>respublika aholisiga koʻrsatilayotgan avtotransportda yoʻlovchi tashish xizmatlari sifatini baholash mezonlarini yaratish hamda bu orqali hududlardagi jamoat transporti bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash masalalari;<br><br>jamoat transporti va uning infratuzilma obyektlariga qoʻyiladigan minimal ijtimoiy standartlarni ishlab chiqish nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br><br>S. Abdullayev,<br><br>Ichki ishlar vazirligi<br><br>P. Bobojonov |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 12. | Oʻzbekiston Respublikasining aeroportlari va havo hududida havo kemalariga xizmat koʻrsatish uchun yigʻim, tariflarni shakllantirish va undirish qoidalariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish boʻyicha Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi. | Loyihada Oʻzbekiston Respublikasining aeroportlari va havo hududida havo kemalariga xizmat koʻrsatish uchun yigʻim, tariflarni shakllantirish va undirish qoidalariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish nazarda tutiladi. | 2024-yil dekabr | Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilarni huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi<br><br>A. Kayumov<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norkulov |
| 13. | Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasining “Avtomobil yoʻllari toʻgʻrisida”gi Qonuni loyihasi. | Loyihada:<br><br>avtomobil yoʻllari sohasiga oid qonunchilik hujjatlarini umumlashtirib, sohaga oid tushunchalar va atamalarni xalqaro amaliyot va meʼyorlarga muvofiqlashtirish, avtomobil yoʻllarini boshqarish tizimini takomillashtirish;<br><br>pullik avtomobil yoʻllari bilan bogʻliq masalalar, jumladan yoʻl haqini undirish, saqlash va ekspluatatsiya qilishni moliyalashtirish, qurilish va rekonstruksiya qilish, shuningdek, pullik yoʻllarda va ularning uchastkalarida nazoratni amalga oshirish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi<br><br>J. Tursunov |
| 14. | Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, yoʻl-qurilish ishlarini amalga oshirish, shuningdek, ularni qabul qilib olishda hajm va sifat koʻrsatkichlarini nazarda tutadigan (“hajm usuli”) tartibni tasdiqlash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>pudrat ishlarini hajm koʻrsatkichlariga oʻtkazish va texnik spetsifikatsiyalar ishlab chiqish orqali loyiha-smeta hujjatlari;<br><br>yoʻl-qurilish ishlarini amalga oshirish, ularni qabul qilib olishda hajm va sifat koʻrsatkichlari nazarda tutiladi | 2024-yil mart | Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi<br><br>J. Tursunov,<br><br>Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov |
| **54-maqsad: Qishloq xoʻjaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy masʼul — Qishloq xoʻjaligi vazirligi (I. Abduraxmonov)* | | | | |
| 15. | Qishloq xoʻjaligi ekinlarini ilmiy asoslangan holda ekishni joriy qilish boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>respublikadagi yer maydonlari mavjud barcha agroklasterlarda, shuningdek, paxta-gʻallachilik yoʻnalishidan tashqari boshqa yoʻnalishlardagi fermer xoʻjaliklari, qishloq xoʻjaligi korxonalari va tashkilotlarining mavjud ekin yerlarida;<br><br>barcha paxta-gʻallachilik yoʻnalishidagi fermer xoʻjaliklari, qishloq xoʻjaligi korxonalari va tashkilotlarining mavjud ekin yerlarida almashlab ekishni takomillashtirish nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | - |
| **55-maqsad: Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qoʻshilgan qiymati yuqori boʻlgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy masʼul — Qishloq xoʻjaligi vazirligi (I. Abduraxmonov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 16. | “Qishloq xoʻjaligi sohasida tavakkalchiliklarni sugʻurtalash toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonun loyihasini ishlab chiqish. | Loyihada:<br><br>qishloq xoʻjaligi mahsuloti yetishtiruvchilarini turli xil tabiiy ofatlar va boshqa xatarlardan koʻriladigan zararlardan sugʻurtalash orqali himoyalash;<br><br>qishloq xoʻjaligi sugʻurtasini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning huquqiy asoslarini belgilash;<br><br>qishloq xoʻjaligi sohasida tavakkalchiliklarni sugʻurtalashda sugʻurta munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilishning yagona tizimini yaratish;<br><br>qishloq xoʻjaligi sohasida tavakkalchiliklarni sugʻurtalash jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarining huquq va majburiyatlarini belgilash masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyul | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norkulov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| 17. | Xalqaro ekspertlar va yetakchi xorijiy konsalting kompaniyalarni jalb qilgan holda Oʻzbekiston — 2030 strategiyasidan kelib chiqib, Qishloq xoʻjaligini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini yanada takomillashtirish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-son Farmoniga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>agrar va oziq-ovqat sohalarini kompleks rivojlantirishda Qishloq xoʻjaligi vazirligining rolini oshirish va yanada rivojlantirish;<br><br>vazirlik tizimini transformatsiya qilish orqali hududiy boʻlinmalar faoliyatini sohada xizmatlar koʻrsatishga toʻliq oʻtkazish, koʻrsatiladigan xizmatlar koʻlamini kengaytirish va sifatini oshirish, shuningdek, autsorsing tizimini rivojlantirish;<br><br>xalqaro va milliy barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqib, barcha maqsadli koʻrsatkich va indikatorlarni yangilash;<br><br>statistik ma'lumotlarni yigʻish, tahlil qilish, sifatini monitoring qilish va tasdiqlash usullarini tubdan takomillashtirish;<br><br>Jahon savdo tashkilotiga qoʻshilish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda strategik mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash;<br><br>vazirlik va uning hududiy boʻlinmalari moddiy-texnika bazasini yaxshilash kabi masalalarga alohida ustuvorlik qaratish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyul | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norkulov,<br><br>Strategik islohotlar agentligi<br><br>B. Raxmatov |
| **56-maqsad. Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil oʻtkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A. Ortiqov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 18. | Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish maqsadida “Sot yoki tushuntir” tamoyiliga asosan, davlat ulushi mavjud korxonalar sonini kamaytirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br>1) davlat ulushi mavjud 2 mingdan ortiq korxona, ularning 1 mingdan ortiq tizim korxonasi hamda 26 ming tadan ortiq davlat muassasasi faoliyatini tahlil qilib, natijalariga koʻra, davlat ishtirokidagi korxonalar va muassasalarni quyidagi guruhlarga ajratish:<br>qayta tashkil etiladigan *(xoʻjalik jamiyatiga, muassasaga, filialga aylantiriladigan yoki qoʻshib yuboriladigan)*;<br>davlat mulkiga egalik qilish mezonlariga mos kelmaydigan va raqobat rivojlangan sohalarda faoliyat yuritayotgan hamda xususiylashtiriladigan;<br>belgilangan tartibda tugatiladigan istiqbolsiz, faoliyat koʻrsatmayotgan, zarar koʻrib ishlayotgan va past rentabelli davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalar;<br>2) davlat ishtirokidagi korxonalar, ularning tarkibidagi korxonalar va davlat muassasalarini qayta tashkil etish, xususiylashtirish va tugatish orqali davlat ishtirokidagi korxonalarni qisqartirish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norkulov,<br>Kadastr agentligi<br>F. Pulatov,<br>Statistika agentligi<br>B. Begalov,<br>Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov |
| **57-maqsad: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-NUB”ga aylantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Raqamlashtirish vazirligi (Sh. Shermatov)* | | | | |
| 19. | Axborot texnologiyalari sohasida IT xizmatlar eksporti bilan shugʻullanuvchi tashkilotlarni qoʻllab quvvatlash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br>IT-Park rezidenti boʻlgan raqamli texnologiyalar sohasidagi eksport qiluvchi kompaniyalarni yanada qoʻllab-quvvatlash;<br>IT xizmatlar eksporti bilan shugʻullanuvchi kompaniyalarga taqdim etilayotgan imtiyoz va preferensiyalarni yanada takomillashtirish va uzaytirish;<br>dasturiy mahsulotlar va IT xizmatlar eksporti hamda ularni tashqi bozorda maqsadli targʻib qilish borasidagi faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va xarajatlarning bir qismini qoplab berish;<br>eksport qiluvchilarni tashqi bozorlarga chiqish va biznes doiralar bilan muloqotini tizimli yoʻlga qoʻyish masalalari nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi<br>L. Qudratov,<br>Tashqi ishlar vazirligi<br>B. Saidov |
| **58-maqsad: Oʻzbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | |
| 20. | “Turizm klasterlari”ni tashkil etish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br>“Turizm klasterlari”ning huquqiy maqomi;<br>“Turizm klasterlari”ni tashkil etish tartibi va uning faoliyatini yoʻlga qoʻyish mexanizmlari nazarda tutiladi. | 2024-yil iyul | Turizm qoʻmitasi<br>U. Shadiyev,<br>Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov |
| **60-maqsad. Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi (B. Zakirov)* | | | | |
| 21. | Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini va hududlarning master rejalarini ishlab chiqishda jamoatchilik fikrini oʻrganish va ovoz berish mexanizmini joriy etish boʻyicha Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>aholi va tadbirkorlar murojaatlarini oʻrganish orqali kiritilgan eng yaxshi takliflar asosida aholi punktlarining master rejalarini ishlab chiqish boʻyicha dasturlarni shakllantirish;<br><br>master rejalarini ishlab chiqishda jamoatchilik fikrini oʻrganish va ovoz berish mexanizmini joriy etish tartibini tasdiqlash;<br><br>ishlab chiqilgan hududlarning master-rejalarni hududlarda amalga oshirish mexanizmini yaratish nazarda tutiladi. | 2024-yil iyul | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norkulov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Kudratov)* | | | | |
| 22. | Xorijiy tajribani oʻrgangan holda markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimlarini yaxshilash va rivojlantirish boʻyicha chuqur tahlil oʻtkazib, issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>mavjud markazlashgan issiqlik ta'minoti obyektlarini rekonstruksiya qilish va uylarning ichki isitish tizimlarini almashtirish;<br><br>talabni oʻrgangan holda yangi qozonxonalar qurish va issiqlik ta'minotini tashkil qilish;<br><br>issiqlik ta'minoti tizimini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish;<br><br>mavjud issiqlik ta'minoti korxonalari faoliyatini sogʻlomlashtirish;<br><br>issiqlik ta'minoti va issiq suv uchun toʻlovlarni undirish tizimini takomillashtirish nazarda tutiladi. | 2024-yil aprel | Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamaxmudov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norkulov)* | | | | |
| 23. | 2024-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi. | Loyihada:<br><br>2024-yilda aholiga ipoteka krediti ajratishning maqsadli moʻljallarini tasdiqlash;<br><br>2024-yilda ipoteka krediti boʻyicha subsidiya ajratishning maqsadli moʻljallarini tasdiqlash;<br><br>2024-yil uchun bir qarz oluvchiga ajratiladigan ipoteka kreditining eng koʻp miqdori va dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun qat'iy belgilangan subsidiya miqdorini belgilash nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

Izoh: mazkur roʻyxatda keltirilmagan maqsadlar boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari 2025-yil va undan keyingi yillarga moʻljallangan Davlat dasturlarida nazarda tutiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi
PF-37-son Farmoniga
8-ILOVA

## “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yoʻnalishi boʻyicha 2024-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

ROʻYXATI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | Normativ-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan tadbirlar | Ijro muddati | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **III. SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH** | | | | |
| **62-maqsad. Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi (B. Islamov)* | | | | |
| 1. | Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qonun loyihasi. | Loyihada yer osti suvlarini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha javobgarlikni kuchaytirish maqsadida qonunchilik normalarini takomillashtirish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart<br>2024-yil mart — iyun | Suv xo‘jaligi vazirligi<br>Sh. Xamrayev,<br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi<br>A. Abduxakimov |
| 2. | Yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidaVazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada:<br>yer osti suvlariga quduq burg‘ilash faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar va suvdan foydalanuvchilar uchun ularning javobgarligini oshirish bo‘yicha alohida tartibini belgilash;<br>yer osti suvlariga noqonuniy *(ruxsatnomasiz)* quduq burg‘ilash holatlarini kamaytirish va yer osti suvlariga quduq burg‘ilash hamda ulardan foydalanish bo‘yicha monitoring va nazorat tadbirlarini kuchaytirish;<br>yer osti suv resurslarini kamayib ketishini oldini olish hamda olinayotgan suv hisobini yuritish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida respublikada barcha yer osti suv olish inshootlarini *(burg‘i quduqlari, buloqlar)* suv hisoblash vositalari bilan jihozlanishi bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Suv xo‘jaligi vazirligi<br>Sh. Xamrayev,<br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi<br>A. Abduxakimov,<br>“O‘zsuvta'minot” AJ<br>D. Azimov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — “O‘zsuvta'minot” AJ (D. Azimov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3. | Oʻzbekiston Respublikasida ichimlik suv ta'minotini tubdan yaxshilashning 2030-yilgacha boʻlgan strategiyasini tasdiqlash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>suv ta'minoti sohasining ahvoli va uni rivojlantirish yoʻnalishlarini kompleks tahlil qilish;<br><br>suv ta'minotini hisobga olish hamda monitoring qilishni ta'minlaydigan zamonaviy axborot va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish;<br><br>2024-yil yakuniga qadar respublikadagi barcha iste'molchilarni ichimlik suvni hisobga oluvchi zamonaviy asboblar bilan toʻliq ta'minlash;<br><br>turar-joy komplekslarini rejalashtirish va qurishda ichimlik suv ta'minoti obyektlarining quvvatini inobatga olgan holda loyihalashtirish, zaruratga koʻra rekonstruksiya qilish;<br><br>ichimlik suv ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini bosqichma-bosqich oʻzi toʻliq qoplashini ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy qilish, bunda albatta jamoatchilikning fikrini inobatga olish;<br><br>ichimlik suvini hisoblashning zamonaviy asboblarini joriy etish;<br><br>aholini ichimlik suv bilan ta'minlashning yillar va hududlar kesimida maqsadli koʻrsatkichlarini belgilash;<br><br>aholi punktlarini suv bilan ta'minlash uchun suv zaxiralarini aniqlash (gidrogeologik ishlarni amalga oshirish);<br><br>sohaga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;<br><br>suv ta'minoti tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash;<br><br>ichimlik suv resurslarini muhofaza qilish, ekologiyaga salbiy ta'sir koʻrsatayotgan oqova suvlar bilan bogʻliq muammolarni hal etish;<br><br>suv ta'minotidagi barcha zarur axborotlarni oʻz ichiga olgan, ularni muntazam yangilab boradigan hamda monitoring qilishni ta'minlaydigan yagona geoaxborot tizimini joriy qilish;<br><br>olib borilayotgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>B. Zakirov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov<br><br>Suv xoʻjaligi vazirligi<br><br>Sh. Xamrayev,<br><br>Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi<br><br>B. Islamov |
| **64-maqsad: Irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Suv xoʻjaligi vazirligi (Sh. Xamrayev)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4. | 2024 — 2026-yillarda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalaridan samarali foydalanish boʻyicha "Suvchilar maktabi"ning 2-bosqichini tashkil qilish;<br><br>"Agrobank" ATB bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar "suvkredit.uz" elektron platformasini ishlab chiqish va onlayn kredit ajratish tizimini yoʻlga qoʻyish nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | Qishloq xoʻjaligi vazirligi<br><br>I. Abduraxmonov,<br><br>Markaziy bank<br><br>M. Nurmuratov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari |
| **65-maqsad. "Yashil energiya" texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini kamaytirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul* — Iqtisodiyot va moliya vazirligi *(I. Norqulov)* | | | | |
| 5. | 2050-yilgacha mamlakatni kam uglerodli rivojlantirish boʻyicha uzoq muddatli strategiyani tasdiqlash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>kam uglerodli rivojlanish boʻyicha islohotlarni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan investitsiyalar rejasini ishlab chiqish.<br><br>mamlakatni 2050-yilgacha kam uglerodli rivojlantirish boʻyicha uzoq muddatli strategiya nazarda tutiladi. | 2024-yil avgust<br><br>2024-yil sentabr | Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamaxmudov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (B. Xodjayev)* | | | | |
| 6. | Neft, gaz va elektr energetika sohalarida tarif islohotlarini amalga oshirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gazning narxlari va tariflarini oʻz tannarxidan kam boʻlmagan (cost recovery level) miqdorda hisob-kitoblarni amalga oshirish;<br><br>hisob-kitoblar natijasiga koʻra elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gazning narxlari va tariflarini tasdiqlash;<br><br>ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qoʻllab-quvvatlash maqsadida elektr energiyasi va tabiiy gaz narxlarini belgilashda "ijtimoiy me'yor" tizimini joriy etish nazarda tutiladi. | 2024-yil may | Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamaxmudov,<br><br>Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br><br>J. Abruyev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Energetika vazirligi (J. Mirzamaxmudov)* | | | | |
| 7. | Elektr energiyasi sohasi boʻyicha yagona "Master reja"sini tasdiqlash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>xalqaro tajribalar asosida elektr energiya sohasi boʻyicha yagona master rejani ishlab chiqish;<br><br>elektr energiya sohasi boʻyicha yagona master rejani tasdiqlash nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>B. Xodjayev |
| **66-maqsad: Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir oʻtkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi (B. Islamov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8. | "Yer osti boyliklari toʻgʻrisi"da Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahrirdagi loyihasi. | Loyihada:<br><br>yer qa'ridan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi davlat organlari vakolatlarini aniqlashtirish.<br><br>yer qa'ridan barqaror foydalanish tamoyilini kiritib, oqilona ishlatish talablari yer qa'ridan foydalanuvchining majburiyati sifatida belgilash.<br><br>investitsiya jozibadorligini keskin oshirish maqsadida davlat organi nazorati ostida yer qa'ridan foydalanish ruxsatnomasini tasarruf etish.<br><br>yer qa'ri kadastr tizimini yanada takomillashtirish, jumladan, davlat yer qa'ri fondi kadastri hamda uglevodorod kadastrini joriy etish.<br><br>ekologiya va atrof-muhitni kelgusida kafolatli asrash maqsadida yer qa'ridan foydalanishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning qoidalarini belgilash nazarda tutiladi. | 2024-yil aprel | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br><br>A. Abduxakimov,<br><br>Energetika vazirligi<br><br>J. Mirzamahmudov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| 9. | "Yer osti boyliklari toʻgʻrisi"dagi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibini yanada takomillashtirish boʻyicha Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>yer qa'ridan foydalanishga oid normalarni kuchaytirish;<br><br>foydali qazilmalarni geologik jihatdan oʻrganish va qazib olish uchun ruxsatnomalar rasmiylashtirish tartibini kuchaytirish;<br><br>ruxsatnomalarga ega yer qa'ridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlarini kuchaytirish, davriy va yakuniy hisobotlarni taqdim etish, qazilmalarni geologik jihatdan oʻrganish hamda qazib olishning yillik minimal xarajatlarini belgilash nazarda tutiladi. | 2024-yil avgust | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi<br><br>A. Abduxakimov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | |
| 10. | Respublikada oqova suv tozalash tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada oqova suv tarmoqlariga me'yordan ortiqcha ifloslantiruvchi moddalarni (qoramol terisi, qogʻoz va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, matolarni boʻyash, yogʻ-moy, neft va gaz mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda parrandachilikka ixtisoslashgan korxonalar va qoramol qushxonalari chiqindilari) oqizganlik uchun amaldagi kompensatsiya miqdorini keskin oshirish nazarda tutiladi. | 2024-yil oktabr | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>Sh. Xidoyatov,<br><br>"Oʻzsuvta'minot" AJ<br><br>D. Azimov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — "Oʻzsuvta'minot" AJ (D. Azimov)* | | | | |
| 11. | Ichimlik suvdan oqilona foydalanishda jamoatchilik nazoratini oʻrnatish boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada ichimlik suv ta'minoti tashkilotlari xodimlari tomonidan ichimlik va oqova suv tizimlaridan foydalanishda aniqlangan qoidabuzarliklar haqida berilgan ma'lumotlarga asosan rasmiylashtirib, undirilgan jarimalardan xabar bergan xodimlarni belgilangan tartibda ragʻbatlantirishga yoʻnaltirish hamda aholi tomonidan maxsus axborot tizimiga noqonuniy ulanishlar haqida fotosuratlar va videoyozuvlarni yuborgan shaxslarni belgilangan tartibda pul mukofoti bilan ragʻbatlantirish nazarda tutiladi. | 2024-yil aprel | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi<br><br>Sh. Xidoyatov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ullar — Toshkent va Jizzax viloyatlari hokimliklari (Z. Mirzayev va E. Saliyev)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 12. | Ekologik toza hudud rejimini Toshkent va Jizzax viloyatlarida joriy qilish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Toshkent va Jizzax viloyati hokimliklarining Bo‘stonliq va Zomin tumanlaridagi turistik-rekreatsion zonalarida ekologik toza hudud rejimini tatbiq etish bo‘yicha qaror loyihalarini ishlab chiqish va Bunda:<br><br>ekologik toza hudud rejimini tatbiq etish bo‘yicha mahalliy hokimlik va direksiyalar o‘rtasida qo‘shma chora-tadbirlar rejalari loyihalarini ishlab chiqish;<br><br>qo‘shma chora-tadbirlar rejalari tasdiqlanishi nazarda tutiladi. | 2024-yil dekabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi<br><br>A. Abduxakimov |
| **69-maqsad: Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini yumshatish.** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | |
| 13. | Mahsulot va xizmatlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali ekologik markirovkalash tizimini shakllantirish;<br><br>mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish va realizatsiya qilishda ularning ekologik ta'siri to‘g‘risida iste'molchilarning to‘g‘ri axborot olish huquqlarini ta'minlash nazarda tutiladi. | 2024-yil iyul | - |
| 14. | O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va respublika hududidan olib chiqishda ekologik xavfli mahsulotlar va chiqindilarni majburiy ekologik sertifikatlash tartibini takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>majburiy ekologik sertifikatlanishi lozim bo‘lgan xavfli mahsulotlar va chiqindilar ro‘yxatini O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar doirasidagi majburiyatlaridan va milliy qonunchilikda belgilangan boshqa talablardan kelib chiqib qayta shakllantirish;<br><br>majburiy ekologik sertifikatlashtirish lozim bo‘lgan oldi-sotdi obyekti bo‘lgan, xavfli mahsulotlar va chiqindilar, shuningdek, tashilishi kerak bo‘lgan xavfli chiqindilar ro‘yxatini tasdiqlash;<br><br>respublika hududiga olib kirilishi man etilgan xavfli mahsulotlar va chiqindilar *(xavfsiz qayta ishlanmaydigan)* ro‘yxatini tasdiqlash;<br><br>xavfli mahsulotlar va chiqindilarni ekologik sertifikatlashtirish tartibini, uning aniq mezonlarini belgilash orqali optimizatsiya qilish nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>L. Kudratov,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| **73-maqsad: Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash bo‘yicha keskin choralar ko‘rish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (A. Abduxakimov)* | | | | |
| 15. | Qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga ko‘tarilishini bartaraf etish bo‘yicha qonun loyihasi. | Loyihada 500 va undan ortiq kvadrat metrlik qurilish maydonida, unga kirib-chiqish yo‘llarida chang va qum zarrachalarining havoga ko‘tarilishini bartaraf etish bo‘yicha majburiy talablarni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi<br><br>K. To‘laganov |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 16. | Oʻzbekistonda chang boʻronlariga qarshi kurashish va uning oqibatlarini yumshatish boʻyicha 2024 — 2030-yillarga moʻljallangan milliy dasturni tasdiqlash boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi. | Loyihada:<br><br>Markaziy Osiyoning choʻl hududlarida himoya oʻrmonzorlarini yaratish boʻyicha qoʻshni davlatlar bilan amaliy tadbirlarni belgilash ishlarini tashkillashtirish;<br><br>Markaziy Osiyo davlatlarida ekologiyaga mas'ul tashkilotlarning birgalikda chang boʻronlariga qarshi kurashish yuzasidan doimiy ekspert maslahatlashuvlarini yoʻlga qoʻyish;<br><br>mamlakatimizda choʻlga aylanayotgan hududlarda va degradatsiyaga uchragan yaylovlarda chang va qum koʻtarilishining oldini olish boʻyicha tadbirlar;<br><br>atmosferaga sanoat korxonalari va avtomashinalar tomonidan zararli tutunlarning chiqarilishini kamaytirish boʻyicha amaliy choralar;<br><br>chang boʻronlarini prognoz qilish tizimini takomillashtirish;<br><br>yaylovlardan foydalanish va ularni nazorat qilishning ta'sirchan tizimini joriy qilish;<br><br>oliy ta'lim tizimida yaylovlar ekologiyasi va boshqaruvi boʻyicha bakalavr va magistratura kadrlari tayyorlash tizimini takomillashtirish nazarda tutiladi. | 2024-yil aprel | Qishloq xoʻjaligi vazirligi<br><br>I. Abduraxmonov |

Izoh: mazkur roʻyxatda keltirilmagan maqsadlar boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari 2025-yil va undan keyingi yillarga moʻljallangan Davlat dasturlarida nazarda tutiladi.

*(8-ilova Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2024-y., 06/24/106/0571-son)*

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi
PF-37-son Farmoniga
9-ILOVA

## “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yoʻnalishi boʻyicha 2024-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

RO‘YXATI

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | Normativ-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan tadbirlar | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **IV. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH** | | | | |
| **76-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yoʻlga qoʻyish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Strategik islohotlar agentligi (B. Raxmatov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Ma'muriy islohotlarning ikkinchi bosqichida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tubdan isloh qilish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>mahalliy hokimliklar, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning hududiy boʻlinmalari vakolatlari doirasida hal qilinishi lozim boʻlgan masalalarni aniq belgilash;<br><br>mahalliy davlat hokimiyati organlarining takrorlanadigan vazifa va funksiyalarini qayta koʻrib chiqish va maqbullashtirish;<br><br>viloyat va tuman (shahar) darajasidagi hokimliklar vazifa va funksiyalarining aniq chegarasini belgilash va ularning mas'uliyati doirasini aniqlashtirish;<br><br>ayrim respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining quyi boʻlinmalarini viloyat, tuman (shahar) hokimligi boʻysunuviga oʻtkazish;<br><br>hokimliklarning hududiy ijro organlari shtat birligi va tuzilmalarini belgilashdagi rolini oshirish;<br><br>mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish boʻyicha takliflarni tayyorlash nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun<br><br>2024-yil sentabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |
| **77-maqsad: Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning koʻlamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat oʻrtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | |
| 2. | Ayrim davlat xizmatlarini “proaktiv” yoki “kompozit” shaklda koʻrsatishni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>“E-auksion” elektron savdo platformasida gʻoliblik uchun rasmiylashtirilgan bayonnomani olish va koʻchmas mulkka nisbatan kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish hamda koʻchmas mulkka boʻlgan huquqlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazishni kompozit shaklda koʻrsatish;<br><br>bino yoki inshootni bir yildan kam boʻlmagan muddatga ijaraga berishda ijara shartnomasini davlat roʻyxatidan oʻtkazishni kompozit shaklda koʻrsatish nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | - |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | |
| 3. | Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi. | Loyihada neft-gaz bilan bogʻliq litsenziyalanadigan faoliyat turlarini amalga oshirish tartib-taomillari soddalashtirilishi, shuningdek neft mahsulotlarini sotish faoliyatini boshlash bilan bogʻliq ortiqcha tartib-taomillarni bekor qilish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | - |
| 4. | Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining notariusga shaxsni tasdiqlovchi hujjatning aslini taqdim etish talabini bekor qilish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | Loyihada Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining notariusga shaxsni tasdiqlovchi hujjatning aslini taqdim etish talabini bekor qilgan holda shaxsni tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari orqali Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsini biometrik ma'lumotlar (barmoq izi va Face-ID) orqali verifikatsiya qilish nazarda tutiladi. | 2024-yil aprel | - |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5. | Arxiv sohasini hamda Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Oʻzarxiv” agentligi faoliyatini tubdan takomillashtirishni nazarda tutuvchi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>“Oʻzarxiv” agentligining tizim tashkilotlarini optimallashtirish, arxiv ishi sohasida elektron arxiv axborot tizimini joriy etish, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish;<br><br>“Oʻzarxiv” agentligi xodimlarining ijtimoiy va moddiy himoyasini takomillashtirish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | - |
| 6. | “Davlat xizmatlarini koʻrsatish tizimini transformatsiya qilish hamda sohada byurokratik tartibotlarni tubdan qisqartirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident Farmoni loyihasi. | Loyihada:<br><br>davlat xizmatlarini koʻrsatishda undiriladigan toʻlovlar boʻyicha aholiga yengillik va preferensiyalar berish;<br><br>jismoniy va yuridik shaxslar elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkalari va undagi binolarni sotib olganda koʻchmas mulkka boʻlgan huquqlarni kompozit tarzda davlat roʻyxatidan oʻtkazishni yoʻlga qoʻyish;<br><br>2024-2025-yillarda yana kamida 100 ta xizmatni elektronlashtirish, ularni davlat xizmatlari markazlari hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali koʻrsatishni yoʻlga qoʻyish;<br><br>2024-2025-yillarda xizmat koʻrsatishda fuqarolardan qogʻoz shaklda talab qilinadigan kamida 10 turdagi hujjat va ma'lumotni fuqarodan soʻrashni bekor qilib, uni elektron olish imkoniyatini yaratish;<br><br>kamida 20 turdagi xizmatni koʻrsatish muddatlarini, aholidan olinadigan hujjatlarni qisqartirish;<br><br>avtomototransportga davlat raqamini berishni inson omilisiz avtomatlashtirilgan tizim orqali rasmiylashtirish (xaridorgir harf va raqamlar kombinatsiyasiga ega raqamlar bundan mustasno) imkoniyatini yaratish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | - |
| 7. | “Oʻzbekiston Respublikasida aholining yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibini joriy qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Prezident Farmoni loyihasi. | Loyihada:<br><br>“Aholining yagona elektron reyestri” axborot tizimi joriy etish;<br><br>Axborot tizimi quyidagi imkoniyatlarga ega boʻladi:<br><br>shaxsga doir ma'lumotlar qonunchilik talablariga muvofiq muhofaza qilish;<br><br>shaxsga doir ma'lumotlar real vaqt rejimida yangilab borish;<br><br>turli davlat organlari va tashkilotlarning axborot tizimlaridagi elektron bazalarda shakllangan shaxsga doir ma'lumotlar markazlashgan holda axborot tizimida jamlash;<br><br>shaxsga doir ma'lumotlar shaxs vafot etganidan soʻng 75 yil davomida saqlash;<br><br>ma'lumot subyektlariga axborot tizimidan mobil ilova orqali oʻziga tegishli ma'lumotlardan foydalanish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | - |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi (Sh. Xidoyatov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8. | Kommunal tarmoqlardagi barcha raqamlar (gaz, elektr, issiq suv, ichimlik suvi, kanalizatsiya, chiqindi) jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamiga va yuridik shaxslarning soliq toʻlovchining identifikatsiya raqamiga bogʻlanishini ta'minlash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada har bir shaxsga “yagona mijoz” tamoyili asosida unikal raqamdan foydalangan holda xizmatlar koʻrsatilishini yoʻlga qoʻyish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| **78-maqsad: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Strategik islohotlar agentligi (B. Raxmatov), Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti (M. Raxmankulov)* | | | | |
| 9. | Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosatini izchil davom ettirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | 1. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududiy boʻlinmalari va mahalliy hokimliklarga oʻtkazish mumkin boʻlgan funksiya va vakolatlarini tanlab olish va ularning yakuniy roʻyxatini shakllantirish.<br><br>2. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududiy boʻlinmalari va mahalliy hokimliklar tayyorligini tahlil qilish.<br><br>3. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiya va vakolatlarini hududiy boʻlinmalar va mahalliy hokimliklarga oʻtkazish mexanizmlari (tartibi). | 2024-yil avgust | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |
| 10. | Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida strategik yoʻnalishlarni rejalashtirish tizimini yaratish boʻyicha “Strategik rejalashtirish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi. | Strategik rejalashtirishning mexanizmlari va ularning faoliyati samaradorligini baholashning kompleks tizimi joriy etish. | 2024-yil dekabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| **79-maqsad: Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov)* | | | | |
| 11. | Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, shu jumladan, ushbu sohasida parlament nazoratini kuchaytirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boʻyicha respublika kengashi vakolatlarini kengaytirish;<br><br>xalqaro reyting va indekslarni sohalar va tarmoqlarga ajratish;<br><br>alohida sohada ustuvor reytingni belgilash orqali amaldagi ustuvor etib belgilangan 24 ta xalqaro reytingni qayta koʻrib chiqish;<br><br>“Oʻzbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” yagona portalini takomillashtirish, unda mas'ul vazirlik va idoralarning ushbu sohadagi faoliyatini, chora-tadbirlar ijrosi va KPIlarga erishish holatini monitoring va tahlil qilish hamda baholash tizimini yaratish;<br><br>mamlakatimiz koʻrsatkichlari salbiy baholangan va oʻzgarishsiz qolayotgan xalqaro reytinglarni Senat majlislarida muhokama qilib borish amaliyotini kuchaytirish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Oliy Majlis Senati<br><br>*(kelishuv asosida)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy Majlis Senati (kelishuv asosida)* | | | | |
| 12. | Oʻzbekistonda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini rivojlantirish konsepsiyasi boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | 1. Oʻzbekistonda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish boʻyicha milliy va xorijiy ekspertlar ishtirokida ishchi guruh tuzish.<br><br>2. Kengash faoliyatiga doir barcha normativ-huquqiy hujjatlarni toʻliq inventarizatsiyadan oʻtkazish.<br><br>3. Xorijiy mamlakatlar tajribasini oʻrganish, konsepsiya loyihasini ishlab chiqish va uni tasdiqlash boʻyicha tegishli farmon loyihasini tayyorlash. | 2024-yil dekabr | - |
| **80-maqsad. Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uygʻunligini ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov)* | | | | |
| 13. | Xoʻjalik boshqaruvi organlari institutini bekor qilish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>2025-yil 1-yanvardan xoʻjalik boshqaruvi organlari institutini bekor qilish;<br><br>qonun hujjatlarini xatlovdan oʻtkazib, uyushmalar faoliyatiga davlat aralashuvi, jumladan, uyushmalar rahbarlarini kelishish kabi tartibotlarni bekor qilish;<br><br>xoʻjalik boshqaruvi organlarining roʻyxatini shakllantirgan holda, har biri boʻyicha davlatga taalluqli funksiyalarni tegishli vazirlik va idoralarga yuklash;<br><br>xoʻjalik boshqaruvi organlari tarkibiga kiruvchi xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga davlat organlari (yuqori turuvchi organlar), idora va tashkilotlar aralashuviga yoʻl qoʻymaslik hamda mazkur korxonalar oʻz faoliyatini bozor mexanizmlariga asoslangan holda, korporativ boshqaruv tamoyillariga muvofiq amalga oshirishini ta'minlash nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi<br><br>A. Ortiqov,<br><br>Strategik islohotlar agentligi<br><br>B. Raxmatov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| 14. | Oʻzbekiston Respublikasida qonunosti hujjatlari bilan joriy etilgan majburiy toʻlovlar va yigʻimlar roʻyxatini shakllantirish va ularni yagona qonun hujjati darajasida belgilash boʻyicha qonun loyihasi. | Oʻzbekiston Respublikasida qonunosti hujjatlari bilan joriy etilgan majburiy toʻlovlar va yigʻimlar roʻyxatini shakllantirish va ularni yagona qonun hujjati darajasida belgilash. | 2024-yil dekabr | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Soliq qoʻmitasi (Sh. Kudbiyev)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 15. | Soliq organlari faoliyatini tadbirkorlik subyektlariga xizmat koʻrsatishga transformatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br>soliq tizimining mahallalar darajasidagi faoliyati samaradorligini oshirish;<br>mahallalarda soliq xodimlarining samarali faoliyatini tashkil etish, amalga oshirilgan ishlar monitoringini va nazoratini olib borish maqsadida “Mahallalarda soliq organlari faoliyati” axborot tizimini ishga tushirish;<br>mahallalarga biriktirilgan soliq inspektorlari tomonidan tadbirkorlarga faoliyatini qonuniylashtirish va kengaytirishda yordam berish, har bir tadbirkorlik subyekti bilan manzilli ish tashkil etgan holda muammolarni hal etish;<br>past quvvatda ishlayotgan korxonalarga mavjud imkoniyatlarni oʻrgangan holda toʻliq quvvatda ishlashiga koʻmak berish hamda shu hisobidan soliq bazasini kengaytirish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>A. Xaydarov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 16. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda manfaatdor shaxslar takliflarini oʻrganish mexanizmlarini joriy qilishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>ishlab chiqilayotgan yoki ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni, loyiha yuzasidan takliflarni yuborish manzili va muddatlarini ishlab chiquvchilar tomonidan oʻzlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish majburiyatini belgilash;<br><br>olingan takliflar yuzasidan toʻldirilgan jadvalni ishlab chiquvchining rasmiy veb-saytiga joylashtirish majburiyati hamda muddatlarini belgilash;<br><br>loyihani Adliya vazirligiga ekspertizadan oʻtkazish uchun kiritishda loyiha ishlab chiquvchilarining rasmiy veb-saytlarida ishlab chiqilishi nazarda tutilgan loyiha haqidagi ma'lumotlar rasmiy e'lon qilinganligini, shuningdek, olingan takliflar yuzasidan jadvallarni taqdim qilish majburiyatini belgilash (davlat siri bilan bogʻliq boʻlgan loyihalar bundan mustasno) nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | - |
| 17. | Qonunchilik tizimini takomillashtirish va tartibga solish yukini kamaytirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>faqat qonunlar bilan tartibga solinishi lozim boʻlgan ijtimoiy munosabatlarning aniq roʻyxatini belgilash;<br><br>qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishni rejalashtirish dasturlari asosida amalga oshirish tartibini joriy etish;<br><br>normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholash tizimini takomillashtirish.<br><br>normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ilmiy tashkilotlarni keng jalb qilish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | - |
| 18. | Intellektual mulkning kafolatli himoyasini ta'minlash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada intellektual mulkning kafolatli himoyasini ta'minlash, shu jumladan kontrafakt mahsulotlar aylanmasiga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish maqsadida kontrafakt mahsulotlarni olib qoʻyish va yoʻq qilishning aniq mexanizmlarini belgilash va ayrim turdagi mahsulotlarni (oziq-ovqat, alkogol, tamaki, shaxsiy gigiyena vositalari va boshqalar) savdoga chiqarishdan oldin raqamli markirovkalashda intellektual mulk huquqlariga rioya etilganligini nazorat qilish tartibini joriy etish nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Bosh prokuratura<br><br>N. Yoʻldoshev,<br><br>Oliy sud<br><br>B. Islamov,<br><br>Bojxona qoʻmitasi<br><br>A. Mavlonov,<br><br>Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 19. | Intellektual mulk huquqlarini buzganlik uchun belgilangan javobgarlik choralarini yanada kuchaytirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Intellektual mulk huquqlarini buzganlik uchun belgilangan javobgarlik choralarini yanada kuchaytirish, jumladan jinoiy javobgarlikni joriy qilish, sanoat mulki huquqlarini buzganligi uchun BHMning 20 baravaridan 1000 baravarigacha jarima puli undirish mexanizmini joriy qilish. | 2024-yil sentabr | Bosh prokuratura<br>N. Yoʻldoshev,<br>Oliy sud<br>B. Islamov |
| 20. | Internetda, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda intellektual mulkka boʻlgan huquqni himoya qilishni yanada takomillashtirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Internetda, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda intellektual mulkka boʻlgan huquqni himoya qilishni yanada takomillashtirish. | 2024-yil dekabr | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov,<br>Bosh prokuratura<br>N. Yoʻldoshev,<br>Oliy sud<br>B. Islamov |
| 21. | Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ta'sir kuchini va rolini oshirish, toʻgʻridan toʻgʻri qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br>2017 — 2023-yillarda qabul qilingan qonunlarni xatlovdan oʻtkazish natijalari boʻyicha qonunlardagi realizatsiya qilinmagan havolaki normalarni amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash;<br>havolaki normalarni amalga oshirishning aniq muddatlari va mas'ul ijrochilarini belgilash amaliyotini joriy etish nazarda tutiladi. | 2024-yil aprel | Parlament tadqiqotlari instituti<br>A. Toshpoʻlatov |
| **81-maqsad. Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (Gʻ. Mirzayev)* | | | | |
| 22. | Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi va uni tasdiqlash toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi. | Xalqaro tashkilotlar va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda 2030-yilgacha moʻljallangan asosiy istiqboldagi yoʻnalishlar hamda maqsadli koʻrsatkichlarini oʻz ichiga olgan Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish. | 2024-yil dekabr | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>B. Musayev,<br>Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov |
| 23. | Respublika ijro etuvchi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlaridagi davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini samaradorlik koʻrsatkichlari asosida baholashni yoʻlga qoʻyish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | Loyihada birinchi bosqichda, eksperiment tariqasida, 5 ta respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida, keyinchalik esa barcha respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida va mahalliy hokimliklarda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlari asosida baholashni yoʻlga qoʻyish nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>Sh. Shermatov<br>Qoraqalpogʻiston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **82-maqsad: Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Vazirlar Mahkamasi (D. Kalandarov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 24. | Hukumat va respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududlarda aholi muammolarini aniqlash va hal etish boʻyicha mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorligini kuchaytirish, bunda Hukumat, respublika ijro etuvchi va xoʻjalik boshqaruvi organlari darajasida qaror qabul qilishni talab etadigan muammolarni “Hukumat kuni”da muhokama qilish va ularni bartaraf etish boʻyicha chora-tadbirlarni belgilash tizimini joriy qilish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>“Mahalla — tuman — viloyat — respublika” tamoyili asosida aholi muammolari roʻyxatini shakllantirib borish;<br><br>Hududlarda aholi muammolarini aniqlash va roʻyxatini yuritish boʻyicha ishchi guruh tarkibini tasdiqlash;<br><br>“Hukumat kuni”da muhokama qilinadigan muammolarni aniqlash, roʻyxatini shakllantirish hamda ularni bartaraf etish boʻyicha tartibni ishlab chiqish va tasdiqlash nazarda tutiladi. | 2024-yil aprel | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |
| **83-maqsad: Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, Oʻzbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish boʻyicha xabga aylantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Energetika vazirligi (J. Mirzamaxmudov)* | | | | |
| 25. | Energetika tizimidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va suv resurslaridan oqilona foydalanish mexanizmlarini yanada kengaytirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | 1. Yoqilgʻi-energetika tizimidagi huquqbuzarliklar koʻlami, ularning yuridik shaxslarga bevosita bogʻliq jihatlari, yuzaga kelish va ortib borish sabablarini tahlil qilish.<br><br>2. Yirik energiya va suv iste'molchilari hisoblangan yuridik shaxslar (tadbirkorlik subyektlari) faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibini belgilash.<br><br>3. Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi institutlar faoliyat yoʻnalishlarini ishlab chiqish, uning natijalarini jamoatchilikka e'lon qilib borish mexanizmini tasdiqlash. | 2024-yil avgust | Bosh prokuratura<br><br>N. Yoʻldoshev,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari boʻyicha vakili (ombudsman) (F. Eshmatova)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 26. | Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari boʻyicha vakili (ombudsman)ning faoliyatini takomillashtirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>Ombudsman oʻz oldida turgan vazifalarini moneliksiz hamda samarali amalga oshirishi uchun qoʻshimcha kafolatlar berish, ularning huquqlarini ishonchli himoya qilish choralarini belgilash;<br><br>davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi holati toʻgʻrisida Ombudsman tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisga tizimli ravishda axborot taqdim etish;<br><br>Ombudsmanning Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasiga inson huquqlari, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ayrim yoʻnalishlari boʻyicha huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar koʻrishga qaratilgan maxsus ma'ruzalar taqdim qilishi;<br><br>Ombudsmanning qonunchilik tashabbusi huquqi;<br><br>Ombudsman lavozimiga oliy ma'lumotli, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida zarur tajribaga va yuksak axloqiy fazilatlarga ega boʻlgan, saylanish kuni 30 yoshdan kichik boʻlmagan va bevosita saylovgacha kamida besh yil Oʻzbekiston hududida muqim yashayotgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkinligi;<br><br>ayni bir shaxsning ikki martadan ortiq Ombudsman etib saylanishiga yoʻl qoʻyilmasligi;<br><br>Ombudsman va uning oʻrinbosarining oʻz vakolat muddati davrida daxlsizligi boʻyicha qoʻshimcha kafolatlar;<br><br>Ombudsmanning doimiy asosda ishlovchi mintaqaviy vakili maqomi;<br><br>Ombudsman tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish boʻyicha qonun hujjatlarining buzilishiga yoʻl qoʻymaslik toʻgʻrisida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslarini yozma ravishda ogohlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlar rahbarlariga aniqlangan qonun buzilishlari boʻyicha ularni sodir etishga imkon yaratgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish toʻgʻrisida ijro etilishi majburiy boʻlgan taqdimnoma kiritish huquqi;<br><br>Davlat organlari va tashkilotlarining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalarini koʻrib chiqish bilan bogʻliq yigʻilishlarida, shu jumladan Oliy sud Plenumi majlislarida Ombudsmanning ishtirok etish huquqi;<br><br>Jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalari hududida “Ombudsman qutisi”ni saqlashning huquqiy mexanizmlari, unda erkinlikdan mahrum etilgan shaxslar tomonidan murojaatlar joylashtirish tartibi; | 2024-yil aprel | Oliy sud<br><br>B. Islamov,<br><br>Ichki ishlar vazirligi<br><br>P. Bobojonov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi va himoya qilinishi holati toʻgʻrisida Ombudsman tomonidan jamoatchilikni xabardor qilish tartibi va mexanizmi nazarda tutiladi. | | |
| **84-maqsad: Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | |
| 27. | Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining hududiy boʻlimlarida oʻtkaziladigan ekspertizalar turlarini bosqichma-bosqich oshirish, shuningdek, Markazning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>Markazning hududiy boʻlimlarida mavjud ekspertiza turlarini tahlil qilish;<br><br>Markazda mavjud boʻlgan ekspertiza turlarini Markazning hududiy boʻlimlarida bosqichma-bosqich oʻtkazish boʻyicha chora-tadbirlarni belgilash;<br><br>Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish;<br><br>Markazning Toshkent viloyatidagi hududiy boʻlimini tashkil etish nazarda tutiladi. | 2024-yil oktabr | Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov,<br>Bosh prokuratura<br>N. Yoʻldoshev |
| 28. | Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida Genetik jihatdan oʻzgartirilgan organizmlar ekspertizasini joriy etish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br><br>Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida Genetik jihatdan oʻzgartirilgan organizmlar (GMO) ekspertizasini joriy etish va lozim boʻlgan uslubiyotlarni ishlab chiqish;<br><br>Markazning xodimlarini bu borada malakasini oshirish hamda zarur boʻlgan texnologiyalar bilan ta'minlash nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Ichki ishlar vazirligi<br>P. Bobojonov,<br>Bosh prokuratura<br>N. Yoʻldoshev |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 29. | Ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari faoliyatini moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi. | Loyihada ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarida jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish va jamg‘armaning moliyaviy manbalari etib:<br>ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati saf bo‘linmalari tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha undirilgan ma'muriy jarimalar mablag‘lari;<br>fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash to‘g‘risidagi shartnomalar asosida kelib tushadigan pul mablag‘lari;<br>qurol, uning o‘q-dorilari, maxsus va xavfli yuklarning qo‘riqlovini ta'minlash to‘g‘risidagi shartnomalar asosida kelib tushadigan pul mablag‘lari;<br>ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash to‘g‘risidagi shartnomalar asosida kelib tushadigan pul mablag‘lari;<br>qurol muomalasi sohasidagi litsenziya va ruxsatnomalarni berish haqidagi arizalar ko‘rib chiqilganligi uchun undiriladigan yig‘imlar;<br>jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli itlarni umumiy bo‘ysunuvchanlik hamda himoya-qorovul ko‘nikmalari bo‘yicha tayyorlash yuzasidan pullik xizmat ko‘rsatishdan tushgan pul mablag‘lari;<br>yetishtirilgan va o‘zlarining ehtiyojidan ortiq bo‘lgan hamda komissiya tomonidan xizmatga yaroqsiz itlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari;<br>vaqtincha bo‘sh turgan milliy valyutadagi mablag‘larni tijorat banklari depozitlariga belgilangan tartibda joylashtirishdan olinadigan daromadlar;<br>qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘larni belgilash nazarda tutiladi. | 2024-yil sentabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov |
| 30. | Yo‘l harakati xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qonun loyihasi. | Loyihada:<br>trotuarlardan, velosiped yo‘lkalaridan va yashil hududlar maydonlarida avtomobilni yurgizish;<br>tegishli ruxsatsiz yo‘lning qatnov qismiga to‘siqlar o‘rnatish yoki ularni to‘sib qo‘yish, xuddi shuningdek transport vositalari va fuqarolarning harakatiga to‘sqinlik qiluvchi boshqa qurilmalarni noqonuniy o‘rnatganlik uchun javobgarlikni joriy qilish nazarda tutiladi. | 2024-yil aprel | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **87-maqsad. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish.** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 31. | Ichki ishlar organlarining probatsiya boʻlinmalari xodimlariga qoʻshimcha ustama toʻlanadigan maxsus malaka darajasini berish tartibi toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada jazo ijrosini ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yuqori natijalarga erishgan probatsiya xizmati, uning hududiy boʻlinmalari xodimlariga qoʻshimcha ustama toʻlanadigan maxsus malaka darajasini berish tartibi, shuningdek maxsus malaka darajasini berish mezonlarini ishlab chiqishda quyidagilarni inobatga olish:<br><br>axloq tuzatish ishlari jazosini oʻtayotgan nazorat ostidagi shaxslarni yuqori daromadli ishga joylashtirishga koʻmaklashish;<br><br>probatsiya nazoratidagi shaxslarni takroran jinoyat sodir etishining oldini olish;<br><br>probatsiya nazoratidagi shaxslarning ishga joylashtirish, bandligini ta'minlash;<br><br>probatsiya nazoratidagi shaxslarni qayta ijtimoiylashuvini ta'minlash;<br><br>probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan individual ishlash samaradorligi nazarda tutiladi. | 2024-yil may | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Bosh prokuratura (N. Yoʻldoshev)* | | | | |
| 32. | Jinoyat-protsessual qonunchiligida protsess ishtirokchilarini Oʻzbekistondan chiqish huquqini vaqtincha cheklash tartibini belgilash boʻyicha qonun loyihasi. | Loyihada:<br><br>Oʻzbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklash tarzidagi protsessual majburlov chorani Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritish;<br><br>gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qoʻllanilmagan, biroq Oʻzbekiston Respublikasi chegarasini tark etib surishtiruv, dastlabki tergov yoxud suddan uzrli sabablarsiz boʻyin tovlashi mumkinligiga yetarli asoslar mavjud boʻlganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ularning Oʻzbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklash nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Ichki ishlar vazirligi<br><br>P. Bobojonov,<br><br>Oliy sud<br><br>B. Islamov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Adliya vazirligi (A. Tashkulov)* | | | | |
| 33. | Sugʻurta shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni sudgacha hal etish tartibini joriy qilish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada nizolarni sudgacha hal etishni yanada kengaytirish maqsadida sugʻurta shartnomasidan (iste'molchi va sugʻurta tashkiloti oʻrtasida) kelib chiqadigan nizolar moliyaviy masalalar boʻyicha vakil instituti tomonidan hal etilishi tartibini joriy qilish nazarda tutiladi. | 2024-yil oktabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>I. Norqulov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Oliy sud (B. Islamov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 34. | Amaldagi huquqni qoʻllash amaliyotini tanqidiy jihatdan tahlil qilish, keng jamoatchilik muhokamasining natijalari ilgʻor xorijiy tajribani oʻrganish asosida ayrim toifadagi iqtisodiy ishlarni koʻrish vakolatini tegishliligi boʻyicha ma'muriy organlarga oʻtkazish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada ayrim toifadagi iqtisodiy (masalan, huquqiy ta'sir choralarini qoʻllash toʻgʻrisidagi) ishlarni koʻrish vakolatini tegishliligi boʻyicha ma'muriy organlarga oʻtkazish nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov |
| **89-maqsad: Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov)* | | | | |
| 35. | Budjet sohasiga oid huquqbuzarlik va moliyaviy xatoliklar vujudga kelishi mumkin boʻlgan xavf-xatarlarning (risk) umumlashgan Yagona tasnifini tasdiqlash va kelgusida bunday xatoliklarning oldini olish yuzasidan jamoat nazoratini oʻrnatish hamda ochiqlikni ta'minlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi. | Loyihada:<br>xavf-xatarlar (risk) klassifikatorini ishlab chiqish;<br>xavf-xatarlar (risk)larni aniqlashda axborot tizimini yaratish;<br>aniqlangan huquqbuzarlik va moliyaviy xatoliklar toʻgʻrisida ommaviy axborot vositalarida yoritib borish;<br>kamchiliklarga yoʻl qoʻyayotgan vazirlik va idoralarning roʻyxatini e'lon qilib borish;<br>budjet mablagʻlari sarflanishi ustidan jamoat nazoratini oʻrnatish orqali huquqbuzarlik va moliyaviy xatoliklarning oldini olish nazarda tutiladi. | 2024-yil oktabr | Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi<br>A. Burxanov |

Izoh: mazkur roʻyxatda keltirilmagan maqsadlar boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari 2025-yil va undan keyingi yillarga moʻljallangan Davlat dasturlarida nazarda tutiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi
PF-37-son Farmoniga
10-ILOVA

## “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yoʻnalishi boʻyicha 2024-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

ROʻYXATI

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | Normativ-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan tadbirlar | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **V. “XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT” TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH** | | | | |
| **94-maqsad: Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qoʻllab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yurtimizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ishtirok etishga intilayotgan vatandoshlarga “Vatandosh guvohnomasi”ni berish amaliyotini joriy etish doirasida “Vatandosh guvohnomasi”ni berish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada guvohnomani berish tartibini belgilovchi zarur normalar nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun | Tashqi ishlar vazirligi<br>B. Saidov,<br>Adliya vazirligi<br>A. Tashkulov,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov,<br>“Vatandoshlar” jamoat fondi<br>O. Sattarov |
| **97-maqsad: Jahonda sodir boʻlayotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Mudofaa vazirligi (B. Kurbanov)* | | | | |
| 2. | Oʻzbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat toʻgʻrisida”gi qonuniga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish boʻyicha qonun loyihasi. | Loyihada mamlakatning harbiy xavfsizligini ta'minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish nazarda tutiladi. | 2024-yil iyun | - |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Mudofaa vazirligi (B. Kurbanov)* | | | | |
| 3. | Yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, oʻquv jarayoniga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada:<br>davlat oliy ta'lim muassasalarida rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish;<br>Samarqand, Andijon, Urganch va Termiz shaharlarida joylashgan oliy ta'lim muassasalari qoshida Oʻzbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik oʻquv markazining filiallarini tashkil etish nazarda tutiladi. | 2024-2025-yillar | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>K. Sharipov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Mudofaa vazirligi (B. Kurbanov)* | | | | |
| 4. | Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish tizimini rivojlantirish, harbiy xizmatni oʻtayotgan shaxslarning huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish boʻyicha Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi. | Loyihada:<br>harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini uy-joy bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish va yangi sifat bosqichiga koʻtarish;<br>turar joyni ijaraga olganligi uchun harbiy xizmatchilarga beriladigan har oylik pul kompensatsiyasining belgilangan miqdorini 50 foizga oshirish;<br>harbiy xizmatchilarga uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlarining boshlangʻich badal miqdorini uy-joy bilan ta'minlanmagan va uy-joyga muhtoj harbiy xizmatchilarning haqiqiy kalendar hisobida xizmat muddatiga koʻra 25 foizdan 50 foizgacha oshirish, bunda kalendar hisobida yigirma yil va undan ortiq harbiy xizmatni oʻtagan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatdan rezervga (iste'foga) boʻshatilgan (chiqarilgan) fuqarolar uchun boshlangʻich badal miqdorini 50 foiz etib belgilash nazarda tutiladi. | 2024-yil yakuniga qadar | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>I. Norqulov |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **98-maqsad: Favqulodda vaziyatlar va global iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev)* | | | | |
| 5. | Suv omborlari toʻgʻonlarining zilzilabardoshligini radiolokatsion kosmik monitoring qilish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada:<br><br>Suv omborlari toʻgʻonlarining zilzilabardoshligini doimiy kosmik monitoring qilish tizimini joriy etish;<br><br>I-II-sinfga kiruvchi suv omborlari toʻgʻonlari va ularga tutash maydonlarning deformatsiyalanish, siljish va choʻkish dinamikasini aniqlash maqsadida doimiy radiolokatsion kosmik monitoringni amalga oshirish;<br><br>kuchli zilzilalar sodir boʻlganda suv omborlari toʻgʻonlarining deformatsiyalanish, siljish va choʻkish dinamikasini radiolokatsion kosmik monitoring tizimi orqali aniqlash;<br><br>suv omborlari toʻgʻonlari va ularga tutash maydonlarning turli jadallikdagi zilzilalar yoki boshqa jarayonlar natijasidagi oʻzgarishlari toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni toʻplash, qayta ishlash;<br><br>seysmologik va kosmik monitoring natijasida aniqlangan ma'lumotlarning xavfsizlik mezonlari talablariga mos kelishi (yoki aksincha) va toʻgʻonning seysmik mustahkamligi toʻgʻrisida xulosa tayyorlash;<br><br>xulosada favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish xavflari yuzaga kelishi mumkin boʻlgan holatlar aniqlanganda, suv omborlariga mas'ul boʻlgan tashkilotlar tomonidan Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Fanlar akademiyasi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda zudlik bilan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi. | 2024-yil mart | Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi<br><br>Sh. Kadirov,<br><br>Favqulodda vaziyatlar vazirligi<br><br>A.Kuldashev,<br><br>Suv xoʻjaligi vazirligi<br><br>Sh. Xamrayev,<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>Sh. Shermatov,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov,<br><br>Seysmologiya instituti<br><br>V. Rafikov |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A. Kuldashev)* | | | | |
| 6. | "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi qonun loyihasi. | Loyihada:<br><br>ma'muriy islohotlarga muvofiq vazirlik va idoralarning favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish boʻyicha vazifa va funksiyalarini qayta koʻrib chiqish;<br><br>yonish va portlash xavfi yuqori boʻlgan kimyoviy moddalar (mahsulotlar) bilan bogʻliq favqulodda vaziyatlar hamda iqlim oʻzgarishi va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish yuzasidan mahalliy va davlat hokimiyati organlarining vakolatlari va vazifalarini qayta koʻrib chiqib, tegishli qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish nazarda tutiladi. | 2024-yil noyabr | Adliya vazirligi<br><br>A. Tashkulov |
| **100-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalarini rivojlantirish** | | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul — Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)* | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 7. | Birodarlashgan hudud va shaharlar assotsiatsiyasini tuzish boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | Loyihada birodarlashgan hudud va shaharlar assotsiatsiyasini tuzish va uning faoliyatini samarali tashkil etish nazarda tutiladi. | 2024-yil dekabr | Millatlararo munosabatlar qoʻmitasi R. Kurbanov, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

Izoh: mazkur roʻyxatda keltirilmagan maqsadlar boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari 2025-yil va undan keyingi yillarga moʻljallangan Davlat dasturlarida nazarda tutiladi.

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.02.2024-y., 06/24/37/0146-son; 03.04.2024-y., 06/24/55/0263-son, 08.05.2024-y., 06/24/74/0332-son; 10.05.2024-y., 06/24/75/0335-son; 03.08.2024-y., 06/24/106/0571-son; 02.10.2024-y., 06/24/151/0764-son; 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son)*

